

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

FIZIKA KAFEDRASI

Xatamov S. O.

FIZIKA KURSINING
MEXANIKA, MOLEKULYAR FIZIKA VA
TERMODINAMIKA BO'LIMLARIDAN
MASALALAR YECHISH UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

FARG'ONA – «TEXNIKA» – 2005

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

FIZIKA KAFEDRASI

Xatamov S. O.

FIZIKA KURSINING
MEXANIKA, MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA
BO'LIMLARIDAN MASALALAR YECHISH UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

Institut uslubiy kengashi
Ma'qullab, nashr etishga tavsiya
qilgan. Bayonnomma № 2
15 dekabr 2004 yil.



FARG'ONA - «TEXNIKA» - 2005

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi qoshidagi fizika bo'yicha uslubiy birlashma tasdiqlagan amaldagi o'quv dasturiga asosan yozilgan bo'lib, u texnika oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada fizikaning «Mexanika», «Molekulyar fizika va termodinamika» bo'limlariga doir masalalarni amaliy mashg'ulot darslarida yechishning sodda va qulay usullari, mustaqil yechish uchun hayotiy va qiziqarli masalalar berilgan.

Taqrizchilar:

fizika kafedrasining dosentlari

T.X.Xomidov, A.X.Xaydarov.

Muharriri:

Fizika – matematika fanlari doktori,

professor N. A. Sultonov.

Ushbu qo'llanmani energetika va axborot
texnologiyalari fakultetining
uslubiy komissiyasi ma'qullagan.
Bayonnomma №2 05 noyabr 2004 yil.

Ushbu qo'llanmani fizika kafedrasining
uslubiy seminarida muhokama qilingan.
Bayonnomma №2. 10 oktyabr 2004 yil.

So'z boshi

Etiboringizga havola qilinayotgan fizika kursining «Mexanika», «Molekulyar fizika va termodinamika» bo'limlaridan masalalar yechish uchun uslubiy qo'llanma amaldagi o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, bundan texnika oliv o'quv yordalarining kunduzgi va sirtqi bo'lim talabalari hamda o'qituvchilar amaliy mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin.

Muallifning maqsadi talabalarni amaliy mashg'ulot darslari jarayonida masalalarni mustaqil yechishga hamda nazariy bilimlarni mustaqil ravishda amallyot bilan bog'lashga o'rgatishdir. Masalalar yechishda talabalarga qulaylik ang'dirish maqsadida har bir yo'nalish mavzulariga tegishli asosiy hisoblash formulalari berilgan hamda masala yechish namunalari va mustaqil yechish uchun ravsiya qilingan masalalar, oxirida masalalarni javoblari berilgan.

Ushbu qo'llanma qo'lyozmasini nashrqa tayyorlashdagi beg'araz yordamlari uchun fizika kafedrasining mudiri, fizika-matematika fanlari doktori, professor N.X.Yuldashevga, professor N.A.Sultonovga va fizika kafedrasining dotsentlari T.K.Xomidov va A.X.Xaydarovlarga muallif o'zining minnatdorchiligini bildiradi.

Ushbu qo'llanmani ba'zi kamchiliklardan holi deb bo'lmaydi. Shuning uchun qo'llanmani yaxshilashga qaratilgan taklif va mulohazalarining kutamiz.

Muallif.

Masalalarni yechishga doir uslubiy ko'rsatmalar

Har qanday fizik masalani yechish uchun nazariy bilimga ega bo'lismi/zarur. Oliy texnika o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan darslik yoki qo'llanmalardan echiladigan masalaga tegishli paragraflarni o'qish, asosiy qonun va formulalarni o'rganishimiz zarur.

Masalalar yechishdan asosiy maqsadimiz – fizik kattaliklar orasidagi o'zaro bog'lanishni o'rganish, asosiy formulalarni esda saqlab qolish, fizik qonun, qoida va hodisalarni rivojlanib borayotgan hozirgi zamon fan va texnikasiga, kundalik hayotga tadbiq eta bilishni o'rganishdir. Masalalar yechish – noma'lum fizik kattalikni masala shartida berilgan kattaliklar orqali ifodalashdir. Masalalarni sistematiq echib borish – hodisalarning fizik ma'nosini tushunib olishga, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qila bilish malakasini egallashga yordam beradi.

Quyidagi uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinsa, masala yechish ancha osonlashadi:

1. Masalalarni echayotganda shu qo'llanmadagi echilgan masala namunalaridan foydalaning, ularni diqqat bilan o'rganing va yechish usullarini mufassal tekshirib chiqing.
2. Masala shartini ko'chirib yozing va bir necha marta o'qib chiqib, u fizikaning qaysi bo'limga tegishli ekanini aniqlang.
3. Masala shartida berilgan va aniqlanishi zarur bo'lgan kattalik-larni yozib oling va ularni asosiy birliklarning xalkaro siste-masi (SI) orqali ifodalang. Kerakli o'zgarmas kattaliklarning son qiymatlarini kitob oxiridagi ilova va jadvallardan yozib oling.
4. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan fizik qonun va formulalarni ma'nosini qisqacha tushuntirish so'zları bilan izohlab boring.
5. Masalani shartiga mos rasm yoki chizmani aniq mashtabda chizing.
6. Masala shartidagi hamma kattaliklar siz tanlagan formulada to'liq bo'lsa, demak formula tayyor hisoblanadi. Agar siz tanlagan formulada masala shartida ayrim kattaliklar etishmasa yoki or-tiqcha bo'lsa bu formulani boshqa formula kattaliklari yordamida qayta ishlab, natijaviy ishchi formulani keltirib chiqaring.
7. Natijaviy formula to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun formuladagi fizik kattaliklarning halqaro birliklar sistemasi (SI) dagi o'Ichov birliklarini shu formulaga qo'yib izlanayotgan kattalikning o'Ichov birligini keltirib chiqaring va uni to'g'ri-ligini tekshiring. So'ng barcha kattaliklarni SI da ifodalangan son qiymatlarini formulaga qo'yib, izlanayotgan kattalikning son qiymatini hisoblab topish mumkin.

- Masalaning javobini chiqarishda oxirgi natijaning aniqlik darajasiiga ahamiyat berish kerak. Bunda javobning aniqligi masala shartida berilgan kattaliklarning aniqligidan oshmasligi kerak.

Fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklari

Biror kattalikni o'lhash b u kattalikni o'lchov birligi qilib olingen boshqa bir il jinsli kattalik bilan taqqoslashdir. Shuning uchun har bir fizik kattalikni o'lhash uchun alohida birlik tanlash kerak bo'lad i. Fizik kattaliklar orasidagi qonuniy bog'lanishni ifodalovchi formulalardan foydalanib, ko'pgina fizik kattaliklarning o'lchov birliklari kattaliklarning o'zi ham bog'lanadigan qilib tanlab olinishi mumkin.

Fizik kattaliklar orasidagi qonuniy bog'lanishlar yordamida aniqlangan birliklar to'plami o'lchov birliklari sistemasini hosil qiladi.

Birliklar sistemasini hosil qilish uchun minimal sondagi kattaliklarning ixtiyorly o'lchov birliklari olinadi, so'ngra esa bu birliklar asosida fizik qonunlar ni ifodalovchi formulalardan foydalanib, barcha boshqa fizik kattaliklarning o'lchov birliklari hosil qilinadi.

Fizik kattaliklar (masalan: uzunlik, massa)ni o'lhash ba'zilarini esa (hajm, rizhlik va hakozolarni) formula asosida hisoblab topish mumkin. Fizik kattaliklarni o'lhash uchun o'lchov birliklari tanlab olinadi. O'lhash mumkin bo'lgan fizik kattaliklarning birliklari etalon (namuna) larga ega. Fizik kattalikning qiymati deganda mazkur kattalik etalondan (yoki uning nusxasidan) necha marta farqlanishi ko'ssatadigan son tushuniladi. O'lchov birliklari ixtiyorly tanlab olingan, ya'ni bir-birligiga bog'liq bo'lmagan fizik kattaliklar sistemaning asosiy kattaliklari ideylidi.

Asosiy kattaliklarning o'lchov birliklari sistemaning asosiy birliklari ideylidi.

O'lchov birliklari ma'lum aniqlovchi tenglamalar yordamida tanlab olingan nolik kattaliklar hosilaviy kattaliklar bu kattaliklarning o'lchov birliklari esa hosilaviy birliklar deb ataladi.

Asosiy va hosilaviy birliklar to'plami birliklar sistemasi ideylidi.

Hozirgi vaqtida birliklarning halqaro sistemasi (SI)dan foydalaniadi. Sida uzunlikni metr (m), massani kilogramm (kg), vaqt ni sekund (s), elektr tok kuchini amper (A), termodynamik temperaturani kelvin (K), modda miqdorini mol (mol), yorug'lik kuchini kandela (kd) deb nomlangan asosiy birliklarda va yassi burchakni radian (rad), fazoviy burchakni steradian (sr) deb nomlangan qo'shimcha birliklarda o'lhash qabul qilingan. Asosiy birliklardan foydalanib boshqa fizik kattaliklarning o'lchov birliklari hosil qilinadi (ilovadagi 3-jadvalga qarang).

Mashhur va qiziqarli birliklarning butun va ulushlarini ifod alashda old qo'shimchalaridan foydalantiladi, odadta old qo'shimchalari oddiy nomlar (birliklariga qo'shib yoziladi). Masalan, uzunlikning 10^{-6} m birligini "mikro" deb yuritiladi, buni "mikrometr" (mm) deb atash to'g'ridir. Old qo'shimchalar ilovadagi 18-jadvalda berilgan.

I. MEXANIKA

1. KINEMATIKA ELEMENTLARI

a) ILGARILANMA HARAKAT KINEMATIKASI

Sferik koordinatalar r, θ, φ dan dekart koordinatalariga o'tish:

$$\begin{aligned}x &= r \sin \theta \cos \varphi, \\y &= r \sin \theta \sin \varphi, \\z &= r \cos \theta.\end{aligned}$$

Dekart koordinatalardan sferik koordinatalarga o'tish:


$$\begin{aligned}r &= \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}, \\ \cos \theta &= \frac{z}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}, \\ \operatorname{tg} \varphi &= \frac{y}{x}.\end{aligned}$$

Fazoda harakat qiluvchi moddiy nuqta uchta erkinlik darajasiga ega bo'lib, uning radius vektori \vec{r} vaqtning funksiyasidir

$$\vec{r} = \vec{r}(t).$$

Moddiy nuqta harakatining kinematik tenglamalari:

$$\begin{aligned}x &= x(t), \quad y = y(t), \quad z = z(t), \\r &= \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}.\end{aligned}$$



Jismning bosib o'tgan yo'lli sning t vaqtga bog'liq lik tenglamasi

$$s = s(t).$$

1-rasmda moddiy nuqtaning t₁ vaqtdagi "A" va t₂ vaqtdagi "B" vaziyatlari ko'rsatilgan. Moddiy nuqtaning o'rtacha tezligi:

$$\langle \vec{v} \rangle = \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t} \quad \text{yoki} \quad \langle \vec{v} \rangle = \frac{\Delta S}{\Delta t},$$

Bu urijat $\Delta r = \text{ko'chish vektori}$, $\Delta S = \text{bosib o'tilgan yo'l}$.

Moddiy nuqtaning oniy tezligi:

$$\vec{v} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t} = \frac{d \vec{r}}{dt}, \quad v = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{|\Delta \vec{r}|}{\Delta t} = \frac{dS}{dt}.$$

Moddiy nuqtaning tezlanishi:

$$\vec{a} = \frac{\Delta \vec{v}}{\Delta t},$$

yoki

$$a = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{|\Delta \vec{v}|}{\Delta t} = \frac{dv}{dt} = \frac{d^2 S}{dt^2}.$$

Tekis o'zgaruvchan harakatda moddiy nuqtaning tezlanishi, tezligi va hozib o'tgan yo'li:

$$\vec{a} = \frac{\vec{v} - \vec{v}_0}{t}, \quad \vec{v} = \vec{v}_0 + \vec{a}t, \quad S = v_0 t + \frac{at^2}{2}, \quad \vec{a} = \text{const},$$

Bu erda \vec{v}_0 – boshlang'ich va \vec{v} – oxirgi tezliklar, \vec{a} – tezlanish (tekis tezlanuvchan harakatda $a > 0$, tekis sekinlanuvchan harakatda $a < 0$). To'g'ri chiziqli tekis harakatda:

$$v = \frac{S}{t} = \text{const} \quad \text{va} \quad a = 0.$$

To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakatda moddiy nuqtaning koordinatasi:

$$x = x_0 + v_0 t \pm \frac{at^2}{2},$$

Bunda x_0 – boshlang'ich, ya'ni vaqt $t=0$ bo'lgan holatagi moddiy nuqtaning koordinatasi.

Agar $v_0 = 0$ bo'lsa, moddiy nuqtaning tezligi va bosib o'tgan yo'li:

$$\vec{v} = \vec{a}t, \quad S = \frac{at^2}{2}.$$

Bu formuladan: $v = \sqrt{2aS}$.

Agar $v_0 \neq 0$ bo'lsa, oxirgi formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$v^2 = v_0^2 + 2aS.$$

Boshlang'ich v_0 tezlik bilan h balandlikdan erkin tus hayotgan moddiy nuqtaning harakat tenglamasi va tezligi:

$$h = V_0 t + \frac{gt^2}{2}, \quad V = V_0 + gt,$$

bunda g - erkintushish tezlanishi, u Er sirtida o'rtacha $g=9,8 \text{ m/s}^2$. Agar $v_0=0$ bo'sha,

$$h = \frac{gt^2}{2}, \quad v = gt.$$

Yuqoriga tizik otigan jism uchun:

$$h = v_0 t - \frac{gt^2}{2}, \quad v = v_0 - gt.$$

ILGARILANMA HARAKAT KINEMATIKASIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. To'g'ri chiziq bo'ylab bir tomonga ko'chayotgan moddiy nuqta yo'lning birinchi yarmida 4 m/s tezlik bilan, ikkinchi yarmida esa 8 m/s tezlik bilan harakatlandi. Bosib o'tgan umumiyo yo'ldagi o'rtacha tezlik topilsin.

Berilgan: $v_1 = 4 \text{ m/s}$, $v_2 = 8 \text{ m/s}$.

Topish kerak: $\langle \bar{v} \rangle = ?$

Echish: O'rtacha tezlik - barcha yo'l S ni shu yo'lni bosib o'tish uchun ketgan vaqt t ga nisbatli bilan aniqlanadi. Ya'ni $v = s/t$. Yo'lning yarmini moddiy nuqta $t = (s/2)/v = s/2v$ vaqtida, ikkinchi yarmini esa $t = (s/2v) = s/(2v)$ vaqtida bosib o'tadi.

U holda:

$$t = t_1 + t_2 = \frac{s}{2v_1} + \frac{s}{2v_2} = \frac{s(v_1 - v_2)}{2v_1 v_2}$$

kelib chiqadi. Bu formuladagi t ning oxirgi ifodasini o'rtacha tezlik formulasiga qo'yasak:

$$\langle \bar{v} \rangle = \frac{s}{t} = \frac{2v_1 v_2}{v_1 + v_2} \quad \text{kelib chiqadi.}$$

Hisoblaymiz:

$$\langle \vec{v} \rangle = \frac{2v_1 v_2}{v_1 + v_2} = \frac{2 \cdot 8 \cdot 4}{4 + 8} = \frac{64}{12} \approx 5,33 \frac{m}{s}$$

Moyohni $\langle \vec{v} \rangle = 5,33 \text{ m/s}$.

2-masala. Jism $x = \frac{6t - t^3}{8}$ (m) formula bilan ifoda qilinadigan qonun bo'yicha to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qilmoqda. Jisimning $t=2$ s dan $t=6$ s yuzaga bo'lgan vaqt oralig'idagi o'rtacha tezligi va tezlanishi topilsin.

Berilgan: $x = \frac{6t - t^3}{8}$, $t_1 = 2$ s, $t_2 = 6$ s.

Topish kerak: $\langle \vec{v} \rangle = ?$ $a = ?$


yechish: Jismining harakat tenglamasi $x = \frac{6t - t^3}{8}$ dan vaqt bo'yicha birinchi va ikkinchi tartibli hisoslar olib, $v = v(t)$ va $a = a(t)$ larni topamiz:

$$\bar{v} = \frac{dx}{dt} = 6 - \frac{3}{8} \cdot t^2, \quad \bar{a} = \frac{dv}{dt} = \frac{d^2x}{dt^2} = -\frac{6}{8} \cdot t.$$


Vaqtga 0-6s qiymatlarni berib, tezlikning tegishli son qiymatlarini hisoblab quyidagi jadvalga yozamiz.

t, s	0	1	2	3	4	5	6
$v, \text{m/s}$	6	5,625	4,5	2,625	0	-3,375	-7,5

Vaqt va tezliklarning bu qiymatlarini ma'lum bir masshabda koordinata u'qilariga qo'yib, tezlik grafigini chizamiz (2-rasm)



2-rasm



3-rasm

0 dan 6 gacha vaqt oralig'idagi tezlanishlarni hisoblab quyidagi jadvalga yozamiz.

t, s	0	1	2	3	4	5	6
A, m/s ²	0	- 0,75	- 1,5	- 2,125	- 3,0	- 3,75	- 4,5

Bu jadvaldagi qiymatlardan foydalaniib, tezlanish grafigini chizamiz. (3-rasm). Jismning o'rtacha tezligi:

$$\langle \bar{v} \rangle = \frac{S_1 + S_2}{t_2 - t_1}.$$

Bundagi S_1 va S_2 lar tezlik grafigidagi shtrixlangan yuzalar bo'lib, ular son jihatidan bosib o'tilgan yo'lga teng. Bu masofani topish uchun

$$ds = vdt$$

ifodaga $v = 6 - \frac{3}{8}t^2$ ni qo'yib, integrallashni 2 s dan 4 s gacha va 4 s dan 6 s gacha bo'lgan vaqt oralikda bajaramiz, chunki 4 sekunddan keyin tezlik yo'naliishi o'zgaradi:

$$\begin{aligned} S &= \int_{\frac{3}{2}}^4 (6 - \frac{3}{8}t^2) dt + \int_{\frac{5}{2}}^6 (6 - \frac{3}{8}t^2) dt = \int_{\frac{3}{2}}^4 6dt - \frac{3}{8} \int_{\frac{3}{2}}^4 t^2 dt - \int_{\frac{5}{2}}^6 6dt + \frac{3}{8} \int_{\frac{5}{2}}^6 t^2 dt = \\ &= 6(4 - 2) - \frac{3}{8} \left[\frac{t^3}{3} \right]_{\frac{3}{2}}^4 - 6(6 - 4) + \frac{3}{8} \left[\frac{t^3}{3} \right]_{\frac{5}{2}}^6 = 12m. \end{aligned}$$

Shunday qilib, jismning o'rtacha tezligi:

$$\langle \bar{v} \rangle = \frac{12m}{(6-2)s} = 3 \frac{m}{s}$$

Jismning o'rtacha tezlanishi:

$$\langle a \rangle = \frac{-4,5 \frac{m}{s^2} + (-15) \frac{m}{s^2}}{\frac{2}{2}} = -3 \frac{m}{s^2}.$$

Javobi: $\langle \bar{v} \rangle = 3 \frac{m}{s}; \quad \langle a \rangle = -3 \frac{m}{s^2};$

3 – masala. Erga erkin tushayotgan jism oltinchi sekundda qanday tezlikka erishadi?

Berilgan: $t=6s, g=9,8 \text{ m/s}^2$.

Topish kerak: $V=?$

Yechish: Jismning erkin tushish tezligi $V=g t$ formula yordamida aniqlanadi.

Hisoblaymiz: $V=g t = 9,8 \text{ m/s}^2 \cdot 6 \text{ s} = 38,8 \text{ m/s}$.

Javobi: Erga tushayotgan jism ettinchi sekundda $V=38,8 \text{ m/s}$ tezlikka erishadi.

4-masala. Ikkita jism bir nuqtadan va bir xil boshlang'ich $v_0=34,5$ m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga $\tau=0,6$ s oralatib ketma-ket otildi. Ular birinchi jism otildi paytdan qancha vaqt o'tgandan keyin va qanday balandlikda bir-biri bilan uchrashadi?

Merilligan: $v_0 = 34,5$ m/s, $\tau = 0,6$ s, $g = 9,8$ m/s².

Turish kerak: $t=?$ $h=?$

Turish: Vaqt ni birinchi jism otildi paytdan boshlab hisoblaymiz. h-o'qim yuqoriga vertikal yo'nalgan bo'sin. U holda v_0 ni musbat, g ni esa manfiy deb hisoblash lozim. Birinchi jismning t paytdagi ko'tarilish balandligi:

$$h = v_0 t - \frac{gt^2}{2}.$$

Ikkinci jismning ko'tarilish balandligi ham shunga o'xshash formula bilan ifodalanadi, lekin u τ s keyin rok otildi uchun vaqtning o'sha momenti uchun

$$h_2 = v_0(t-\tau) - \frac{g(t-\tau)^2}{2}.$$

Ko'tarilish balandliklari tenglasidan paytda, ya'ni: $h_1 = h_2 - h$ bo'lga andai jismalar bir-biri bilan uchrashadi. Shuning uchun:

$$v_0 t - \frac{gt^2}{2} = v_0(t-\tau) - \frac{g(t-\tau)^2}{2} - \frac{g\tau^2}{2} + g\tau\tau,$$

Bundan jismalar bir-biri bilan

$$t = \frac{v_0}{g} + \frac{\tau}{2}$$

Vaqtdan so'ng uchrashadi.

Hisoblaymiz: $t = (34,5 / 9) + (0,6 / 2) = 3,82$ s .

Jismalarning bir-birlari bilan uchrashish balandligi:

$$h = v_0 \left(\frac{v_0}{g} + \frac{\tau}{2} \right) - \frac{g \left(\frac{v_0}{g} + \frac{\tau}{2} \right)^2}{2} = \frac{v_0^2}{2g} - \frac{g\tau^2}{2}$$

Hisoblaymiz: $h = \frac{(34,5)^2 - 9,8 \cdot (0,6)^2}{2 \cdot 9,8} = 60,286$ m .

Avobi: $t = 3,82$ s, $h = 60,286$ m .

ILGARILANMA HARAKAT KINEMATIKASIGA DOIR MASALALAR

1. Moddiy nuqta koordinatalari vaqt o'tishi bilan $x=4t$, $y=3t$, $Z=0$ qonun bo'yicha o'zgaradi. Nuqta bosib o'tgan yo'lning vaqtga bog'lanishini toping (masofani nuqtaning boshlang'ich holatidan boshlab hisoblang). Nuqta 5 s ichida qancha yo'lni bosib o'tadi?
2. Mototsiklchi yo'lning birinchi choragi $v_1=10$ m/s, ikkinchi choragini $v_2=15$ m/s, uchinchini choragini $v_3=20$ m/s, va so'nggi choragini $v_4=5$ m/s tezlik bilan o'tdi. Motostiklchining shu yo'ldagi ortacha tezligini aniqlang.
3. Agar avtomobil o'z harakat vaqtining $1/4$ qismida 16 m/s, qolgan qismida esa 8 m/s tezlik bilan yurgan bo'lsa, uning ortacha tezligini toping.
4. 15 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan elektropoezdagi yo'lovchi qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan va uzunligi 210 m bo'lgan poezd uning yonidan 6,0 s ichida o'tib ketganini aniqladi. Shu poezdning tezligini toping.
5. Agar bir yo'nalishda harakatlanganda piyoda har minutda velosiped chidan $S_1=210$ m ortda qolib, qarama-qarshi yo'nalishda o'sha tezliklar bilan harakatlanganda esa har 2 minutda ular orasidagi masofa $S_2=780$ m ga kamaysa, velosipedchi va piyodalar ning tezliklarini aniqlang.
6. Metro eskalatori to'xtab turganda yo'lovchi $t_1=120$ s da, harakatdagi eskalator zinalariga nisbatan o'shanday tezlik bilan harakatlanganda esa $t_2=30$ s da ko'tariladi. Yo'lovchining harakatdagi eskalatorda tinch turgan holdagi ko'tarilish vaqtini toping.
7. Matorli qayiq daryo bo'ylab bir punktdan ikkinchi punktgaga va yana orqaga suzib bordi. Agar oqimning tezligi $v_1=2$ m/s, qayiqning suvgaga nisbatan tezligi esa $v_2=10$ m/s bo'lsa, qayiqning oqimga qarshi harakat vaqtini oqim bo'ylab harakat vaqtidan necha marta katta bo'lad?
8. Agar matorli qayiqning daryodagi oqim bo'ylab tezligi 10 m/s, oqimga qarshi yo'nalishdagi tezligi esa 6,0 m/s bo'lsa, uning suvgaga nisbatan tezligini toping. Daryo suvining oqishtezligi qancha?
9. Ro'paradan esayotgan shamol oqim tezligi $v_1=25$ m/s, samolyotning havoga nisbatan ortacha tezligi esa $v_2=250$ m/s bo'lsa, bir-biridan 1000 km masofada joylashgan punktlarning biridan ikkinchisiga samolyot qancha vaqtida uchib boradi? Shamol orqadan esgan holda samolyotning uchib borish vaqtida qancha bo'lad?
10. Agar $v_1=15$ m/s tezlik bilan harakatlanayotgan avtobus oynasida tezligining vertikal tashkil etuvchisi $v_2=10$ m/s bo'lgan yomg'ir tomchilaridan $\alpha=30^\circ$ burchakka og'ishgan izlari hosil bo'lsa, ro'paradan esayotgan shamolning tezligini aniqlang.
11. Agar samolyotning havoga nisbatan tezligi $v_1=100$ m/s, harakat yo'nalisiga $\alpha=30^\circ$ burchak ostida ro'paradan esayotgan shamol tezligi $v_2=30$ m/s bo'lsa, oralaridagi masofa 500 km bo'lgan punktlarning biridan ikkinchisiga samolyotning uchib borish vaqtini toping.
12. Turboreaktiv samolyot 1,5 soat ichida 700 km masofani uchib o'tdi. Agar samolyotning havoga nisbatan tezligi 200 m/s bo'lib, shamolning yo'nalishi samolyot harakatining yo'nalishi bilan $\alpha=90^\circ$ burchak tashkil qilsa, shamolning tezligini aniqlang.
13. Ikkita suv osti kemasi har biri bir-biriga tomon V tezlik bilan suzmoqda. Birinchi kemadan yuborilgan ultratovush signalini ikkinchi kemaga urilib, t vaqtidan so'ng qaytib keldi. Signalning tezligi c ga teng. Signal yuborilgan paytda qayiqlar bir-biridan qancha masofadab o'lgan?

14. Moddiy nuqtaning harakati $x = at + bt^2 + ct^3$ tenglama bilan berilgan, bu da $a=5,0 \text{ m/s}$, $b=0,20 \text{ m/s}^2$, $c=0,10 \text{ m/s}^3$. Nuqtaning vaqt ni $t_1 = 2,0 \text{ s}$ va $t_2 = 4,0 \text{ s}$ momentlaridagi tezliklarini hamda t_1 dan t_2 gacha vaqt oralig'i dagi o'rtacha tezligini toping.
15. Nuqtaning to'g'ri chiziqli harakati $\vec{r} = 3t^2\vec{i} + 4t^2\vec{j} + 8t\vec{k}$ tenglama bilan tayvylanadi. Nuqtaning birinchi 4 s ichida bosib o'tgan yo'lini toping.
16. Samolyot uchib ketishi uchun 100 m/s tezlikka ega bo'lishi kerak. Agar yugurish yo'li 600 m bo'lsa, samolyotning yugurish vaqtini va tezlanishini toping, bunda samolyotning harakatini tekis tezlanuvchan deb hisoblang.
17. Agar zarrachaning tezligi $v=30+2t$ qonuniyat bilan o'zgarsa, o'qning to'g'ri chiziqli traektoriya bo'ylab 10 s mobaynidagi bosib o'tadigan yo'lini aniqlang. Boshlang'ich $t=0$ momentda $S=0$.
18. Qoziqyoq qoqish qurilmasidagi yuk 5 s ichida $4,9 \text{ m}$ ga bir tekis ko'tarilgandan so'ng, birdaniga qoziqyoq ustiga tushadi. Yuk har minutda qoziqyoqqa necha marta zarba berishini toping.
19. Yuqoriga tik otilgan jism $t=6 \text{ s}$ dan so'ng qaytib tushishi uchun unga qanday boshlang'ich tezlik berish zarur? Maksimal ko'tarilish balandligi qancha bo'ladi? Havoning qarshiligi hisobga olmang.
20. Zarracha $\vec{a}=2t\vec{i}+4t\vec{j}+3\vec{k}$ tezlanish bilan harakatlanm oqda. Agar boshlang'ich $t=0$ vaqt momentidagi tezlik $v_0 = 3\vec{i} + 1\vec{j} - 1\vec{k}$ bo'lsa, zarracha tezligining $t=2 \text{ s}$ vaqt momentidagi modulini aniqlang.

b) AYLANMA HARAKAT KINEMATIKASI

Egri chiziqli harakatdagi tezlanish normal va tangensial tezlanishlarning qisq'indisidan iborat:

$$\vec{a} = \vec{a}_n + \vec{a}_\tau,$$

Tezlanishlarning modullari:

$$a_n = \frac{v^2}{R}, \quad a_\tau = \frac{dv}{dt}, \quad a = \sqrt{a_n^2 + a_\tau^2},$$

Bu erda R – harakatlanayotgan moddiy nuqta traektoriyasining egrilik radiusi.

To'la tezlanish vektorining yo'nalishi:

$$\operatorname{tg}\alpha = \frac{a_n}{a_\tau}$$

nishbatdan aniqlanadi, bu erda α – to'la tezlanish bilan tezlik vektori orasidagi burchak.

Aylanma harakatda burchak tezlik va tezlanish:

$$\vec{\omega} = \frac{d\vec{\varphi}}{dt}, \quad \vec{\varepsilon} = \frac{d\vec{\omega}}{dt}.$$

Tekis aylanma harakat ning kinematik tenglamalarini:

$$\varphi = \varphi_0 + \omega t,$$

bu erda ϕ_0 – boshlang'ich burchak, ϕ – moddiy nuqta radius vektorining buriish burchagi.

Tekis aylanma harakatda $\omega = \text{const}$ va $\varepsilon = 0$ bo'ladi.

Burchak tezlik bilan aylanish davri chastotasi ν orasidagi bog'lanish:

$$\omega = \frac{2\pi}{T} = 2\pi\nu.$$

ν – aylanish chastotasi:

$$\nu = \frac{N}{t} \quad \text{yoki} \quad \nu = \frac{1}{T},$$

bu erda N – jismning t'vaqtida aylanishlar soni. Tekis o'zgaruvchan aylanma harakat ning kinematik tenglamasi $\varepsilon = \text{const}$,

$$\varphi = \varphi_0 + \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2},$$

bu erda ω_0 – boshlang'ich burchak tezlik.

Aylanma harakat tekis tezlanuvchan bo'lsa, burchak tezlik:

$$\omega = \omega_0 + \varepsilon t.$$

Burchak va chiziqli kattaliklar orasidagi ibrog'lanishlar quyidagiicha:

1) aylanma harakatda moddiy nuqta chizgan R radiusli yoyning uzunligi:

$$S = \varphi R;$$

2) chiziqli tezligi: $v = \omega R$;

3) tangensial tezlanishi: $a_t = \varepsilon R$;

4) normal tezlanishi: $a_n = \omega^2 R$.

AYLANMA HARAKAT KINEMATIKASIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. 300 ayl/min burchak tezlik bilan aylanayotgan maxovik $t=0,6$ min. ichida tormozlanadi. Maxovikning harakatini tekis sekinlanuvchan harakat deb olib, butunlay to'xtaguncha uning necha marta aylanishini toping.

Berilgan: $\nu = 300 \text{ ayl/min} = 5 \text{ ayl/s.}$, $t = 0,6 \text{ min} = 36 \text{ s}$.

Topish kerak: $N = ?$

Echilishi: Oxirgi tezlik nolga teng bo'lganligi uchun maxovik butunlay to'xtaguncha o'tgan vaqt ichidagi burchakli ko'chishni quyidagi tenglamadan topish mumkin:

$$\varphi = \frac{\varepsilon t^2}{2},$$

$$\text{bu erda} \quad \varepsilon = \frac{\omega}{t}, \quad \text{bundan} \quad \varphi = \frac{\omega t}{2},$$

$$\omega = 2\pi\nu = 2\pi \cdot 5 \frac{\text{rad}}{\text{s}} = 10\pi \frac{\text{rad}}{\text{s}}.$$

Mashovik to'xtatguncha:

$$N = \frac{\varphi}{2\pi} = \frac{\omega \cdot t}{4\pi} = \frac{10\pi \cdot 36}{4\pi} = 90 \text{ marta}$$

aylangan.

Javobi: $N=90$ marta.

2-masala. Sirtlarni silliqlovchi mashina diskini aylanish chastyasi $V=600 \frac{1}{\text{min}}$. Disk aylanishining davri T , burchak tezligi ω . Disk markazidan $R=50 \text{ sm}$ uzoqlikda nuqtaning chiziqli tezligi V topilsin.

Merilgan: $V=600 \frac{1}{\text{min}} = 10 \frac{1}{\text{s}}$, $R=50 \text{ sm}=0,5 \text{ m}$.

Topish kerak: $v=?$

Tehillishi: Diskning aylanish davri

$$T = \frac{1}{\nu} = \frac{1}{10 \text{ s}^{-1}} \approx 0,10 \text{ s} .$$

Burchak tezlik:

$$\omega = \frac{2\pi}{T} = 2\pi\nu = 2 \cdot 3,14 \cdot 10 \frac{\text{rad}}{\text{s}} = 60,28 \frac{\text{rad}}{\text{s}},$$

Chiziqli tezlik: $v = \omega \cdot R = 60,28 \frac{\text{rad}}{\text{s}} \cdot 0,5 \text{ m} = 30,14 \frac{\text{m}}{\text{s}}$.

Javobi: $V=30,14 \text{ m/s}$.

3-masala. Jism qo'zg'almas o'q atrofida $\varphi=10+20t-2t^2$ qonun bo'yicha aylanmoqda. $t=4 \text{ s}$ dagi aylanish o'qidan 10 sm uzoqlikda bo'lgan nuqtaning to'la tezlanishini va harakat yo'nalishini toping.

Merilgan: $\varphi=10+2t-2t^2$; $t=4$; $r=10 \text{ sm}=0,1 \text{ m}$.

Topish kerak: $a=?$

Tehillishi: Aylana bo'ylab harakatlanayotgan nuqtaning tezlanishini, maektoriga urinma bo'yicha yo'nalgan tangensial tezlanish a_r va maektoriana egrilik markazi tomon yo'nalgan normal tezlanish a_n larning geometrik yig'indisi sifatida topilishi mumkin, ya'ni:

$$a = \sqrt{a_r^2 + a_n^2}. \quad (1)$$

Aylanayotgan jism nuqtasining tangensial va normal tezlanishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$a_r = \varepsilon \cdot r, \quad (2)$$

$$a_n = \omega^2 \cdot r, \quad (3)$$

Bunda ω – jismning burchak tezligi, ε – uning burchak tezlanishi, r – nuqtaning aylanish o'qidan uzoqligi.

a_r va a_n ifodalarini (1) formulaga qo'yib,

$$a = \sqrt{\varepsilon^2 r^2 + (\omega^2 r)^2} = r \sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (4)$$

ni topamiz. Aylanayotgan jismning burchak tezligi ω burilish burchagidan vaqtga nisbatan olingan birinchi tartibli hosilgateng:

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt} = 20 - 4t.$$

$t=4$ s daqiburchakli tezlik:

$$\omega = (20 - 4 \cdot 4) \frac{rad}{s} = 4 \frac{rad}{s}.$$

Aylanayotgan jismning burchakli tezlanishi burchak tezlikdan vaqtga nisbatan olingan birinchi tartibli xosilgateng:

$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = -4 \frac{rad}{s^2}.$$

ω , ε va r larning qiyamatlarini (4) formulaga qo'yib,

$$a = 0,1 \sqrt{(-4)^2 + 4^2} = 1,65 \text{ m/s}^2$$

ni hosil qilamiz.

Agar tezlanish vektorining traektoriyaga o'tkazilgan urinma bilan yoki traektoriyaga o'tkazilgan normal bilan hosil qilgan burchaklarini topsak, to'la tezlanish aniqlangan bo'ladi. 4-rasmdan ko'rindagi:


$$\cos \alpha = \frac{|a_r|}{a}, \quad (5)$$

$$\cos \alpha = \frac{|a_n|}{a}. \quad (6)$$

(2) va (3) formulalar bo'yicha a_r va a_n larning qiyamatlarini topamiz:

$$a_r = -4 \cdot 0,1 = -0,4 \text{ m/s}^2,$$

$$a_n = 4^2 \cdot 0,1 = 1,6 \text{ m/s}^2.$$



4-rasm

Ингилматларни ва то'ла тезланиш аниң қиыматларини (5) ва (6) га о'йнаймиз:

$$\cos \alpha_1 = \frac{0,1}{1,65} = 0,242, \quad \alpha_1 = 76^\circ,$$

$$\cos \alpha_2 = \frac{1,6}{1,65} = 0,97, \quad \alpha_2 = 14^\circ.$$

Javobi: $a = 1,65 \text{ m/s}^2$.

To'la tezlanish *a_r* va *a_n* lar asosida qurilgan t'ortburchakning dioganalini boylab yonalqagan bo'ladi.

AYLANMA HARAKAT KINEMATIKASIGA DOIR MASALALAR

- 1) Nuqtaning koordinatalar boshiga nisbatan radius-vektori $\vec{r} = 2\vec{i} + 8\vec{t}$ qonun bo'yicha o'zgarayotgan bo'lса, nuqta qanday traektoriya b'o'ylab harakatlanayotir?

2) Zarrachaning radius vektori $\vec{r} = 3\vec{i} + 0,5\vec{t}^2\vec{i}$ ifoda bilan aniqlanadi. Zarracha tezligi va tezlanishini vaqtning $t=5$ s momentida mod ularini toping.

3) Iopp'onchadan gorizontal yo'nali shda ot ilgan o'q bir-biridan $\ell = 20$ m masofada vertikal ravishda osib qo'yilgan yuqqa qog'oz varaqlarini teshib o'tgan. Agar ikkinchi qog'ozdagi teshik birinchi qog'ozdagi dan $h = 5$ sm pastda hosil bo'lgan bo'lса, o'qning tezligini toping.

4) Gorizontga nisbatan $\alpha = 60^\circ$ burchak ostida $v_0 = 90,4$ m/s boshlang'ich tezlik bilan raketa uchirilgan. Raketa o'z traektoriyasining eng yuqorijasida portagan bo'lса, raketa piltasining yonish vaqtini toping.

5) Havoning qarshiligi hisobga olinmaganda, gorizontga nisbatan $\alpha = 45^\circ$ burchak ostida ot ilgan jismning uchish uzoqligini maksimal bo'lishini isb otlang.

6) Agar jismning eng yuqoriga ko'tarilish balandligi uchish uzoqligining $1/4$ qilmaiga teng ekanligi ma'lum bo'lса, ugorizontga nisbatan qanday burchak ostida ot ilganligini toping. Havoning qarshiligidagi hisobga olmang.

7) Jism balandligi $19,6$ m bo'lgan minoradangorizontal yo'nali shda 10 m/s tezlik bilan ot ilgan. Jism traektoriyasining teng lamasini yozing. Jismning uchish momentidagi tezligi qancha bo'ladi? Bu tezlik gorizontal yo'nali shda bilan qanday burchak hosil qilad? Havoning qarshiligidagi hisobga olmang.

8) Bir nuqtadan ikki jism bir vaqtida gorizontga nisbatan har xil α_1 va α_2 burchak ostida otib yuborildi. Agar $v_0 = 10$ m/s, $\alpha_1 = 30^\circ$ va $\alpha_2 = 60^\circ$ bo'lса, harakat boshlangandan so'ng $t = 2,0$ s o'tgan paytdagi jism lar orasidagi masofani toping.

9) Gorizontga nisbatan $\alpha = 45^\circ$ burchak ostida $v_0 = 20$ m/s boshlang'ich tezlik bilan ot ilgan jism tezligining vektori qanday balandlikda gorizont bilan $\beta = 30^\circ$ burchak hosil qilad? Havoning qarshiligidagi hisobga olmang.

10) Gorizontga nisbatan $\alpha_2 = 60^\circ$ burchak ostida 20 m/s boshlang'ich tezlik bilan ot ilgan jism tezligining vektori qancha vaqt dan keyin gorizont bilan $\beta = 30^\circ$ burchak hosil qilad? Havoning qarshiligidagi hisobga olmang.

11) Jism tog' choqqisidan $19,6$ m/s tezlik bilan gorizontal yo'nali shda o'tilgan. Harakat boshlangandan $2,0$ s o'tgan paytdagi jismning tangensial va normal tezlanishlarini toping. To'la tezlanish vektori tezlik vektori bilan qanday burchak hosil qiladi?

12) Moddiy nuqtaning XY tekislikdagи harakati $x = 3\sin \omega t$, $y = 3\cos \omega t$ (inglamalar bilan ifoda lanadi). Nuqta traektoriyasining teng lamasining yozing.

$t=0$ moment uchun $s=0$ deb hisoblab, nuqta bosib o'tgan yo'lning vaqtga bog'lanishi toping.

33. Moddiy nuqta XY tekislikda harakat lanmoqda. Agar uning harakati $x=3\sin t$, $y=2\cos t$ tenglamalar bilan ifodalansa, nuqtaning traektoriyasini aniqlang.

34. Samolyot Xabarovskdan mahalliy vaqt bilan soat 6 da uchib, Moskva vaqt bilan soat 6 da kelgan bo'lса, uning o'rtacha tezligini toping. Moskva va Xabarovsk 50° geografik kenglikda joylashgan deb hisoblang.

35. 200 ayl/s tezlik bilan aylanayotgan horizontal valga bir-biridan 20 sm masofada ikkita yupqa disk o'rnatilgan. O'qning tezligini aniqlash maqsadida o'q shunday otilgani, u ikkala diskni aylanish o'qidan bir xil masofada teshib o'tgan. Teshiklarning burchak siljishi 18° bo'lса, o'qning tezligini aniqlang.

36. 24 km/soat tezlik bilan harakat lanayotgan traktor burilganda uning massa markazi radiusi $R=9,0$ m bo'lgan yoy chizadi. Agar traktor gusenitsalari orasidagi masofa $d=1,5$ m bo'lsa, ularning tezliklari orasidagi farqni toping.

37. Tezligi $v_0=60$ km/soat bo'lgan avtomobil tormozlanganda $t=3,0$ s dan so'ng to'liq to'xtagan bo'lsa, uning g'ildiraklar avtomobil to'xtaganicha necha marta aylangan? G'ildiraklar diametri $D=0,70$ m. Tormozlanish vaqtida g'ildiraklarning o'rtacha burchak tezlanishi qancha bo'lgan?

38. Maxovik $N=20$ marta to'la aylanganda uning aylanish chastotasi $n_0=1 \text{ ayl}^{-1}$ dan $n=5 \text{ ayl}^{-1}$ gacha bir tekis ortib borgan bo'lsa, maxovikning burchak tezligini aniqlang.

39. Stvol ichidagi harakat mobaynida o'q to'la bir marta aylanadi. Agar o'qning stvoidan chiqish paytidagi tezligi $v=86$ m/s, stvol uzunligi esa $\ell=1,0$ m bo'lsa, o'q ayanishining o'rtacha burchak tezligi qanday bo'lgan? O'qning o'rtacha burchak tezlanishi-chi?

40. Erning sun'iy yo'ldoshi 600 km balandlikda doiraviy orbita bo'ylab tekis ayanishi uchun yo'ldosh Er sirtiga nisbatan qanday tezlikka ega bo'lishi kerak? Yo'ldoshning ayanish davri qancha bo'lad? Er radiusi $R=6400$ km, massasi $M=6 \cdot 10^{24}$ kg.

2. DINAMIKA

a) Moddiy nuqta dinamikasi

Turli xil jism larning massalarini zichlik p orqali taqqoslanadi. Zichlik formulasi quyidagicha:

$$\rho = \frac{m}{v},$$

bunda m - massa, v - hajm.

Nyutonning ikkinchi qonunini matematik ko'rinishi quyidagicha yoziladi:

$$\vec{F} = m\vec{a} \quad \text{yoki} \quad \vec{a} = \frac{\vec{F}}{m},$$

bunda \vec{a} - tezlanish, \vec{F} - kuch.

Jismga bir vaqtning o'zida bir necha kuch ta'sir etsa, Nyutonning ikkinchi qonuni bilan aniqlanadi tezlanish:

$$\vec{a} = \frac{\sum \vec{F}_i}{m} = \frac{\vec{F}}{m},$$

Bunda $\vec{F} = \sum \vec{F}_i$ jismga ta'sir etayotgan barcha kuchlarning vektor yig'indisi.
Uyut qayidagi icha yozish ham mumkin:

$$m\vec{a} = \sum \vec{F}_i.$$

Nyut on uchinchi qonuning analitik ifodasi:

$$\vec{F}_{12} = -\vec{F}_{21},$$

Bunda \vec{F}_{12} – birinchi jismga ikkinchi jism tomonidan ta'sir etuvchi kuch, \vec{F}_{21} – ikkinchi jismga birinchi jism tomonidan ta'sir (aks ta'sir) etuvchi kuch. Nyut on ikkinchi qonuniga asosan birinchi jism

$$\vec{a}_1 = \frac{\vec{F}_{12}}{m_1},$$

ikkinchi jism

$$\vec{a}_2 = \frac{\vec{F}_{12}}{m_2}$$

tezlanish oladi.

Uyut oridagi ikki ifodadan:

$$\vec{a}_1 = \frac{m_2}{m_1} \cdot \vec{a}_2.$$

Mexanikada uchraydigan kuchlar:

a) elastiklik kuchi: $F_{el} = -kx;$

b) ishqalanish kuchi: $F_{ishq} = \mu \cdot \vec{N};$

c) og'irlik kuchi: $P = mg;$

d) gravitatsion kuchi: $F = G \frac{m_1 m_2}{r^2}.$

Bu formulalarda: k – elastiklik koefitsienti, μ – ishqorasi siljish bilan elastiklik kuchi qarama-qarshi ekanligini ko'rsatadi, x – siljish, \vec{N} – ishqalanish koefitsienti, $P = mg$ – normal bosim kuchi, ya'nii tayanch yuzga perpendicular uylagan kuchi, g – erkin tushish tezlanishi.

O'zgaruvchan massali sistema harakatining tenglamasi (Mes'hcherskiy tenglamasi):

$$m \frac{d\vec{v}}{dt} = \vec{u} \frac{dm}{dt} + \vec{F}.$$

Bunda $\vec{u} = \vec{v}_0 - \vec{v}$ – raketa bilan harakatlanuvchi sanoq sistemasiga nisbatan chiqayotgan gazning tezligi.

Raketaning tezligi (Siolkovskiy formulasi):

$$\bar{u} = u \ln \frac{m_0}{m},$$

bu erda u - zarrachaning raketaga nisbatan tezligi m_0 va m raketaning boshlang'ich va oniy massasi.

Qo'zg'olmas blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga osilgan m_1 va m_2 massali jismilar harakatida ipning taranglik kuchlari T_1 va T_2 bo'ladi (5-rasm). Og'irlik kuchi va ipning taranglik kuchlarini teng ta'sir etuvchisi yuklarni harakatga keltiradi ($P_2 > P_1$):

$$\bar{F}_1 = \bar{T}_1 - \bar{P}_1, \quad \bar{F}_2 = \bar{P}_2 - \bar{T}_2.$$

Nyutonning ikkinchi qonuniga ko'r'a:

$$\bar{F}_1 = m_1 \bar{a}, \quad \bar{F}_2 = m_2 \bar{a}.$$

Ip bilan blok orasidagi ishq qalanish hisobga olinmasa:

$$m_1 a = T - R_1 \quad \text{va} \quad m_2 a = T - R_2.$$



5-rasm

Bulardan:

$$a = \frac{P_2 - P_1}{m_2 + m_1} \quad \text{yoki} \quad a = \frac{m_2 - m_1}{m_1 + m_2} \cdot g.$$

Tezlanishni bilgan holda

$$T = P_2 - m_2 a \quad \text{yoki} \quad T = P_1 + m_1 a \quad \text{dan} \quad T = \frac{2m_1 \cdot m_2}{m_1 + m_2} \cdot g.$$

Blok o'qigata'sir etuvchi kuch:

$$F = T_1 + T_2 = 2T.$$

MODDIY NUQTA DINAMIKASIGA DOIR MASALALAR

ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Massasi 5 t bo'lgan yuksiz avtomashina $0,5 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan qo'zg'alди. Yuk ortilgan avtomobil xuddi avvalgidek tortish kuchi ta'sirida harakatga kelib, 6 sekunddan so'ng 2 m/s tezlikka erishadi. Ortilgan yukning massasini toping.

Berilgan: $m_1 = 5T = 5 \cdot 10^3 \text{ kg}$; $a_1 = 0,5 \text{ m/s}^2$; $t = 0,6 \text{ s}$; $v = 2 \text{ m/s}$.

Topish kerak: $m_2 = ?$

Tchish: Avtomobilning tortish kuchi Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan $a = \frac{F}{m_1 + m_2} = \frac{m_1 a_1}{m_1 + m_2}$ tezlanish oladi. Yuk ortilgan avtomobilning umumiy massasi $(m_1 + m_2)$ huddi avvalgidek tortish kuchi F ta'sirida boshlang'ich tezliksiz tekis tezlanuvchan harakting tezlik formulasi $v = at$ dan foydalanib topish mumkin:

$$a = \frac{v}{t}.$$

Tezlanishlar ning ikkala ifodasini tenglashtiraylik:

$$\frac{m_1 a_1}{m_1 + m_2} = \frac{v}{t},$$

Bundan

$$m_2 = \frac{m_1(a_1 t - v)}{v}$$


Formulaga kelamiz.

misoblaymiz:

$$m_2 = \frac{5 \cdot 10^3 (0,5 \frac{m}{s^2} \cdot 6c - 2 \frac{m}{s})}{2 \frac{m}{s}} = 2,5 \cdot 10^3 \text{ kg}.$$

Javobi: Yukning massasi $m_2 = 2,5 \cdot 10^3 \text{ kg}$.

2-masala. Ogorligi 1000 N bo'lgan jism gorizont bilan 30 gradus burchak hosil qilgan tekislik bo'ylab yuqoriga harakatlanmokda. Yuqoriga tortuvchi kuch qiya tekislikka parallel bo'lib, uning qiymati 800N (6-rasm). Ishqalanish koefficienti 0,05 ga teng. 2 sekund davomida yuk qancha masofaga siljiyd?



Herilgan: $P=1000\text{N}$, $\alpha=30^\circ$, $F_t=800\text{N}$,

$$\mu=0,05, \quad t=2 \text{ s}.$$

6-rasm

Topish kerak: $S=?$

Tchish: \vec{P} kuchni ikki tashkil etuvchiga ajratamiz. Ularning biri qiya tekislikka parallel bo'lib uning qiymati $P \sin \alpha$ ga teng. Ikkinchisi qiya

tekislikka perpendikulyar, uning qiymati $P \cos \alpha$ ga teng. Qiya tekislik bo'ylab yuqoriga harakatlanayotgan yukning harakat tenglamasi quyidagiicha b'o'ladidi:

$$F_t - F_{ishq} - P \sin \alpha = ma.$$

F_{ishq} ni topish uchun ishqalanish koeffitsientini formulasi $\mu = \frac{F_{ishq}}{P \cos \alpha}$ dan foydalanamiz.

Natijad a

$$F_{ishq} = \mu \cdot P \cos \alpha$$

Ifoda hosil bo'ladi. F_{ishq} ning qiymatini harakat tenglamasiqa qo'yamiz:

$$F_t - \mu P \cos \alpha - P \sin \alpha = ma = \frac{P}{g} \cdot a.$$

Bundan

$$a = \left(\frac{F_t}{P} - \mu \cos \alpha - \sin \alpha \right) \cdot g$$

ifodani hosil qilamiz.

Tekis tezlanuvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l formulasi dan foydalanib,

$$S = \frac{at^2}{2} = \left(\frac{F_t}{P} - \mu \cos \alpha - \sin \alpha \right) \cdot \frac{gt^2}{2}$$

natijaga kelamiz.

$$Xisoblaymiz: \quad S = \left(\frac{800N}{1000N} - 0,05 \cos 30^\circ - \sin 30^\circ \right) \cdot \frac{9,8 \frac{m}{s^2} (2s)^2}{2} \approx 5 \text{ m}.$$

Javobi: $S = 5 \text{ m.}$

3-masala. Tinch holatagi massasi 10 kg bo'lgan jismni arqon bilan erdan yuqoriga tik ravishda ko'tarilmokda, havoning qarshilik kuchi 0,6 N. Jism 4 s davomida 16 m balandlikka ko'tarildi. Arqonning taranglik kuchini aniqlang.

Berilgan: $m=10 \text{ kg}$, $t=4 \text{ s}$, $S=16 \text{ m}$, $F_q=0,6 \text{ N}$.

Topish kerak: $T=?$

Tichish: Masala shartini aks ettiruvchi chizmada $m\vec{g}$ og 'irlik kuchi \vec{T} -ning taranglik kuchi, \vec{F}_k havoning qonilik kuchi. Nyutonning ikkinchi qonuni vebi ko'rinishda quyidigicha yoziladi:

$$\vec{T} + m\vec{g} + \vec{F}_k = m\vec{a}.$$

OY o'qning musbat yo'nalishi harakat yo'nalishi bilan mos tushsin (7-rasm).

Yukka ta'sir etuvchi kuchlar bir to'g'ri chiziqda yotgani uchun Nyutonning ikkinchi qonunini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$m\vec{a} = \vec{T} - m\vec{g} - \vec{F}_k.$$

Bundan

$$\vec{T} = m(\vec{a} + \vec{g}) + \vec{F}_k.$$

Vaqt davomida jism $s = \frac{at^2}{2}$ masofaga ko'tarilganidan foydalanib $a = \frac{2s}{t^2}$ ni topamiz. Bu ikki tenglikdan

$$T = m\left(\frac{2s}{t^2} + \vec{g}\right) + \vec{F}_k$$

ni topamiz.

Hisoblaymiz: $T = 10kg\left(\frac{2 \cdot 16m}{(4s)^2} + 9,8 \frac{m}{s^2}\right) + 0,6N = 118,6N$.

Izobi: $T = 118,6 N$.

4-masala. Boshlang'ich massasi $m_0 = 1,2 \text{ kg}$ bo'lgan raketaning modelini tortish maydonida vertikal ravishda yuqoriga ko'tarilmokda. Agar raketadan har sekundda otilib chiqayotgan $0,4 \text{ kg}$ massali gaz oqimining raketaga nisbatan tezligi 800 m/s bo'lsa harakat boshlanishidan 1 s o'tgach, raketaga nisbatan qanday tezlikka erishadi? Raketaning boshlang'ich tezligi $v_0 = 0$

Berilgan: $v' = 800 \text{ m/s}$, $\frac{\Delta m}{\Delta t} = 0,4 \text{ kg/s}$, $m_0 = 1,2 \text{ kg}$, $t = 1 \text{ s}$.


Topish kerak: $V = ?$

Tichish: Masalani echish uchun Nyutonning ikkinchi qonunini quyidagi ko'rinishidan foydalanamiz:

$$\vec{F} dt = d\vec{p}, \quad (1)$$

Bundan

$$d\vec{p} = d\vec{p}_1 + d\vec{p}_2,$$



7-rasm

bu erda $d\vec{P}_1$ - gaz oqimining reaktiv ta'siri ostida raketa impulsining o'zgarishi bo'lib, u quyidagi ateng:

$$d\vec{P}_1 = (m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} \cdot t) d\vec{v}.$$

dP_2 - ot ilib chiqayotgan gaz oqimining impulsi:

$$d\vec{P}_2 = \frac{\Delta m}{\Delta t} \cdot \vec{v} dt$$

\vec{F} - og'irlik kuchi bo'lib, u boshlang'ich vaqtida $\vec{F} = m_0 g$ ga teng. \vec{F} , $d\vec{P}_1$, $d\vec{P}_2$ - larning ifodalarini (1) tenglamaga qo'yamiz:

$$(m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} \cdot t) d\vec{v} = (m_0 \vec{g} - \frac{\Delta m}{\Delta t} \vec{v}) dt.$$

Raketadan chiqayotgan gaz oqimining tezligi \vec{v}' erkin tushish tezlanishi bilan bir tomonga, u tezlik esa, ularga qarama-qarshi tomona yo'nalg'anligini hisobga olib, oxirgi tenglikni qo'yidagi skalyar ko'rinishiga keltiramiz:

$$(m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} \cdot t) d\vec{v} = -(m_0 \vec{g} - \frac{\Delta m}{\Delta t} \vec{v}') dt.$$

Buteng lamaning har ikki tomonini

$$(m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} \cdot t)$$

ga b o'lamiz:

$$dv = \frac{\Delta m}{\Delta t} v' \left(\frac{1 - \frac{m_0 g}{\Delta m} v'}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} t} \right) dt \quad \text{yoki} \quad dv = v' \left(\frac{1 - \frac{m_0 g}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} v'}}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} t} \right) \frac{\frac{\Delta m}{\Delta t} dt}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} t},$$

tezlik du ni 0 dan v gacha va vaqtini 0 dan t gacha bo'lgan oraliqda integrallaymiz.

$$\int_0^v dv = v' \left(\frac{1 - \frac{m_0 g}{\Delta m} v'}{\frac{\Delta m}{\Delta t} v'} \right) \int_0^t \frac{\frac{\Delta m}{\Delta t}}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} t} \cdot dt,$$

b undan

$$v = v' \left(1 - \frac{m_0 g}{\Delta m v'} \right) \ln \frac{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} t}{m_0 - \frac{\Delta m}{\Delta t} 0}.$$


Hisoblaymiz:

$$v = 800 \frac{m}{s} \left(1 - \frac{1,2 \text{kg} \cdot 9,81 \frac{m}{s^2}}{0,4 \frac{\text{kg}}{s} \cdot 800 \frac{m}{s}} \right) \ln \frac{1,2 \text{kg}}{1,2 \text{kg} - 0,4 \frac{\text{kg}}{s} \cdot 1s} = 800 \frac{m}{s} (1 - 0,037) \ln \frac{3}{2} = 308,16 \frac{m}{s}.$$

$v = 308,16 \text{ m/s.}$

MODDIY NUQTALAR DINAMIKASIGA DOIR MASALAR


11. Massasi $m=2 \text{ kg}$ bo'lgan tinch turgan jismga $t=5 \text{ s}$ davomida $F=4 \text{ N}$ kuch qilladi. Jism qanday α tezlanish bilan harakatlanadi, u qanday v_t tezlik oladi va shu vaqt ichida u qancha S yo'lini o'tadi?



11-rasm

Brusokning stoliga ishqalanish koefitsienti $0,3$ ga teng bo'lsa, sistema qanday tezlanish bilan harakatlanadi? Ipning taranglanish kuchi qanday?

14. Agar g'ildiraklarning yo'l qoplamasiga ishqalanish koefitsienti $\mu=0,5$ bo'lsa, qiyalik burchagi $\alpha=20^\circ$ bo'lgan qiya yo'lidan yuqoriga harakatlayotgan avtomobil qanday eng katta tezlanishga erishishi mumkin? O'starilish boshlanishidagi tezlik $v_0=10 \text{ m/s}$ bo'lsa, avtomobil $t=10 \text{ s}$ ichida uncha yo'l bosadi?



9-rasm

Beradigan bosimdan ikki marta katta bo'ladi? Har ikkala holda ham ko'prlikning egrilik radiusini $R=30 \text{ m}$ deb oling.

19. Agar tezligi $v=10 \text{ m/s}$ bo'lgan avtomobilning tormozlanish yo'li $s=8,0 \text{ m}$ bo'lsa, avtomobil g'ildiraklari bilan yo'l orasidagi ishqalanish koefitsienti qanchaga teng?

20. Gorizonttal tekislikda $5,0 \text{ kg}$ massali jism yetibdi. Gorizontga nisbatan $\alpha=60^\circ$ burchak ostida yo'nalagan $F=50 \text{ N}$ kuch ta'sirida jism $t=1,0 \text{ s}$ vaqt

ichida qancha yo'lni b osib o'tadi? Jism bilan tekislik orasidagi ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,20$ deb oling.

51. Gorizont bilan $\alpha=45^0$ burchak hosil qiluvchi $F=5,0$ N kuch ta'sirida $m=2,0$ kg massali jism gorizontal yo'nalishda qanday tezlanish bilan harakat lanadi? Ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,10$.

52. Suvli bak qiyaligi $\alpha=30^0$ bo'lgan qiya tekislikda turibdi. Bakdag'i suv sirti qiya tekislikka parallel bo'lishi uchun qiya tekislikni gorizontal yo'nalishda qanday tezlanish bilan harakat lantirish kerak?


53. $m_1=70$ kg massali odam suvda harakatsiz turgan qayiq tumshug' idan uning quyruq 'iga o'tganda qayiq qancha masofaga siljiydi? Qayiq ning uzunligi 2,5 m, massasi $m_2=100$ kg deb oling. Suvning qarshiligi hisobga olmang.

54. $M=15 \cdot 10^3$ kg massali suyuq yonilg'ili raketa vertikal yo'nalishda uchirilmogda. Yonilg'i sarfi $Q=150$ kg/s. Agar yongan gazlarning soplodan chiqish tezligi $u=3,0$ km/s bo'lsa, dvigatel ishlab turgan $t=1$ min vaqt ichida raketa qanday balandlikka ko'tariladi?

55. Uchish boshlangandan ma'lum vaqt o'tgach og'irlik maydonida qo'zg'aimay turishi uchun yuqoriga tik yo'nalgan M boshlang'ich massali raketa har sekundiga qanday massali gazni chiqarib turishi kerak? Gaz oqimining raketaga nisbatan tezligini u deb oling. Og'irlik kuchi tezlanishini balandlik bo'yicha o'zgarishini hisobga olmang.

56. Gorizontal holatdagi disk o'zining markazi orqali o'tgan vertikal o'q atrofida aylanmoqda. Disk ustida aylanish o'qidan $R=10$ sm masofada yuk joylashgan. Aylanish chastotasi $n=0,5$ ayl/s bo'lганда yuk disk sirti bo'ylab sirpana boshlagan bo'lsa, disk bilan yuk orasidagi tinchlikdagi ishqalanish koeffitsienti qanday bo'lgan?

57. Uzunligi $\ell=49$ sm, ipining vertikal bilan hosil qilgan burchagi esa, $\alpha=60^0$ bo'lgan konusimon mayat nikning (10-rasm) aylanish davrini toping.



10 - rasm

58. $m=200$ g massali jism $\ell=80$ sm uzunlikdagi ipga osilgan. Jism muvozanat holatidan osilish nuqtasi balandligigacha og'dirib qo'yib yuborilganda ip uzelilib ketgan. Agar ip $F=4,0$ N kuch ta'sirida uzeladigan bo'lsa, ipning uzelish paytidagi jism qanday balandlikda bo'lgan?

59. Massasi 10^4 kg bo'lgan vagon yurib ketayotgan sostavdan ajralib qolgach, tekis sekinlanuvchan harakat qilib 20 s ichida 20 m yo'l bosib o'tib to'xtadi. Ishqalanish kuchini, ishqalanish koeffitsientini va vagonning boshlang'ich tezligini toping.

60. Avtomobil qiya yo'ldan $v=10$ m/s tezlik bilan ko'tarilib bormogda. Agar ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,5$ va qiyalik burchagi $\alpha=10^0$ bo'lsa, avtomobilning to'xtaguncha bosib o'tgan yo'li va harakatlanish vaqtini toping.

b) QATTIQ JISM AYLANMA HARAKATINING DINAMIKASI

Absolyut qattiq jismning qo'zg'almas o'qqa nisbatan kuch momenti:

$$\vec{M} = \vec{F} \cdot \ell,$$

bu erda ℓ - kuch elkasi bo'lib, u aylanish o'qidan kuchning ta'sir chizig'iga perpendikulyar ravishda o'tkazilgan eng qisqa masofa. Moddiy nuqtalar

Elementarning qo'zg'almas z o'qqa nisbatan inersiya momentlarining yig'indisi:

$$I_z = \sum_{i=1}^n \Delta m_i r_i^2,$$

Bu erda Δm_i – i -elementi massasi, r_i – i -element radius vektori. Butun hajm bo'yicha zichligi p bir xil bo'lgan bir jinsli jismning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti:

$$dm = \rho dV \quad \text{va} \quad I = \rho \int r^2 dV,$$

Bu erda V – jism ning hajmi.

Qattiq jism dinamikasining asosiy tenglamasi:

$$I_z \varepsilon = M_z$$

Bu erda I_z jismning qo'zg'almas z o'qiga nisbatan inersiya momenti, ε – borchak tezlanish, M_z – tashqi kuchlarning aylanish o'qiga nisbatan momentlarining algebraik yig'indisi.

Ba'zi jism lar ning inersiya momenti:

1. Aylanish o'qidan R masofadagi m massali m oddiy nuqta uchun:

$$I = mR^2.$$

uzunlikdagining ichka sterjenning uning inersiya markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = \frac{1}{12} m\ell^2,$$

Bu erda m – sterjen massasi.

Agar aylanish o'qi sterjenga perpendicular bo'lib uning birorta uchi orqall o'tgan bo'lsa,

$$I = \frac{1}{3} m\ell^2.$$

Diskning o'z tekisligiga tik va markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = \frac{1}{2} mR^2.$$

Yupqa devorli truba yoki xalqaning geometrik o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = mR^2.$$

Massasi m bo'lgan silindr trubaning simmetriya o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = \frac{1}{2} (R_2^2 - R_1^2),$$

Bu erda R_1 va R_2 silindrning ichki va tashqi radiuslari.

2. Sharning markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = \frac{2}{5} mR^2.$$

7. Yuzqa diskning diametri bilan ustma-ust tushgan o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$I = \frac{1}{4} mR^2.$$

8. Inersiya markazidan o'tmagan ixtiyoriy o'qqa nisbatan jismning inersiya momenti Shteyner teoremasiga asosan aniqlanadi:

$$I = I_0 + md^2,$$

bu erda I_0 jismning O nuqtadan o'tuvchi o'qqa paralell va og'irlilik markazi orqali o'tgan o'qqa nisbatan inersiya momenti, d o'qlar orasidgi masofa.

Impuls momenti:

$$L = I\omega.$$

bu erda ω - burchak tezlik.

Aylanma harakatdagi jismning bajargan ishi $\Delta A = M\Delta\varphi$ va kuch momenti o'zgarmas bo'lsa, tashqi kuchlarning bajargan ishi:

$$A = M\varphi,$$

bu erda M - kuch momenti, φ - buriish burchagi.

Qo'zg'almas o'q atrofida aylanuvchi qattiq jismning kinetik energiyasi:

$$E_k = \frac{I_z \omega^2}{2}.$$

QATTIQ JISM AYLANMA HARAKATINING DINAMIKASIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-Masala. 0072=15sm radiusli g'altakka o'ralgan ipning uchiga $m=500g$ yuk osib qo'yilgan. Agar yuk $a=100$ sm/s 2 tezlanish bilan pastga tushib borayotgan bo'lsa, g'altakning inersiya momenti topilsin.

Berilgan: $M=500$ g=0,5 kg; $r=15$ sm = 0,15 m; $a=100$ sm/s 2 =
 $=1$ m/s 2 .

Topish kerak: $I=?$

Echish: Qattiq jism aylanma harakatining asosiy tenglamasi:

$$M = I \cdot \varepsilon,$$

bu erda M -aylantiruvchi moment, ε - burchak tezlanish, $/-$ inersiya momenti.

Aylantiruvchi moment M ni ipni tarang lantiruvchi kuch T vujudga keladiradi, shuning uchun:

$$M = r \cdot T. \quad (2)$$

Ni taranglik kuchini topish uchun yukka nisbatan Nyutonning ikkinchi qonunini qo'llaymiz, ya'ni $ma = F$ bunda $m = \frac{P}{g}$, $F = P - T$ ekanligidan:

$$\frac{P}{g} \cdot a = P - T \quad \text{bunda} \quad T = P \left(1 - \frac{a}{g} \right). \quad (3)$$

(1) ni (2) ga qo'yosak:

$$M = P \cdot r \left(1 - \frac{a}{g} \right), \quad (4)$$

Bu erda $P = mg$ - yukning og'irligi.

Masalaning shartiga binoan $\varepsilon = \frac{a}{r}$, chunki g'altak gardishi nuqtalarining hiziqli tezligi yukning tezligiga teng.

$$I = \frac{M}{\varepsilon} = \frac{M \cdot r}{a} = \frac{P \cdot r^2}{a} \left(1 - \frac{a}{g} \right) \quad (5)$$

yoki $P = mg$ ekanligidan (5) ni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$I = \frac{mr^2}{a} (g - a). \quad (6)$$

Hissob laymiz:

$$I = \frac{0,5 \text{ kg} \cdot (0,15 \text{ m}^2)}{0,96 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}} \cdot \left(9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} - 1 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \right) \approx 0,0979 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

Javobi: $I = 0,0979 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

2- masala. Agar 10 kVt quvvatli motor 1 minutda 3000 marta aylanayotgan bo'lsa, uning aylantiruvchi momenti topilsin.

Herilgan: $N=10 \text{ kVt}=10^4 \text{ Vt}$, $n=3000 \text{ ayl/min}=50 \text{ ayl/s}$.

Topish kerak: $M=?$

Chish: Quvvatning formulasi:

$$N = \frac{dA}{dt} = \frac{Md\varphi}{dt} = M\omega.$$

Mat or ning burchakli tezligi:

$$\omega = 2\pi n = 2 \cdot 3,14 \cdot 50 = 314 \frac{1}{s}.$$

mat or ning aylantiruvchi momenti:

$$M = \frac{N}{\omega}$$

form ulad an t op iladi.

His ob laymiz:

$$M = \frac{N}{\omega} = \frac{10^4 Vt}{314 \frac{1}{s}} \approx 31,84 N \cdot m$$


Javobi: $M=31,84 \text{ N m.}$

3-masala. Disk shaklidagi massasi $m=0,06 \text{ kg}$ bo'lgan blok orqali ing ichka, pishiq ip o't kazilgan. Ipnинг uchlariga $m_1=0,2 \text{ kg}$ va $m_2=0,3 \text{ kg}$ bo'lgan yuklar osilgan. Agar bu yuklarni o'z erkiga qo'yilsa, ular qanday tezlanish bilan harakat qiladi? Ishqalanish hisobga olinmasin.


Berilgan: $m=0,06 \text{ kg}$, $m_1=0,2 \text{ kg}$, $m_2=0,3 \text{ kg}$.

Topish kerak: $\Delta = ?$

Echish: 1-usul Masalani echis hda ilgarinlanma va aylanma harakatlarning asosiy qonunularidan foydalanamiz. Harakatlanayotgan har bir yukka ikkitga kuch: pastga yo'nalgan ogirlik kuchi $P=mg$ va yuqoriga yo'nalgan ipning taranglik kuchi T ta'sir qiladi.(10a-rasm).



10a-rasm



10b-rasm

m_1 yuk yuqoriga ko'tariladi, demak, $T_1 > m_1 g$. Nyuttonning ikkinchi qonuniga ko'ra, bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi ularning ayirmasiga teng bo'lib, yuk massasiga va uning harakat tezlanishiga to'g'ri proporsional.

$$T_1 - m_1 \cdot g = m_1 a,$$

bundan

$$T_1 = m_1 g + m_1 a.$$

(1)

m_2 yuk pastga tushadi, demak $T_2 < m_2 g$. Bu yuk uchun ikkinchi qonun formulasini yozamiz:

$$m_2 g - T_2 = m_2 a,$$

bundan

$$T_2 = m_2 g - m_2 a.$$

(2)

Aylanma harakat dinmikasining asosiy qonuniga muvofik, diskka qo'yilgan aylantiruvchi moment M diskning inersiya momenti I ning uning burchak tezlanishi ε ga ko'paytmasiga teng.

$$M = I \cdot \varepsilon. \quad (3)$$

Aylantiruvchi momentni aniqlaymiz. Iplarning taranglik kuchi faqat yuqlarga ta'sir qilmay, balki diskka ham ta'sir qiladi. Nyutonning uchinchi qonuniga ko'ra, disk gardishiga qo'yilgan T' va T' kuchlar kattalik jihatidan T_1 va T_2 kuchlarga mos ravishda teng, lekin yo'nalish jihatidan ularga karama-qarshidirlar. Yuklar harakatlanganda disk soat strelkasi yo'nalishida aylanadi, demak $T'_2 > T'_1$. Diskka qo'yilgan aylantiruvchi moment, bu kuchlar yirmsining disk radiusi bilan ko'paytmasiga teng, ya'ni

$$M = (T'_2 - T'_1)r.$$

Diskning inersiya momenti

$$I = \frac{mr^2}{2}.$$

Burchak tezlanish yuqlarning chiziqli tezlanishi bilan $\varepsilon = \frac{a}{r}$ munosabat orqali bog'langan. (3) formulaga M , I ifodalarni qo'yib, quyidagi ni topamiz:

$$(T'_2 - T'_1) \cdot r = \frac{mr^2}{2} \cdot \frac{a}{r},$$

bundan

$$T'_2 - T'_1 = \frac{m}{2} \cdot a. \quad (4)$$

$T_1 = T_1$ va $T'_2 = T_2$ bo'lgani uchun T'_1 va T'_2 kuchlarni (1) va (2) formuladagi diskalar bilan almashtirish mumkin, u holda:

$$m_2 g - m_2 a - m_1 g - m_1 a = \frac{m}{2} a$$

yoki

$$(m_2 - m_1)g = \left(m_2 - m_1 + \frac{m}{2} \right) a,$$

b undan

$$a = \frac{m_2 - m_1}{m_2 - m_1 + \frac{m}{2}} g. \quad (5)$$

Hisoblaymiz :

$$a = \frac{0,3\text{ kg} - 0,2\text{ kg}}{0,3\text{ kg} + 0,2\text{ kg} + \frac{0,06\text{ kg}}{2}} \cdot 9,81 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} = 1,85 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}.$$

Javobi: $a = 1,85 \text{ m/s}^2$.

2-usul. Masalani echishda energiyaning saqlanish qonunini q'ollaymiz, bu qonunga ko'ra, ishqalanish bo'lmaganda yakkalangan jismlar sistemasining to'la energiyasi bu jismalarning harakati vaqtida o'zgarmay qoladi. Bunda energiya faqat potensial energiyadan kinetik energiyaga yoki aksincha o'tishi mumkin. Mexanikada jismning to'la energiyasi deb, uning potensial va kinetik energiyalari yig'indisini aytishini eslatib o'tamiz.

Harakatning boshlang'ich paytida birinchi yukning potensial energiyasi P_1 ga ikkinchisiniki P_2 ga teng bo'lsin. Biror vaqtdan keyin birinchi yukning balandligi h qadar ortgan, ikkinchisiniki h qadar kamaygan (10b-rasm).

Birinchi yukning potensial energiyasi $P_1 + m_1gh$ ikkinchisiniki $P_2 - m_2gh$ bo'lib qoladi. Bundan tashqari, yuklarning har biri α tezlanish bilan harakatlanib, shu vaqt ichida α tezlikka mos ravishda $\frac{m_1v^2}{2}$ bilan $\frac{m_2v^2}{2}$ ga teng kinetik energiyaga erishadi. Xuddi shuningdek, disk tekis tezlanuvchan harakat qilib, ω burchakli tezlik va unga tegishli $\frac{I\omega^2}{2}$ kinetik energiyaga erishadi.

Diskning kinetik energiyasi ifodasini o'zgartirib yozamiz:

$$I = \frac{mr^2}{2} \quad \text{va} \quad \omega = \frac{v}{r} \quad \text{bo'lGANI UCHUN}$$

$$\frac{1}{2} I\omega^2 = \frac{1}{2} \frac{mr^2}{2} \cdot \frac{v^2}{r^2} = \frac{mr^2}{4}.$$

Energiyaning saqlanish qonuniga asosan:

$$\Pi_1 + \Pi_2 = \Pi_1 + m_1gh + \Pi_2 - m_2gh + \frac{m_1v^2}{2} + \frac{m_2v^2}{2} + \frac{mv^2}{2}. \quad (6)$$

Yuklarning potensial energiyasiga tegishli hadlar ni (6) ning o'ng qismidan chap qismiga ko'chiramiz. Ma'lum o'zgartirishlardan so'ng quyidagi hovil bo'ladи:

$$(m_2 - m_1)gh = (m_2 - m_1 + \frac{m}{2})\frac{v^2}{2}.$$

Yuklar tekis tezlanuvchan harakat qilgани учун $v^2=2ah$.

Darajak.

$$(m_2 - m_1)g = (m_2 + m_1 + \frac{m}{2})a,$$

Bundaн

$$a = \frac{m_2 - m_1}{m_2 + m_1 + \frac{m}{2}} \cdot g,$$

ya'ni (5) ifodaga mos bo'lgan natija kelib chiqadi.

4-masala. Radiusi 12 m va massasi 1,2 t bo'lgan tinch holatdagi aylanma sahna ustida massalari 60 va 70 kg dan bo'lgan artistlar turibdi. Agar artistlar sahna aylanish o'qi atrofida 6 m radiusli aylana bo'ylab halinaga nisbatan 5 km/soat tezlik bilan harakat qilsalar, sahna minutiga necha marta aylana boshlaydi? Sahna bir jinsli doiraviy disk, artistlar esa moddly nuqtalar deb hisoblansin. Ishqalanish kuchlari e'tiborga olinmasin.

Herilgan: $r = 12 \text{ m}$; $M = 1,2 \text{ T} = 1200 \text{ kg}$; $m = (60+70) \text{ kg} = 130 \text{ kg}$; $R = 6 \text{ m}$,

$$v = 5 \text{ km/soat} = 1,39 \text{ m/s}.$$

Topish kerak: $V = ?$

Fikrish: Sahna va artistlar tinch holatda bo'lganda, ularning impuls momentlari nolga teng. Artistlar yura boshlagach, saxna ham harakatga kelib, ularning umumiy impuls momentlari

$$I_1\omega_1 = I_2\omega_2$$

Bo'lib, impuls momentining saqlanish qonuniga asosan:

$$I_1\omega_1 + I_2\omega_2 = 0,$$

Bunda $I_1 = mr^2$ – artistlarning inersiya momentlari, ω_1 – ularning burchak tezligi, $I_2 = \frac{1}{2}mR^2 + mr^2$ – sahnaning artistlar bilan birlgilikda inersiya momenti, R – sahna radiusi, r – artistlar traektoriyasining radiusi, ω_2 –

sahnanning burchak tezligi, $m=m_1 + m_2 = 130$ kg – artistlarning umumiyligi massasi. Bularning impuls momentining saqlanish qonuniga qo'yib, sahna minutiga necha marta aylanishini hisoblaymiz.

$$mr^2 \cdot \frac{v}{r} + \left(\frac{1}{2} MR^2 + mr^2 \right) \omega_2 = 0$$

b undan

$$\omega_2 = -\frac{mr^2 \frac{v}{r}}{\frac{1}{2} MR^2 + mr^2} = -\frac{2mvr}{MR^2 + 2mr^2}$$

Lekin $\omega_2 = 2\pi\nu$ bo'lgani uchun sahnanning aylanish chastotasi:

$$\nu = \frac{\omega_2}{2\pi} = -\frac{2mvr}{2\pi(MR^2 + 2mr^2)} = -\frac{130 \text{ kg} \cdot 1,39 \frac{\text{m}}{\text{s}} \cdot 6 \text{ m}}{3,14(1200 \text{ kg} \cdot 12^2 \text{ m}^2 + 2 \cdot 130 \text{ kg} \cdot 36 \text{ m}^2)} = \\ = -\frac{1084,2}{547952} = -0,002 \text{ s}^{-1} = -0,12 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}$$

Javob: $v=0,12$ ayl/min

QATTIQ JISM AYLANMA XARAKATINING DINAMIKASIGA DOIR MASALALAR

61. Sharning sirtiga o'tkazilgan urinma bilan tushuvchi o'qqa nisbatan inersiya momentini aniqlang. Sharning massasi 5 kg, radiusi esa 0,1 m.
62. Uzunligi 0,5 m, massasi esa 0,2 kg bo'lgan ingichka to'g'ri sterjenning unga perpendikulyar bo'lib, uchlarining biridan 0,15 m masofada bo'lgan nuqtadan o'tgan o'qqa nisbatan inersiya momentini aniqlang.
63. Erning radiusi 6,4 Mm va massasi $6 \cdot 10^{-4}$ kg bo'lgan shar deb hisoblab, uning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentini aniqlang.
64. Uchiga $m=0,50$ kg massali yuk osilgan ip radiusi $R = 10$ sm bo'lgan barabanga o'rab qo'yilgan. Yuk $a=1,0$ m/s² tezlanish bilan tushayotgan bo'lsa, barabanning inersiya momentini toping.
65. Massasi $m=100$ g bo'lgan blokdan o'tkazilgan ingichka egiluvchan, cho'zilmaydigan ip uchlariga massasalari $m_1=200$ g va $m_2=300$ g bo'lgan 2 ta yuk osilgan. Yuklar qo'zg'almas holatda tutib turiladi. Yuklar o'z holiga qo'yilsa, ular qanday tezlanish bilan harakat qiladi? Blokning radiusi 10 sm bo'lsa, u qanday burchak tezlanishiga ega bo'ladi? Ishqalanishni hisobga olmang.
66. Massasi 2 kg bo'lgan, gorizontal sirt buylab 2 m/s nisbiy tezlik bilan sirpanishsiz dumalab ketayotgan diskning kinetik energiyasini hisoblab toping.
67. Massasi 100 kg va radiusi 0,4 m bo'lgan disk shaklidagi tinch turgan maxovikni $n = 10$ ayl/s chastota bilan aylantirish uchun qancha ish bajarish kerak.
68. Massasi $m_1=280$ kg va radiusi $R=1,0$ m bo'lgan disk shaklidagi plat forma chetida massasi $m_2=60$ kg bo'lgan odam turibdi. Plat forma $t=30$ s vaqt

ichida $n=1,2$ ayl/s chastotaga mos tezlikka erishgan bo'lsa, platformani harakatga keltiruvchi dvigatelning foydali qvvatini toping.

69. Massasi $m=10$ kg, radiusi esa $R=10$ sm bo'lgan diskdan iborat maxovik markazidan o'tgan o'q atrofida 6 s^{-1} doiraviy chastota bilan erkin aylanmoqda. Tormozlanganda maxovik $t=5$ s dan keyin to'xtagan bo'lsa, tormozlovchi moment ni aniqlang.

70. Qud uqdan massasi $m=10$ kg bo'lgan suvli chelak chig'ir yordamida tortib ulmamoqda. Chelak suv yuzidan $h=5,0$ m balandlikda bo'lgan paytda chig'ir dastasi chiqib ketib, chelak pastga tomon tusha boshladidi. Chelak suv sirtiga uniga paytda chig'ir dastasi qanday chiziqli tezlikka ega bo'lgan? Dastaning radiusi $R=30$ sm, chig'ir o'qining radiusini $r=10$ sm, massasini esa, $m_1=20$ kg deb oling. Ishqalanishni va chelak osilgan arqon massasini hisobga olmang.

71. Massasi $m_1=1,0$ kg bo'lgan maxovik radiusi $r=5,0$ sm, massasi esa $m_2=200$ g bo'lgan shkivga o'rnatilgan bo'lib, shkiv unga o'ralgan ipning uniga osilgan $m_3=500$ g massali yuk yordamida harakatga keltiriladi. Qancha vaqtidan keyin maxovik $n=5,0$ ayl/s tezlikka erishadi? Maxovikning barcha massasi uning aylanish o'qidan $R=40$ sm masofada joylashgan gardishi bo'ylab taqsimlangan deb hisoblang.

72. Qiya tekislikka parallel yo'nalishda $7,0$ m/s boshlang'ich tezlikka ega bo'lgan disk sirpanishsiz yuqori tomonga dumalaganda qiyaligi 30° bo'lgan qiya tekislik b'o'y lab qancha yo'lni bosit o'tadi?


73. Qiyalik burchagi 30° bo'lgan qiya tekislik b'o'y lab shar dumalab tushmoqda. Agar boshlang'ich tezligi nolga teng bo'lsa, sharning markazi $1,5$ s dan keyin qiya tekislikka nisbatan qanday tezlikka ega bo'ladi?

74. Radiusi $R=1,0$ m, massasi $m=1000$ kg bo'lgan disk shaklidagi uroskopning burchak tezligi $t=1$ min vaqt ichida $\omega=31$ rad/s ga etgan bo'lsa, uroskopni harakatga keltiradigan motorning quvvati qancha bo'lishi kerak? Ishqalanish va havoning qarshiligi hisobga olmang.

75. $n=20$ ayl/s tezlik bilan aylanayotgan $m=50$ kg massali va radiusi $R=0,30$ m bo'lgan maxovikni $t=20$ s vaqt ichida to'xtatish uchun unga qanday tormozlovchi moment qo'yish lozim? Maxovikning massasi uning gardishi bo'ylab taqsimlangan, deb hisoblang. Tormozlovchi moment qancha ishbarad?

76. $n=10$ ayl/s tezlik bilan aylanayotgan $m_1=5$ kg massali va $R=5$ m radiusli disk xuddi shunday radiusli massasi $m_2=10$ kg bo'lgan harakatlanmayotgan diskka tekkizib qo'yilgan. Disklar tekkizilganda sirpanish bo'lmagan bo'lsa, disklar ni qizdirish uchun sarf bo'lgan energiyani hisoblab toping.

77. Ishqalanish borligida chambarak qiya tekislikidan dumalab tushadi, ishqalanish yo'qolganda esa sirpanib tushadi. Qiya tekislikning oxiriga etib borganda chambarakning olgan tezligi qaysi holda va necha marta katta bo'ladi?




11-rasm

otgan s yo'lini toping.

78. Qiyalik burchagi $\alpha=30^\circ$ bo'lgan qiya tekislik b'o'y lab sirpanishsiz dumalab tushayotgan sharcha horizontal tekislikka uriladi va $h=12,5$ sm balandlikka sakrab ketadi (11-rasm). Ishqalanishni hisobga olmasdan, urilishni absolyut elastik deb hisoblab, sharchaning qiya tekislik b'o'y lab

79. R radiusli disk vertikal o'q atrofida ℓ uzunlikda qidiriladi. Dolumi F kuch bilan tortib turilgan ip yordamida aylanadirib yuborildi. (12-rasm). Shundan so'ng disk o'qdan chiqib, gorizontal tekislikka tushadi. Agar diskning massasi M, uning tekislikka ishqaganish koefitsienti μ bo'ssa, disk to'la to'xtaguncha tekislik ustida necha marta aylanadi?

80. Alyuminiy va misdan tayyorlangan bir xil o'lchamli ikkita shar bir-biriga bog'liq bo'limgan holda markazlari orqali o'tgan umumiyo qo'zg'almas o'q atrofida $\omega_1=5,0 \text{ rad/s}$ va $\omega_2=10 \text{ rad/s}$ burchak tezliklari bilan aylanmoqdalar. Sharlar bir-bir bilan biriktirib qo'yilsa, ular qanday burchak tezlik bilan aylanar edi?



12-rasm

2. SAQLANISH QONUNLARI

a) IMPULSNING SAQLANISH QONUNI

Saqlanish qonunlari tabiatning fundamental qonunlari bo'lib, faqat berk sistemalar, ya'ni tashqi kuchlar ta'sir etmaydigan yoki ularning yig'indisi nolga teng bo'lgan sistemalar uchun o'rinni bo'ladi. Mexanikada uchta saqlanish qonunlari mayjud bo'lib ular: impuls, impuls momenti va mexanik energiyaning saqlanish qonunlaridan iboratdir. Saqlanish qonunlarining bebaholigi shundaki ular sistemada sodir bo'ladi gan oraliq hodisalarini chetlab o'tib, sistemalarning dastlabki va oxirgi holatlarini o'zaro bog'laydi. Bu bo'limga saqlanish qonunlariga oid masalalar echiladi. Quyida ularga tegishli asosiy tushuncha va ifodalar berilgan. Moddiy nuqta yoki jism harakatini miqdorli xarakterlash uchun impuls degan tushunchadan foydalaniлади. U vektor kattalik bo'lib, quyidagiicha ifodalanaadi:

$$\vec{P} = m \vec{v},$$

bunda m va \vec{v} lar mos ravishda moddiy nuqtaning massasi va tezligidir.

Moddiy nuqtalar sistemasining impulsini sistema tarkibiga kirgan barcha moddiy nuqtalar (jismilar) impulsalarining vektor yig'indisiga teng:

$$\vec{P} = \sum_{i=1}^n \vec{P}_i = \sum_{i=1}^n m_i \vec{v}_i. \quad (2)$$

Moddiy nuqtalar sistemasining impulsini sistema inersiya markazining impulsini orqali ifodalash ham mumkin:

$$\vec{P} = m \vec{v}_c, \quad (3)$$

bunda m – sistemaning umumiyo massasi.

$$\vec{v}_c = \frac{d\vec{r}_c}{dt}. \quad (4)$$

(4) – sistema inersiya markazining tezligi. Bunda

$$\bar{r}_c = \frac{\sum m_i \bar{r}_i}{\sum m_i} = \frac{\sum m_i \bar{r}_i}{m} \quad (5)$$


Sistema inersiya markazining vaziyatini belgilovchi radius vektor.

O'zaro ta'sirlashuvchi jismlar berk sistemasining impulsi vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi ya'ni saqlanadi:

$$\bar{P} = \sum m_i \bar{J}_i = \text{const} . \quad (6)$$

IMPULSNING SAQLANISH QONUNLARIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Taxta pol ustida turgan engil g'ildirakli uzun taxta aravachaning bir uchida odam turibdi. Odamning massasi 60 kg, aravachaniki esa 20 kg (13-rasm). Aravacha bo'ylab unga nisbatan 1 m/s tezlik bilan odam yura boshlasa, aravacha polga nisbatan qanday tezlik bilan harakatlana boshlaydi? G'ildiraklar massasi va ishqalanish kuchlari hisobga olinmasin.



13-rasm.

Berilgan: $M=60 \text{ kg}$; $m=20 \text{ kg}$; $U'=1 \text{ m/s}$.

Topish kerak: $J=?$

Echish: «Aravacha-odam» berk sistemani tashkil qiladi. Erga nisbatan har ikki jism harakatsiz, ya'ni ularning impulslari nolga teng. Odam harakatga kelsa aravacha ham qarama-qarshi tomoniga harakatlana boshlaydi. ularning harakatini erga nisbatan kuzatib sistema uchun impuls saqlanish qonunini yozamiz.

$M\bar{U}' + m\bar{J}$ - odamning, $m\bar{J}$ - aravachanining impulslari.

$$M\bar{U}' + m\bar{J} = 0$$

yoki

$$M(\bar{J} - \bar{U}') + m\bar{J} = 0 . \quad (1)$$

Galiley prinsipiiga ko'r'a odamning Erga nisbatan tezligi (1) dan:

$$\bar{U} = \bar{J} + \bar{U}' ,$$

b unda \vec{g} – aravacha tezligi. (1) dan:

$$\vec{g} = \frac{M}{M+m} \vec{U}' = \frac{60}{80} \cdot 1 = 0,75 \text{ m/s}.$$


Demak, aravacha $\vec{g} = 0,75 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakatga keladi.

2-masala. $v_0 = 2 \text{ m/s}$ tezlikda inersiyasi bilan harakatlanayotgan temir yo'l ochiq vag oniga mahkamlangan to'pdan harakat yo'nali shida snaryad ot ilganda vag onning tezligi 2 marta kamaygan bo'lsa, snaryad to'pga nisbatan qanday v_s tezlikda ot ilgan? Snaryad ning massasi 50 kg, vag onning to'p bilan birga massasi 50 T (14-rasm).

Berilgan: $M=50 \text{ T} = 5 \cdot 10^4 \text{ kg}$, $m=50 \text{ kg}$,

$$v_0 = 2 \text{ m/s}, \quad v'_0 = v_0/2.$$

Topish kerak: $v_s = ?$



14-rasm.

Echish: Vagon, to'p va snaryadlar berk sistemani tashkil qiladi. Shuning uchun sistemaning impulsi saqlanadi. Ya'ni sistemaning snaryad ot ilgung a qadar impulsi ($M+m$) v_0 , snaryad ot ilganda keyingi impulsiga teng bo'lishi kerak:

$$(M+m)\vec{g}_0 = M\vec{g}'_0 + m\vec{g}, \quad (1)$$

bu erda v -snaryadning erga nisbatan tezligi bo'lib, v_c bilan tezliklarni qo'shishtining Galiley principi bo'yicha bog'langan.

$$\vec{g} = \vec{g}'_0 + \vec{g}_c \quad \text{yoki} \quad \vec{g} = \frac{\vec{g}_0}{2} + \vec{g}_c. \quad (2)$$

(2) ni (1) ga qo'yamiz.


$$(M+m)\vec{g}_0 = M \frac{\vec{g}_0}{2} + \frac{m\vec{g}_0}{2} + m\vec{g}_c,$$

b undan

$$\vec{g}_c = \frac{M+m}{2m} \vec{g}_0 = \frac{5 \cdot 10^4 + 50}{2 \cdot 50} \cdot 2 \approx 10^3 \frac{\text{m}}{\text{s}},$$

Javobi: $v_s = 10 \text{ m/s}$.

3-masala. Massalari $m_1 = 3 \text{ kg}$ va $m_2 = 2 \text{ kg}$ bo'lgan sharlar bir-biriga qarab $v_1 = 4 \text{ m/s}$ va $v_2 = 2 \text{ m/s}$ tezliklar bilan harakatlanmoqdalar (15-rasm). Markaziy va elastik to'q nashgandan so'ng sharlar ning tezliklari qanday bo'ladi?



15-rasm

Merilgan: $m_1 = 3 \text{ kg}$; $m_2 = 2 \text{ kg}$;
 $v_1 = 4 \text{ m/s}$; $v_2 = 2 \text{ m/s}$.

Topish kerak: $U_1 = ?$, $U_2 = ?$

Chish: Elastik to'q nashayotgan ikkita shardan iborat berk sistema uchun impulsi va kinetik energiyaning saqlanish qonunlari o'rini bo'ladi:

$$m_1\vartheta_1 + m_2\vartheta_2 = m_1U_1 + m_2U_2 , \quad (1)$$

$$\frac{m_1\vartheta_1}{2} + \frac{m_2\vartheta_2}{2} = \frac{m_1U_1}{2} + \frac{m_2U_2}{2} . \quad (2)$$

(1) dan

$$m_1(\vartheta_1 - U_1) = m_2(U_2 - \vartheta_2) . \quad (3)$$

(2) dan

$$m_1(\vartheta_1^2 - U_1^2) = m_2(U_2^2 - \vartheta_2^2) . \quad (4)$$

(4) ni (3) ga nisbatini olamiz:

$$\vartheta_1 + U_1 = U_2 + \vartheta_2 . \quad (5)$$

(5) dan

$$U_1 = U_2 + \vartheta_2 - \vartheta_1 . \quad (6)$$

(6) ni (1) ga qo'yamiz

$$U_2 = \frac{(m_2 - m_1) \cdot \vartheta_2 + 2m_1\vartheta_1}{m_1 + m_2} . \quad (7)$$

(5) dan U_2 ni topib (1) ga qo'yysak

$$U_1 = \frac{(m_1 - m_2) \cdot \vartheta_1 + 2m_2\vartheta_2}{m_1 + m_2} . \quad (8)$$

ning yo'nalishini musbat deb, hisoblash ishlarini bajaramiz:

$$U_1 = \frac{(3-2) \cdot 4 + 2 \cdot 2(-2)}{3+2} = \frac{4-8}{5} = -\frac{4}{5} = -0,8 \frac{\text{m}}{\text{s}},$$

$$U_2 = \frac{(2-3)(-2) + 2 \cdot 3 \cdot 4}{3+2} = \frac{26}{5} = 5,2 \frac{\text{m}}{\text{s}}.$$


Demak, to'q nashganda an so'ng sharlar qarama-qarshi tomonlarga harakat qiladilar.

Javobi: $U_1 = -0,8 \text{ m/s}$; $U_2 = 5,2 \text{ m/s}$.

4 -masala. 300 kg massali sandonda yotgan yumshoq temir parchasiga 8 kg massali to'qmox urilgan. Urilish noelastik bo'ssa, uning F.I.K. aniqlansin. Temir parchasini deformatsiyalash uchun sarf bo'lgan energiya foydali deb hisoblansin (16-rasm).

Berilgan: $m_1 = 300 \text{ kg}$; $m_2 = 8 \text{ kg}$.

Topish kerak: $\eta = ?$



16 -rasm

Echish: To'qmoxning kinetik energiyasi hisobiga temir parchasi deformatsiyalanadi:

$$T_2 = \frac{m_2 g^2}{2} \quad (1)$$

g_2 – to'qmoxning urilish paytidagi tezligi.

To'qmox energiyasining bir qismi zaminga beriladi:

$$T_1 = \frac{m_1 U^2}{2}, \quad (2)$$

bundagi U – to'qmox, sandon va temir parchasining urilishdan keyingi tezligi bo'lib, impulsning saqlanish qonunidan topiladi:

$$m_1 \vartheta_1 = m_2 \vartheta_2 = (m_1 + m_2) U,$$

bu erda $\vartheta_1 = 0$ urilishga temir parchasining tezligi. U holda:

$$U = \frac{m_2 \vartheta_2}{m_1 + m_2}. \quad (3)$$

(3) ni (2) ga qo'yib zaminga uzatilgan energiyani topamiz:

$$T_1 = \frac{m_1}{2} \left(\frac{m_2 \vartheta_2}{m_1 + m_2} \right)^2 = \frac{m_1 m_2}{2(m_1 + m_2)} \cdot \vartheta_2^2. \quad (4)$$

U holda temirni deformatsiyalash uchun sarf bo'lgan foydali energiya:

$$T = T_2 - T_1 \quad (5)$$

Foydali ish koeffitsientini (2), (4), (5) lardan foydalanib aniqlaymiz:


$$\eta = \frac{T}{T_2} = \frac{T_2 - T_1}{T_2} = 1 - \frac{T_1}{T_2} = 1 - \frac{m_1 m_2}{(m_1 + m_2)^2} = 1 - \frac{300 \cdot 8}{308^2} = 0,9747 \cdot 100\% \\ \eta = 97,47\%$$

Javobi: $\eta = 97,47\%$.

5-Masala. 280 kg massali disk shaklidagi platforma inersiya bo'yicha minutiga 30 martadan aylanmoqda (17-rasm). Plat forma markazida turgan 70 kg massali odam plat forma chekkasiga o'tib olsa, plat formaning aylanish chastotasi qanday bo'ladii?

Nerilgan: $m_1 = 280 \text{ kg}$; $n_1 = 30 \text{ min}^{-1} = 1200 \text{ s}^{-1}$; $m_2 = 70 \text{ kg}$

Topish kerak: $n_2 = ?$



Jehish: Plat forma va odam berk sistemani tashkil 17-rasm qilladi. Shuning uchun inersiya momentining saqlanish qonunidan foydalanamiz:

$$(I_1 + I_2)\omega_1 = (I_1 + I'_2)\omega_2, \quad (1)$$

Bunda I_1 va I_2 mos ravishda platforma va odamning markazdagi inersiya momentlari. I'_2 odamning platforma chekkasida turgangagi inersiya momenti. ω_1 va ω_2 mos ravishda, plat formaning odam plat forma markazi va chekkasida turgangagi aylanish chastotalaridir. I_1 -plat forma disk shaklidagi deb inersiya momentini hisoblaymiz:

$$I_1 = \frac{1}{2} m_2 R^2. \quad (2)$$

I_1, I'_2 -odamni moddiy nuqtadagi deb olinganligi inersiya momentlari:

$$I_2 = 0, \quad I'_2 = m_2 R^2. \quad (3)$$

ω_1 va ω_2 - mos ravishda plat formaning odam plat forma markazida va chekkasida turgangagi chastotalaridir:

$$\omega_1 = 2\pi n_1 \quad \text{va} \quad \omega_2 = 2\pi n_2. \quad (4)$$

(2),(3),(4) larni (1)ga qo'yamiz:

$$n_2 = \frac{I_1 n_1}{I_2 + I'_2} = \frac{\frac{m_2 R^2}{2} n_1}{\frac{m_1 R^2}{2} + m_2 R^2} = \frac{\frac{m_2 n_1}{2}}{\frac{m_1 n_1}{2} + m_2} = \frac{280 \cdot 0,5}{280 + 2 \cdot 70} = \frac{140}{420} = \frac{1}{3} \approx 0,33 \text{ soat} = 1200 \text{ s}^{-1}.$$

Javobi: Plat formaning aylanish chasti $n_2 = 1200 \text{ s}^{-1}$.

IMPULSNING SAQLANISH QONUNLARIGA DOIR MASALALAR

81. Ko'ldagi qayiqning bir uchida turib baliq tutayotgan baliqchi qayiqning ikkinchi uchiga o'tganda qayiq qirg'oqqa nisbatan $0,5 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakatlangan bo'lsa, baliqchi qayiqqa nisbatan qanday tezlik bilan harakatlangan? Qayiqning massasi 120 kg , baliqchiniki esa 50 kg . Ishqalanish kuchlari hisobga olinmasin.

82. Traektoriyasining eng yuqori nuqtasidan o'tayotganda 200 m/s tezlikka ega bo'lgan 10 kg massali snaryad portlab ikki qismiga bo'lingan. Snaryadning 3 kg massali kichik bo'lagi dastlabki yo'nalishda 400 m/s tezlik bilan harakatlana boshlagan bo'lsa, katta bo'lagingin portlashdan keyingi tezligi qanday bo'lgan?

83. Temir yo'lli plat formasiga o'rnatilgan zambarakdan yo'lli bolylab gorizontalga nisbatan 60° burchak ostida 20 kg massali snaryad otilgan. Agar snaryad 600 m/s tezlik bilan otilgan bo'lsa, tepki hisobiga plat forma qanday tezlik bilan orqasiga harakatlanadi? Zambarak va paltformaning umumi massasi 15T .

84. 500 kg massali qoziq qoqadigan to'qmoq ma'lum balandlikdan 100 kg massali qoziq ustiga tushmoqda. Urilishni noelastik deb qoziq qoqish qurilmasing FIK aniqlansin.

85. 75 g massali miq 1 kg massali bolg'a bilan devorga qoqilgan. Bolg'a zARBining FIK topilsin.

86. 800g massali tinch turgan sharga 10 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan 200g massali shar urilgan. Urilishdan so'ng sharlarning tezligi qanday bo'ladi? Urilish markaziy va absolyut elastik deb hisoblansin.

87. Bikirligi 160 N/m bo'lgan prujinali pistoletdan 16 g massali o'q otilgan. Agar prujina 4 sm siqilgan bo'lsa, o'q qanday tezlik bilan uchib chiqqan?


88. Massasi 10 kg uzunligi $1,5 \text{ m}$ bo'lgan sterjen yuqori uchidan o'tgan qo'zg'almas o'q atrofida aylana oladi.(18-rasm). Uning o'tasiga gorizontal yo'nalishda 500 m/s tezlik bilan uchib kelgan 10 g massali o'q urilib kirib qolgan bo'lsa, sterjen qanday burchakka og'adi?

89. 1 m radiusli disk shaklidagi plat forma

6 min^{-1} chasti bilan inersiyasi hisobiga aylanmoqda. Plat formaning chekkasida 80 kg massali odam turibdi. Agar odam plat formaning markaziga o'tsa, platforma qanday chasti bilan aylanadi? Plat formaning inersiya momenti $120 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$. Inersiya momentini hisoblashda odamni moddiy nuqta deb hisoblansin.

90. 80 kg massali, 1 m radiusli gorizontal plat forma 20 ayl/min chasti bilan aylanmoqda. Uning markazida qulochini yoyib tosh ko'targan odam turibdi. Agar qo'lini tushirish evaziga odamning inersiya momenti $I_1=2,94$ dan $I_2=0,98 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$, gacha kamaygan bo'lsa, plat forma qanday chasti bilan aylanabosholaydi? Plat forma bir jinsli disk deb olinsin.

91. Sokin suvda turgan, uzunligi $L=3 \text{ m}$ va massasi $M=150 \text{ kg}$ bo'lgan qayiqning quyrug'idan $m=75 \text{ kg}$ massali odam uchiga o'tsa, qayiq qancha masofaga siljiydi? Suvning qarshiligi hisobga olmang.



92. Raketaning reaktiv dvigateli yonish mahsulotlarini ulushlar bilan otib chiqaradi. Agar yonish mahsuloti ulushining massasi $m=0,4$ kg, otilib chiqish tezligi $v=1$ km/s bo'lib, dvigatelda sekundiga $N=20$ marta ($V=20$ s $^{-1}$) portlash yuz bersa, $t=5$ s ning oxirida raket aqanday U_N tezlikka erishadi? Raketaning boshlang'ich massasi $M=300$ kg ga, boshlang'ich tezligi esa nolga teng. Havoning qarshiligi hisobga olmang.
93. Massasi $m=2$ T bo'lgan avtomobil to'g'ri chiziqli harakatlanib, tezligini $v_1=16$ km/soat dan $v_2=72$ km/soat gacha oshirgan bo'lsa, impulsning o'zgarishi ΔK ni toping.
94. Gorizontal yo'lda $v_1=1,2$ m/s o'zgarmas tezlik bilan harakatlanayotgan $m_1=800$ kg massali vag onet kaga yuqoridaan $m_2=400$ kg toshko'mir tashlansa, onet ka qanday v_2 tezlik bilan harakatlanadi?
95. $m_1=5$ kg massali miltiqdan $m_2=5 \cdot 10^{-3}$ kg massali o'q $v_2=600$ m/s tezlik bilan otilib chiqsa, miltiqning orqaga tepish tezligi v_1 ni toping.
96. $v=10$ m/s tezlik bilan uchib borayotgan granata portlab, $m_1=0,6$ kg va $m_2=0,4$ kg massali bo'laklarga parchalangan. Granataning katta parchasi dastlab ki yo'nalishda $v_1=25$ m/s tezlik bilan harakatlangan bo'lsa, kichik parchanining tezligi v_2 ni toping.
97. Mushakning massasi $m_1=600$ g, mushak ichidagi moddaning yonishidan hosil bo'lgan gazning massasi $m_2=15$ g. Shu gazlar mushakdan $v_2=800$ m/s tezlik bilan uchib chiqsa, mushak qanday v_1 tezlik bilan otiladi?
98. Massasi $m_1=20$ kg bo'lgan snaryad gorizontal yo'nalishda $v_1=500$ m/s tezlik bilan uchib borib, platformaga ortilgan qumga tiqildi. Platforma bilan qunning massasi $m_2=10$ T bo'lsa, snaryad zarbidan platforma qanday v_2 tezlik bilan harakatlanadi?
99. Muz ustida turgan konkichi $v_1=5$ m/s tezlik bilan $m_1=10$ kg massali o'shi gorizontga $\alpha=30^\circ$ burchak ostida uloqtiradi. Agar konkichining massasi $m_2=64$ kg bo'lsa, uning harakatdag'i boshlang'ich v_2 tezligi qanday bo'ladi?
100. Sokin suvdagi solda turgan odam solga nisbatan $v_1=5$ m/s tezlik bilan harakatlanadi. Odamning massasi $m_1=100$ kg, solning massasi esa $m_2=5000$ kg bo'lsa, sol suvda qanday v_2 tezlik bilan harakatlanadi?

b) ENERGIYA VA UNING SAQLANISH QONUNI

Jism harakatini miqdoran xarakterlashta imkon beradi gan kattaliklardan bir mehanik ishdirdi. O'zgarmas kuch ta'siri ostida jismning bajargan ishi

$$A = F \cdot S \cos \alpha,$$

unda α – kuch yo'nalishi bilan ko'chish orasidagi burchak, $\alpha=0$ bo'lsa:

$$A = F \cdot S.$$

Cheksiz kichik masofada bajarilgan elementar ish:

$$\Delta A = F \cdot \Delta S \cos \alpha.$$

To'la ish:

$$A = \sum_{i=1}^n F_i \Delta S_i \cdot \cos \alpha.$$

Differensial ko'rinishdag'i elementar ish:

$$dA = F dS \cos\alpha.$$

Buni integrallasaki to'la ish hosil bo'ladi:

$$A = \int_{S_1}^{S_2} F \cdot dS \cdot \cos\alpha.$$

Erning tortishish maydonida jismning ko'chirish uchun bajarilgan ish:

$$A = F \cdot M \cdot m \left(\frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2} \right) \text{ yoki } A = m(\vartheta_1 - \vartheta_2),$$

bu erda, M , m – mos ravishda Erning va jismning massasi, r_1 va r_2 jismning Er markaziga nisbatan boshlang'ich va oxirgi vaziyatlari orasidagi masofalar, φ_1 va φ_2 – shu vaziyatlardagi potensiallari.

O'rtacha quruvvat:

$$\bar{N} = \frac{\Delta A}{\Delta t}.$$

Oniy quruvvat:

$$N = \frac{dA}{dt}.$$

Vaqt oralig'idan bajarilgan ish o'zgarmasa:

$$N = \frac{A}{t}, \quad N = F \cdot v \cdot \cos\alpha.$$

Ilgarilanma harakat qilayotgan moddiy nuqta (yoki jism) ning kinetik energiyasi:

$$W_K = \frac{mv^2}{2} = \frac{P^2}{2m}.$$

Jism kinetik energiyasining o'zgarishi:

$$A = W_{K_2} - W_{K_1} = \frac{mv_2^2}{2} - \frac{mv_1^2}{2}.$$

Moddiy nuqtalar sistemasining kinetik energiyasi:

$$W_K = \sum_{i=1}^n \frac{m_i v_i^2}{2}.$$

Er sirtidan h balandlikdag'i jismning potensial energiyasi:

$$W_n = mg h.$$

Elastiklik kuchlarining (prujinaning qisilish yoki cho'zilishdag'i) potensial energiyasi

$$W_n = \frac{KX^2}{2},$$

Bundan K - prujinaning elastiklik koeffitsienti, X - siljish, m_1 va m_2 massali ikkita moddiy nuqtalarining o'zarota'sir gravitatsion potensial energiyasi:

$$\Pi = W_n = -G \frac{m_1 m_2}{r},$$

Bu erda $G=6,67 \cdot 10^{-11} \text{Nm}^2/\text{kg}^2$ - gravitatsion doimiy. r - moddiy nuqtalar asladi masofa, Π - potensial energiya.

Tortishish maydonining berilgan nuqtasi da potenciali:

$$\varphi = \frac{\Pi}{m} = -G \frac{M}{r},$$

Bu erda r - Er markazidan m -massali moddiy nuqtagacha bo'lgan masofa, M - uning tortishish maydonida joylashtigan istagan jismning potencial energiyasi:

$$\Pi = -G \frac{m \cdot M}{R+h},$$

Bu erda M va R - Erning massasi va radiusi, h - Er sirtidan jismgacha bo'lgan masofa. Moddiy nuqtalar berk sistemasi uchun mexanik energiyaning saqlanish qonuni:

$$W=W_k+W_n=\text{const},$$

Bu erda W - to'liq energiya, W_k - kinetik, W_n - potensial energiya.

Sistema energiyasining o'zgarishiunga qo'yilgan tashqi kuchlar bajargan ishgateng:

$$W_2-W_1=A,$$

Yani mexanik sistema energiyasining o'zgarishi hisobiga bajariladi.

Qo'zg'almas o'q atrofida aylana oladigan qattiq jismlarning aylanma harakatini miqdoran ifodalash uchun inersiya momentining impulsi (impuls momenti) degantushunchadan foydalaniladi:

$$L=I\omega,$$

Bundan ω - jismning siklik chastotasi. I - inersiya momenti, ya'ni jismning aylanma harakatga nisbatan inertlik o'lchovi. Berk sistemalarning inersiya momentlarining impulsi (impuls momenti) vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi, ya'ni saqlanadi:

$$L = \sum L_i = \sum I\omega_i = \text{const.}$$

Bunda L va ω mos ravishda sistema tarkibidagi i-nchi jismning inersiya momenti va siklik chastotasi.

ENERGIYA VA UNING SAQLANISH QONUNIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Ko'tarma kran tinch turgan yukni 2 m/s^2 tezlanish bilan ko'tarish jarayonida birinchi 5 sekund davomida $2,95 \cdot 10^4 \text{ J}$ ish bajargan. Yukning massasini aniqlang?

Berilgan: $a=2 \text{ m/s}^2$; $t=5 \text{ s}$; $A=29500 \text{ J}$; $V_0=0$.

Topish kerak: $m = ?$

Echish: 1. Ko'taruvchi kuch va ko'chish yo'nalishi mos bo'lgan ushbu holda bajarilgan ish

$$A=F S$$

ga teng.

2. Ikkinci t omondan yukka harakat yo'nalishiga teskar i yo'nalgan og 'irlik kuchi (mg) ham ta'sir qiladi.

Shuning uchun α tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilayotgan yukning harakat tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$F - mg = m \cdot \alpha .$$

Bundan

$$F = m \cdot (g + \alpha)$$

ifodaga kelamiz.

3. Boshlang'ich tezligi bo'lmasagan ($V_0=0$) yuk α tezlanish bilan harakatlanib t vaqt davomida

$$S = \frac{\alpha t^2}{2}$$

masofaga ko'chadi.

4. F va S larning qiymatlarini o'rniغا qo'yib, bajarilgan ish uchun:

$$A = F \cdot S = m \cdot (g + \alpha) \cdot \frac{\alpha t^2}{2}$$

ifodani hosil qilamiz. Bundan esa yukning massasini topamiz.

$$m = \frac{2A}{(g + \alpha)\alpha t^2} .$$

5. Hisoblaymiz:

$$m = \frac{2 \cdot 29500}{(9,8 \frac{m}{s^2} + 2 \frac{m}{s}) \cdot 2 \frac{m}{s^2} \cdot 25 s^2} = 100 kg .$$

Javobi: $m=100$ kg.

2-masala. Oq'irligi 0,08 N bo'lgan o'q miliqdandan gorizontal yo'nalishda uchib chiqdi. Nishon 400 m uzoqlikda joylashgan bo'lib, o'q nishonga etib kelguncha 2 m pasaydi. O'qning miliqdandan uchib chiqish vaqtidagi kinetik eneriyasining toping.

Berilgan: $P=0,08$ N, $S=400$ m, $h=2$ m.

Topish kerak: $W_K = ?$

Echish: 1. O'qning kinetik energiyasi

$$W_K = \frac{mv^2}{2}$$

formula yordamida aniqlanadi.

2. O'q uchish jarayonida ikki harakatda qatnashyapti. Birinchi harakat (erkin tushish harakati) tufayii o'q h masofa pastga tushib qoldi. Iki harakat uchun

$$h = \frac{gt^2}{2}$$

ifoda o'rini. Bunda o'q nishonga etib kelishi lozim bo'ladijan vaqtini topamiz:

$$t^2 = \frac{2h}{g} \quad \text{va} \quad t = \sqrt{\frac{2h}{g}}.$$

Harakatning ikkinchisi (gorizontal yo'naliishi dagi harakat) tufayli o'q t vaqt qidam o'mida S masofani bosib o'tdi. Shuning uchun o'q tezligi

$$v = \frac{S}{t} = \frac{S}{\sqrt{\frac{2h}{g}}} = \sqrt{\frac{g}{2h}} \cdot S$$

ifoda bilan aniqlanishi lozim.

3. Kinetik energiya formulasiga tezlik qiymatini qo'yib

$$W_K = \frac{mv^2}{2} = \frac{m}{2} \left(S \sqrt{\frac{g}{2h}} \right)^2 = \frac{mgS^2}{4h} = \frac{PS^2}{4h}$$

ifodani hosil qilamiz.

4. Hisoblaymiz:

$$W_K = \frac{0,08H \cdot (400M)^2}{4 \cdot 2M} = 1600 \text{ J}.$$

Javobi: Miltiqdan chiqish paytida o'qning kinetik energiyasi 1600 J bo'lgan.

3-masala. Yo'lning gorizontal qismida 10 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan tramvayga favqulodda hodisa tufayli keskin tormoz berildi. U to'xtaguncha qancha masofaga sirpanib boradi? Ishqalanish koefitsienti 0,2 deb olinsin.

Borilgan: $v=10 \text{ m/s}$; $\mu=0,2$; $g=9,8 \text{ m/c}^2$.

Topish kerak: $S=?$

Eshish: 1. Tramvay kinetik energiyasining S masofadagi o'zgarishi ishqalanish kuchining shu S yo'lda bajargan ishiga teng:

$$\Delta W_K = F_{ishq} S.$$

2. Mazkur holda:

$$\Delta W_K = \frac{mv^2}{2}.$$

Chunki oxirgi vaziyatda tramvayning tezligi (demak, kinetik energiyasi ham) nolga teng.

3. ΔW_K ning bu qiymatini va ishqalanish kuchi

ekanligini hisobga olib,

$$F_{ishq} = \mu mg$$

$$\frac{mv^2}{2} = \mu \cdot m \cdot g \cdot S$$

tenglamani tuzamiz. Bundan

$$S = \frac{v^2}{2 \cdot \mu \cdot g}$$

tenglamani hosil qilamiz.

4. Hisoblaymiz:

$$S = \frac{\left(10 \frac{m}{s}\right)^2}{2 \cdot 0,2 \cdot 9,8 \frac{m}{s^2}} = 25,5 m.$$

Javobi: Tramvay 25,5 m metr masofaga sirpanib boradi.

4-masala. 10 m balandlikdan koptokni vertikal ravishda pastga 14 m/s tezlik bilan otildi. Erga urilib qaytgach, koptok qancha balandlikka ko'tariladi?

Berilgan: $h_1 = 10 \text{ m}$; $v_1 = 14 \text{ m/s}$; $g = 9,8 \text{ m/s}^2$.

Topish kerak: $h_2 = ?$

Echilishi: 1. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan h_1 balandlikdagi to'liq mehanik enargiya (W_1) va h_2 balandlikdagi to'liq mehanik energiya $W_1 = W_2$.

2. h_1 va h_2 balandlikdagi to'liq mehanik energiyaning qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$W_1 = W_{h_1} + W_{k_1} = mgh_1 + \frac{mv_1^2}{2},$$

$$W_2 = W_{h_2} + W_{k_2} = mgh_2.$$

3. W_1 va W_2 ning qiymatlarini tenglashtiramiz:

$$mgh_1 + \frac{mv_1^2}{2} = mgh_2.$$

Bundan

$$h_2 = h_1 + \frac{v_1^2}{2g}$$

ifodani hosil qilamiz.

1 Hisoblaymiz: $h_2 = 10m + \frac{\left(\frac{14}{s} m\right)^2}{2 \cdot 9,8 \frac{m}{s^2}} = 20m$.

Javob: Koptok erdan qaytib 20 m balandlikka ko'tarilgan.

ENERGIYA VA UNING SAQLANISH QONUNIGA DOIR MASALALAR

101. Chana va uning ustiga ortilgan yukning massasi 200 kg. Ishqalanish koeffitsienti $0,15$ ga teng bo'lsa, chananing $1,5$ km ga gorizontal yo'l bo'yicha tekis harakat lant irishda bajarilgan ishni toping.
102. Og'irligi $2 \cdot 10^4$ N bo'lgan vertolyot $1,5$ minut ichida 150 metrga ko'tarilish uchun uning motori qancha quvvat sarflashi lozim.
103. Mototsiklning hayd ovchisi bilan birgalikda massasi 200 kg. Mototsikl joyidan qo'zg'alib qiyalig'i $0,02$ bo'lgan tepalik bo'ylab 100 m masofa bosganda 36 km/soat tezlikka erishadi. Ishqalanish koeffitsienti $0,05$ bo'lsa, mototsikl motorining o'rtacha quvvatini toping.
104. 20 m/s tezlik bilan uchib kelayotgan massasi $0,6$ kg bo'lgan futbol topini darvozabon $0,1$ s ichida ushlab to'xtatdi. Darvozaboning quvvatini toping.
105. Massasi 200 kg bo'lgan mototsikl 54 km/soat tezlik bilan harakat lanyapti. Uni 20 metr masofada to'xtatish uchun zarur bo'ladigan tormozlovchi kuchning kattaligini toping.
106. Massasi 700 g bo'lgan jism vertikal ravishda yuqoriga 15 m/s tezlik bilan uchun bajarilgan ishni hisoblang.
107. 100 m balandlikda vertolyotdan massasi 60 kg bo'lgan yuk qor uyumi ustiga tashlandi. Qorga tegish vaqtida yukning tezligi 40 m/s bo'lsa, havoning qarshiligi eng ish uchun qancha ish bajarilgan?
108. Massasi 2 kg bo'lgan snaryad erga tushgach, 2 metr tuproq ichiga bo'lgan. Agar tuproq qarshilik kuchining o'rtacha qiyamati $1,8 \cdot 10^5$ N bo'lsa snaryadning erga tushish paytidagi tezligini toping.
109. $m=70$ kg massali sportchi parashutni ochmasdan sakraganda $t=15$ s da ≈ 60 m/s tezlikka erishadi. Parashyutchining harakatini tekis tezlanuvchan deb hisoblab, havoning qarshiligi eng ishda bajariladan ishni toping.
110. Massasi 5 kg, qirrasining uzunligi esa $0,1$ m bo'lgan kubni bir yog'idan ikkinchi yog 'iga ag'darish uchun qanday ish bajarish lozim?
111. Uchiga $30,0$ kg massali krestovina (krest shaklidagi yog 'och) o'rnatilgan 200 kg massali telegraf simyog 'ochini gorizontal holatdan vertikal holatga o'tkazish uchun qancha ish bajarish lozim? Simyog 'ochning uzunligi $10,0$ m deb oling.
112. Massasi $2,0$ kg bo'lgan jism qiyalik burchagi 30° bo'lgan qiya tekislik bo'ylab $1,0$ m balandlikka ko'tarilgan bo'lsa, uning kinetik energiyasi qancha bo'lgan? Jism bilan qiya tekislik orasidagi ishqalanish koeffitsienti $0,10$ ga teng.

113. Agar ko'tarilish vaqt t=2,0 s, ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,10$ bo'lsa, m=10 kg massali yukni qiyalik burchagi $\alpha=45^\circ$ bo'lgan qiya tekislik bo'ylab s=2 m masofaga ko'tarishtda bajarilgan ishni toping.
114. Qiyalik burchagi $\alpha=20^\circ$, ishqalanish koeffitsienti esa $\mu=0,20$ bo'lsa, m=5 10³kg massali pricepni qiyalik bo'ylab yuqoriga v=1,0 m/s tezlik bilan tortib chiqishi uchun traktorning quvvati qanday bo'lishi kerak?
115. m=1,0 kg massali jism Erning sirtidan gorizontga nisbatan $\alpha=30^\circ$ burchak ostida v=8,0 m/s boshlang'ich tezlik bilan otildi. Jism otilgandan t=5,0 s o'tgan paytdagi og'irlik kuchining quvvatini toping. Bu kuch t=5,0 s vaqt ichida qanday ishbajaradi? Havoning qarshiligi hisobga olmang.
116. Agar elektropoezdning massasi 1,2·10⁵ kg, ishqalanish koeffitsienti esa 0,05 bo'lsa, $\alpha=10^\circ$ bo'lgan qiyalik bo'ylab yuqoriga 1,5 m/s² tezlanish bilan 100 m masofaga ko'tarilganda elektropoezdning dvigatellari qancha ishbajaradi?
117. Agar 1,0 · 10⁴ kg massali yukni 200 m chuqurlikdan 60 s vaqt ichida olib chiqadigan shaxta liftining FIK 80% bo'lsa, uning dvigatelining quvvatini toping.
118. 1,0 · 10⁶ kg massali poezd $\alpha = 10^\circ$ bo'lgan qiyalik bo'ylab yuqoriga 15 m/s tezlik bilan chiqib, 2,0 km yo'lni bosib o'tgan. Poezdning harakati davomida teplovozning bajargan ishi va o'rtacha quvvatini toping. Ishqalanish koeffitsienti 0,05.
119. Massalari $m_1=m_2=4,0$ kg dan bo'lgan sharlar bir-biriga tomon $v_1=3,0$ m/s va $v_2=8,0$ m/s tezlik bilan kelib urilganda ularni deformatsiyalash uchun qancha energiya sarflangan? Urilishni to'g'ri va noelastik deb hisoblang.
120. Massasi 1,1·10³ kg bo'lgan zambarakdan 54 kg massali snaryad gorizontal yo'nalishda otilgan. Snaryadaning Erga nisbatan tezligi v=900 m/s. Zambarakning snaryad otilish paytdagi erkin orqaga siltanish tezligini toping.

4. GRAVITATSIYA.

Butun olam tortishish qonuni (gravitatsiya qonuni):

$$F = G \frac{m_1 \cdot m_2}{r^2},$$

F – ikkitamoddiy nuqtalar orasidagi o'zarotortishish kuchi, m₁ va m₂ ularning massalari, r – ular orasidagi masofa, G – gravitatsion doimiy bo'lib, uning son qiymati: G=6,67·10⁻¹¹ Nm²/kg². Er sirtidan h balandlikdagini m massali jismning Er bilan o'zarotortishish kuchi:

$$F = G \frac{mM}{(R+h)^2},$$

bu erda M – Erning massasi bo'lib, uning son qiymati 5,978 10²⁴ kg, R – Erning radiusi bo'lib, uning son qiymati 6371 km.

Tortishish maydonining kuchlanganligi:

$$\bar{g} = \frac{\bar{F}}{m},$$

Bu erda F – maydonning biror nuqtasiga joylashtirilgan m massali moddiy nuqtaning ta'sir etuvchi tortishish kuchi. M – massasi sferik tekis taqsimlangan planet anning hosil qilgan tortishish maydonining kuchlanganligi:

$$g = G \frac{M}{r^2}.$$

Demak, tortishish maydonining kuchlanganligi son jihatdan erkin tushish tezlanishiga teng.

Er sirtidan h balandlikda erkin tushish tezlanishi:

$$g_h = G \frac{M}{(R+h)^2} \quad \text{yoki} \quad g_h = g_0 \left(\frac{R}{R+h} \right)^2,$$

Bu erda $g_0 = G \frac{M}{R^2}$ – Er sirtida erkin tushish tezlanishining ifodasi bo'lib, uning o'rtacha son qiymati $g_0 = 9,81 \text{ m/s}^2$ ga teng. Er qutblarida $g_q = 9,83 \text{ m/s}^2$, ekvatorida $g_e = 9,78 \text{ m/s}^2$. Ikki moddiy nuqtalarining o'zaro tortishish gravitatsion potensial energiyasi:

$$P = -G \frac{m_1 \cdot m_2}{r},$$

m_1 va m_2 – moddiy nuqtalar massalari, r – ular orasidagi masofa. Gravitatsion maydonning potensiali:

$$\varphi = \frac{P}{m},$$

Bu erda P – maydonning berilgan nuqtasiga joylashtirilgan m massali moddiy nuqtaning potensial energiyasi. Gravitatsion maydon ixtiyoriy nuqtasining kuchlanganligi:

$$G = \frac{d\varphi}{dr} = -\text{grad}\varphi \quad \text{ni}$$

Potensialning gradienti ($\text{grad}\varphi$) deyiladi. Bundagi $\frac{d\varphi}{dr}$ – gravitatsion maydon potensialining radius-vektor \vec{r} yo'nalishidagi o'zgarish tezligini ifodalaydi. Agar gravitatsion maydonni bitta m_1 massali jism hosil qilayotgan bo'lsa, unda uning potensiali:

$$\varphi = -G \frac{m}{r},$$

Bu erda r – m_1 massali moddiy nuqta bilan maydonning ma'lum bir kuzat ilayotgan nuqtasigacha bo'lgan masofa.

Agar gravitatsion maydonni m_1, m_2, \dots, m_n massali moddiy nuqtalar hosil qilayotgan bo'lsa, gravitatsion maydonning potensiali:

$$\varphi = \frac{\Pi}{m} = -\sum_{i=1}^n \frac{Gm_i}{r_i}.$$

Kepler qonunlari:

1. Hamma planetalar Quyosh atrofida elips shaklidagi orbitalar bo'yicha harakatlanib, ularning fokuslaridan birida Quyosh joylashgan.
2. Teng vaqtlar oralig'ida planetalarining radius - vektorlari teng yuzalar chizadi.

Planetalar Quyosh atrofida aylanish davrlari (T) kvadratlarining nisbati orbitalar katta yarim o'qlari (a) kublarining nisbatlariga teng:

$$\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3} \quad \text{yoki} \quad \frac{a^3}{T^2} = G \frac{M}{4\pi^2}.$$

Birinchi kosmik tezlik:

$$g_1 = \sqrt{G \frac{M}{R+h}} \quad \text{yoki} \quad g_1 = R \sqrt{G \frac{g}{R+h}},$$

bu erda R , M – planetaning radiusi va massasi, h – planeta sirtidan kosmik kemagacha bo'lgan masofa.

Agar $h \ll R$ bo'lsa,

$$g_1 = \sqrt{G \frac{M}{R}} = \sqrt{gR}.$$

Agar planetaning er deb olsak, u holda birinchi kosmik tezlikning son qiymati:

$$V_1 = 7912 \text{ m/s} = 8 \text{ km/s}.$$

Bu erda g – (planeta) Er sirtida erkin tushish tezlanishi.

Ikkinci kosmik tezlik:

$$g_2 = \sqrt{2G \frac{M}{R+h}} = 1,41 \sqrt{G \frac{M}{R+h}}, \quad g_2 \approx 11,2 \text{ km/s}.$$

Uchinchi kosmik tezlik:

$$g_3 = \sqrt{2G \frac{m_q}{R}}, \quad g_3 \approx 42,2 \frac{\text{km}}{\text{s}},$$

bu erda m_q – Quyosh massasi, R – Er va quyosh orasidagi masofa (Er orbitasining radiusi).

GRAVITATSIYAGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Ekvatordag'i jismilar vaznsiz holatda bo'lishi uchun Er necha martatez aylanishi kerak?

Berilgan: $g = 9,8 \text{ m/s}^2$, $R = 6,38 \cdot 10^6 \text{ m}$, $T = 24 \text{ soat} = 864 \cdot 10^2 \text{ s}$.

Topish kerak: $v_2/v_1 = ?$

Ichilishi: Er ning o'z o'q i atrofid a aylanish tezlig i:

$$\vartheta_1 = \frac{2\pi R}{T}, \quad (1)$$

Bu erda R , T – Erning radiusi va aylanish davri (bu kattaliklarning qiyamatlarini qo'llanmaning ilovasidagi 4 – jadvaldan olinadi).

Ekvatorda jism vaznsiz holatda bo'lishi uchun markazdan qochma nersiya kuchi, og'irlik kuchiga teng bo'lishi kerak:

$$\frac{m\vartheta^2}{R} = mg \quad \text{bund a} \quad \vartheta_2 = \sqrt{Rg}. \quad (2)$$

(1) va (2) ni nisbatlari:

$$\frac{\vartheta_2}{\vartheta_1} = \frac{T}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{R}}.$$

Hisob laymiz:

$$\frac{\vartheta_2}{\vartheta_1} = \frac{864 \cdot 10^2 s}{6,28} \sqrt{\frac{9,8 m/s^2}{6,38 \cdot 10^6 m}} = 17 \text{ marta.}$$

Nurobi: $v_2/v_1 = 17$ marta.

2-masala. Erdan otilgan jismning birinchi va ikkinchi kosmik tezliklarning son qiyamatlarini toping.

Berilgan: $M=5,98 \cdot 10^{24} \text{ kg}$, $R=6400 \text{ km}$, $G=6,67 \cdot 10^{-11} \text{ N m}^2/\text{kg}^2$.

Topish kerak: $v_1 = ?$ $v_2 = ?$

Ichilishi: 1) Jism Er sirtidan qandaydir juda kichik balandlikda bo'lsin deylik: jismga orizontal yo'nallishda ma'lum bir tezlik berilganda jism Erning sun'iy yo'ldoshiga aylanib, Er atrofid a doiraviy orbita bo'ylab harakatlana boshlaydi (havoning qarshiliqi yo'q deb faraz qilamiz). Bu vaqtligi tezlik birinchi kosmik tezlik deyiladi.

Doiraviy orbita bo'ylab harakatlanayotgan jismga kattaligi

$$F_M = \frac{m\vartheta_1^2}{R} \quad (1)$$

bo'lgan markazga intilma kuch ta'sir qiladi. Bu erda m – jismning massasi, v_1 – harakat tezligi, R – traektoriyaning egrilik radiusi.

Bu masalada Erning jismni tortish kuchi markazga intilma kuch bo'ladi.

Bu tortish kuchi:

$$F_T = G \frac{mM}{R^2} \quad (2)$$

formula bilan ifodalanadi. Bu erda M – Erning massasi, G – gravitatsion doimiy, R – jismning Er markazidan uzoqligi (traektoriyaning egrilik radiusiga teng). Markazga intilma F_M kuchning ifodasini tortishish kuchi F ning ifodasiga teng lab:

$$\frac{m\vartheta_1^2}{R} = G \frac{mM}{R^2}$$

tenglamani hosil qilamiz. Bundan:

$$\vartheta_1 = \sqrt{G \frac{M}{R}} . \quad (3)$$

Hisoblaymiz:

$$\vartheta_1 = \sqrt{\frac{6,67 \cdot 10^{-11} \cdot 5,96 \cdot 10^{24}}{6,4 \cdot 10^6}} = 7,9 \text{ km/s} .$$

v_1 ning qiymatini Erning massasi noma'lum bo'lsa ham topish mumkin. Buning uchun (2) tenglikning ikkala qismini moga b'o'lamiz:

$$\frac{F_T}{m} = G \frac{M}{R^2} .$$

Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan, F_T/m nisbat Er sirtida erkin tushayotgan jismning tezlanishi gateng bo'lad i:

$$g = \frac{GM}{R^2} .$$

Demak,

$$\frac{GM}{R} = gR$$

va

$$\vartheta_1 = \sqrt{gR} . \quad (4)$$

(v_1 ni topish uchun (1) tenglikning ikkala qismini ham moga b'o'lsa bo'lad i).

(4) formulaga son qiymatlarini qo'ysak yana o'sha $v=7,9$ km/s kelib chiqadi.

2) Ikkinchi kosmik tezlikni topish uchun energiya saqlanish qonunidan foydalanamiz. Jismni Er sirtidan cheksiz uzoqlikka otish uchun sarf bo'lgan ish shu jism kinetik energiyasiga teng:

$$A = W_k, \quad W_k = \frac{m\vartheta^2}{2} .$$

Er sirtidan jismning cheksizlikka otish uchun bajarilgan ishni hisoblaganda ta'sir etuvchi kuch o'zgaruvchan kattalik ekaniga e'tibor berish kerak. Shuning uchun masofani shunday cheksiz kichik dr bo'lakchalarga bo'lamicki, bu masofada kuch o'zgarmas deb olinsin. U holda elementar ish:

$$dA = F \cdot dr .$$

Bung a butun olam tortish qonunidan

$$F = G \frac{mM}{r^2}$$

ni qo'yamiz:

$$dA = F \cdot dr = G \frac{mM}{r^2} \cdot dr$$

Bu ifodani Er sirti $r=R$ dan cheksizlikkacha bo'lgan masofa bo'yicha integrallaymiz:

$$A = GmM \int_{r=R}^{r=\infty} \frac{dr}{r^2},$$

lekin

$$\int_{r=R}^{r=\infty} \frac{dr}{r} = -\frac{1}{r} \Big|_R^\infty = \frac{1}{R}.$$

Demak, jismni Er sirtidan cheksizlikkacha otish uchun bajarilgan ish:

$$A = G \frac{mM}{R}.$$

Shunday qilib,

$$\frac{m g^2}{2} = G \frac{mM}{R},$$

bunda:

$$g = g_2 = \sqrt{2G \frac{M}{R}}$$


ikkinchchi kosmik tezlik formulasi kelib chiqadi.

Hisoblaymiz:

$$g_2 = \sqrt{\frac{2 \cdot 6,67 \cdot 10^{-11} N \cdot m^2 / kg^2 \cdot 5,98 \cdot 10^{24} kg}{6,4 \cdot 10^6 m}} = 11,16 \frac{km}{s^2}.$$

Javobi: $v_1=7,9 \text{ km/s}; v_2=11,16 \text{ km/s}.$

3-masala. 1976 yil 2 dekabr kuni «Molniya-2» aloqa yo'ldoshi apageyi 40608 km va perigeyi 657 km bo'lgan elliptik orbitaga chiqariladi. Yo'ldoshning Er atrofida aylanish davri va perigeydag'i tezligining apageydag'i tezligiga nisbati hamda kinetik va to'la energiyalar nisbati topilsin (19-rasm).



Berilgan: $r_1 = 657 \text{ km}$, $r_2 = 40608 \text{ km}$

$$\text{Topish kerak: } T = ? \quad \frac{v_p}{v_a} = ? \quad \frac{K_p}{K_a} = ?$$

19-rasm

Echilishi: Er atrofida «Molniya-2» va oy aylanganligi uchun Keplerning uchińchi qonunini qo'llaymiz.

$$\frac{T_2^2}{T_1^2} = \frac{a_2^3}{a_1^3},$$

bunda T_1, T_2 mos holda Oy va «Molniya-2»ning Er atrofidagi aylanish davrlari; a_1 - Er va Oy markazlari orasidagi masofa; a_2 - Er va «Molniya-2» markazlari orasidagi o'rtacha masofa. Oy uchun $T_1 = 27,3$ sutka = 655,2 soat va Oy orbitasi katta yarim o'qi sifatida taqriban Er dan Oygacha bo'lgan masofani $r = 384000 \text{ km}$ deb olish mumkin. Lekin Er va Oy radiuslari ham hisobga olinsa, masala aniqroq echilgan bo'ladi.

$a_1 = r + R + r_{oy} = (384 + 6,37 + 1,74)10^3 \text{ km} = 39210^3 \text{ km}$, bunda R va r_{oy} mos holda Erning va Oyning radiuslari. Yo'ldosh uchun $a_2 = 0,5 (2R + h_1 + h_2) = 0,5 (2 \cdot 6370 + 657 + 40608) = 27000 \text{ km}$. Shunday qilib, «Molniya-2» ning aylanish davri:

$$T_2 = T_1 \frac{a_2}{a_1} \sqrt{\frac{a_2}{a_1}} = 655,2 \text{ soat} \cdot \frac{27000 \text{ km}}{392000 \text{ km}} \sqrt{\frac{27000 \text{ km}}{392000 \text{ km}}} = 12,15 \text{ soat}$$

Yo'ldoshning perigeydag'i tezligini apageydag'i tezligiga nisbatini impulsning saqlanish qonunidan topamiz:

$$m g_n r_n = m g_a r_a \quad \text{bunda} \quad \frac{g_n}{g_a} = \frac{r_a}{r_n}.$$

Lekin $r_a = a + \varepsilon x$ va $r_n = a - \varepsilon x$, bunda a - ellips katta yarim o'qi, $\varepsilon = \frac{c}{a} = \frac{F_1 \cdot F_2}{2a}$ - ellips eksentrisiteti, x - yo'ldosh abciissasi bo'lib, uning eng katta qiymati $x = a$ (19-rasm).

$$F_1 \cdot F_2 = r_a - r_n = 40608 \text{ km} - 657 \text{ km} = 39951 \text{ km},$$

$$\varepsilon = \frac{F_1 \cdot F_2}{2a} = \frac{39951}{2(40608 + 6370)} = 0,425.$$

Demak,

$$\frac{g_n}{g_a} = \frac{a + \varepsilon a}{a - \varepsilon a} = \frac{1 + \varepsilon}{1 - \varepsilon} = \frac{1 + 0,425}{1 - 0,425} \approx 2,5.$$

«Molniya-2» ning apagey va perigey holatlaridagi energiyalarining nisbati:

$$n = \frac{K_n}{K_a} = \left(\frac{g_n}{g_a} \right)^2 = \left(\frac{1,425}{0,575} \right)^2 = (2,5)^2 = 6,25.$$

Javobi: $T_2 = 12,15$ soat; $v_n/v_a = 2,5$; $K_n/K_a = 6,25$.

GRAVITATSIYAGA DOR MASALALAR

121. Erning birinchi sun'iy yo'l oshining aylanish davri 1 soat 36 min. edi. Yo'l osh doiraviy orbita bo'y lab tekis harakat qilgan deb hisoblab, uning Er sirtidan qanday balandlikda uchga anligini toping.
122. Erning sun'iy yo'l oshi ekvator tekisligidagi doiraviy orbita bo'y lab harakatlanib, Erdan qaraganda qo'zg'almash bo'lib ko'rinishi uchun uni qanday balandlikka chiqarish kerak? Erning radiusi $R_E = 6,37$ Mm, sutkalik aylanish davri esa $T = 24$ soat deb oling.
123. Oy sirtidagi jism cheksizlikka uchib ketishi uchun unga qanday tezlik berish kerak? Oyning massasini $M = 7,3 \cdot 10^{22}$ kg, radiusini $R = 1,74$ Mm deb oling.
124. Oy doiraviy orbita bo'y lab harakatlanadi deb hisoblab, uning Er atrofidagi harakat tezligini toping. Erning massasini $M_1 = 5,95 \cdot 10^{24}$ kg, Oy bilan Er orasidagi masofani esa $R = 384,4$ Mm deb oling.
125. Oy tomoniga uchib borayotgan kosmik raketa Er markazidan qanday masofada Er va Oy tomonidan bir xil kuch bilan tortiladi? Oyning massasi Er massasidan 81 marta kichik, ular orasidagi masofa esa Erning radiusidan 60 marta katta deb oling.
126. Er bilan Quyosh orasidagi masofa 150 Gm, Quyoshning massasi esa $1,97 \cdot 10^{30}$ kg bo'lsa, Er Quyosh atrofida qanday tezlik bilan harakatlanadi?
127. Erning radiusi 6,37 Mm, erkin tushish tezlanishi esa $9,8 \text{ m/s}^2$ ekanligi ma'lum bo'lsa, Erning o'ttacha zichligini toping.
128. Agar 1 Mm balandlikka chiqarilgan sun'iy yo'l oshning aylanish davri 106 minut ga teng bo'lsa Erning massasini toping.
129. Ergacha masofa 384 Mm, Erning massasi esa $5,96 \cdot 10^{24}$ kg ga teng deb olib, Oyning orbita bo'y lab aylanishining o'ttacha tezligini toping.
130. Ikkinci kosmik tezlikni, ya'ni raketa Erdan uzoqlashib, uning ta'sir doirasidan chiqib ketadigan tezlikning eng kichik qiyamatini toping.
131. Elbrus cho'qqisida ($h=6$ km) jismning og'irligi uning dengiz sat hidagi og'irliga nisbatan qanchaga kamayib qoladi?
132. Qanday balandlikda og'irlilik kuchining tezlanishi uning Er sirtidagi qiyamatidan ikki marta kichik bo'ladi?
133. Quyoshga tortilish kuchi ta'sirida Er qanday tezlanish oladi?
134. Sun'iy sayyora bo'lib qolgan kosmik raketa Quyosh atrofida 450 sutkalik aylanish davri bilan harakatlanadi. Erning Quyoshdan o'ttacha uzoqlashish masofasi 149,5 Gm, aylanish davri esa 365 sutka 6 soat 9 minut 10 sekund

ekanligini bilgan holda sun'iy sayyoraning Quyoshdan o'ttacha uzoqlashish masofasini toping. Sayyoralar ning orbitalarini doiraviy deb hisoblang.

135. Erdan Quyoshgacha bo'lgan eng kichik va eng katta masofalar mos ravishda $r_1=147$ Gm va $r_2=152$ Gm, Erning orbita bo'ylab o'ttacha harakat tezligi esa $\langle v \rangle = 29,8$ km/s bo'lsa, Erning Quyosh atrofidagi harakatining perigeydag'i chiziqli tezligi nimaga teng?

136. Massasi $5 \cdot 10^3$ kg bo'lgan jismni Er sirtidan sayyoralararo fazoga chiqarib yuborish uchun bajarish lozim bo'lgan ishni toping. Havoning qarshiligini hisobga olmang.

137. Ma'lumki, orbitasining radiusi ortib borgani sari Erning sun'iy yo'ldoshining tezligi kamayib boradi. Shunga ko'ra yo'ldoshni kattaroq radiusli orbitaga chiqarish uchun raketa dvigatellari kamroq ish bajaradi deyish mumkinmi? Nima sababdan?

138. Radiusi R bo'lgan sayyora zichligi p bo'lgan siqilmaydigan suyuqlikdan tashkil topgan bo'lsa, shu suyuq sayyoraning markazidagi bosimni toping.

139. Agar fazoning juda uzoq joylaridan kelayotgan meteoritlarning Erga nisbatan boshlang'ich tezliklari nolga teng bo'lsa, ular Erga qanday tezlik bilan kelib tushadi? (Havoning qarshiligi hisobga olinmasin).

140. Er bilan Oy orasidagi masofa $R_1=385000$ km ga va Oyning Er atrofida aylanish davri $T_1=27$ sutka $7\frac{2}{3}$ soatga teng. Saturn bilan uning yo'ldoshi Didon orasidagi masofa $R_2=379000$ km bo'lib, yo'ldosh Saturn atrofida $T_2=2,74$ sutka davr bilan aylanadi. Saturnning massasi Erning massasidan necha marta katta ekan?

5. NOINERSIAL SANOQ SISTEMALAR

Biror inersial sanoq sistemasiga nisbat a tezlanish bilan to'g'ri chiziqli ilgarilanma harakat qilayotgan sanoq sistemasida jismga quyidagi inersiya kuchi ta'sir qiladi:

$$\bar{F}_{HH} = -m \cdot \vec{a}.$$

Bunda minus (-) ishorasi tezlanish bilan ilgarilanma harakat qilayotgan sanoq sistemasidagi jismga ta'sir etadigan inersiya kuchining yo'naliishi sanoq sistemasining harakat yo'nalihsiga teskari ekanligini ko'rsatadi.

Aylanuvchan sanoq sistemasida jismga ta'sir etadigan markazdan qochma inersiya kuchi quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{F}_{M,K} = m\omega^2 R.$$

Aylanuvchi sanoq sistemasida jism tinch yoki harakatlanishidan qat'iy nazar unga markazdan qochma inersiya kuchi ta'sir etaveradi. Aylanuvchi sanoq sistemasida markazdan qochma inersiya kuchidan tashqari harakatlanayotgan jism tezligiga perpendikulyar yo'nalihsida ta'sir qiladigan Koriolis kuchi ham mavjuddir. U quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{F}_K = 2m(\bar{g} \cdot \bar{\omega}).$$

Mazkur formulalarda R - aylanish o'qidan jismning massa markaziga ot kuzilgan radius - vektor, v - jismning aylanayotgan noinersial sistemasiga nisbatan tezligi, ω - aylanuvchi sanoq sistemasining aylanma harakatini ifod alovchi burchak tezlik.

Demak, tekis aylanuvchi sanoq sistemasiga nisbatan jismning harakat tenglamasi Nyuton kuchlari ($\sum F_i$), markazdan qochma inersiya kuchi ($F_{M,Q}$) va Koriolis kuchi (F_K) ning yig'indisidan iborat, ya'ni

$$ma = \sum F_i + F_{M,Q} + F_K.$$

NOINERSIAL SANOQ SISTEMALARIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Qiya tekislik ustida turgan jism yuqoriga tomon siljishi uchun qiyalik burchagi α bo'lgan qiya tekislik gorizontal yo'nalihsda eng kamida qanday tezlanish bilan harkatlanishi kerak? Jism bilan qiya tekislik orasidagi ishqalanish koefitsienti μ deb oling.

Echilishi: Qiya tekislik bilan bog'langan sistemada jismga 4 ta kuchi qo'yilgan (20-rasm). Og'irlik kuchi $P=mg$, inersiya kuchi $F_{in}=ma$, qiya tekislikning reakciya kuchi N va ishqalanish kuchi $F_i=\mu(F_{in}+P')$ bu erda m - jismning massasi, α - qiya tekislik tezlanishi.


Tezlanishning eng kichik qiymatini bu kuchlarning qiya tekislikka parallel yo'nalihsdag'i proekciyalari yig'indisi nolga teng bo'lish shartidan topamiz:

$$F'_{in} = F_i = F_{in} + P' \cdot F'_i = macos\alpha, \quad P' = mg \cdot \sin\alpha$$

va

$$F_H = \mu(ma \sin \alpha + mg \cos \alpha)$$

ekanligini hisobga olsak: $a = \frac{(\sin \alpha + \mu \cos \alpha)}{(\cos \alpha - \mu \sin \alpha)} \cdot g$.



20-rasm


2-masala. Agar markazdan qochma reguluatorning sharchalari mahkamlangan har bir sterjenning uzunligi 20 sm bo'lsa va markazdan

qochma mashina bir minutda 90 marta aylansa markazga intilma regulyatorning yuklari qanday burchakka og'adi?

Berilgan: $\ell = 20 \text{ sm} = 0,2 \text{ m}$, $n = 90 \text{ ayl/min} = 1,5 \text{ ayl/s}$, $g = 9,81 \text{ m/s}^2$.

Topish kerak: $a = ?$

Echilishi: Regulyatorning sharchalari (21-rasm) markazdan qochma mashinaning yonlama turkisi ta'sirida ularning rasmdagi vaziyatida rasm tekisligiga perpendikulyar yo'nalihsda tezlik oladi. Sharchalarga ta'sir qilayotgan markazga intilma kuchlar ularni radiusi R ga teng bo'lgan aylana bo'ylab bir xil harakat qilishga majbur qiladi.



21-paem

Bu sharchalardan birining masalan, C sharchaning harakatini tekshiramiz. Sharchaga ikkita kuch ta'sir qiladi: P og'irlik kuchi va sterjenning Q tortishish kuchi. Bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi regulyator sharchasini R radiusli aylana bo'ylab harakatlantiruvchi markazga intilma kuch bo'ladi. Shuning uchun sharcha harakatining tenglamasi:

$$F_{M.I.} = \frac{mv^2}{R}$$

ko'rinishda yoziladi, lekin $v = \omega \cdot R = 2 \cdot \pi \cdot n \cdot R$ bo'lgani uchun $F_{M.I.} = 4 \cdot \pi^2 \cdot R \cdot n^2 \cdot m$ bo'ladi.

$F_{M.I.}$ kuch ham $F_{M.I.} \cdot CP$ uchburchakdan aniqlanishi mumkin:

$$F_{M.I.} = mg \tan \alpha.$$

Bu ifodalar ni $F_{M.I.}$ kuchga tenglashtirib $4^2 R n^2 = g \tan \alpha$ ni hosil qilamiz.

Noma'lum aylanish radiusini sterjenning berilgan uzunligi bilan ifod alaymiz:

$$R = \ell \sin \alpha.$$

U holda $4^2 \ell \cdot \sin \alpha \cdot n^2 = g \tan \alpha$. Oxirgi ifodadagi tg a ni $\frac{\sin \alpha}{\cos \alpha}$ nisbat bilan ifod alab quyidagi ini hosil qilamiz:

$$4^2 \ell \cdot n^2 = \frac{g}{\cos \alpha} \quad \text{yoki} \quad \cos \alpha = \frac{g}{4\pi^2 \ell n^2}.$$

Hisoblaymiz:

$$\cos \alpha = \frac{9,8}{4 \cdot 9,86 \cdot 0,2 \cdot 2,25} = 0,55, \quad \alpha = 56^\circ.$$

Javobi: $\alpha = 56^\circ$.

3-masala. Og'irligi $P=50$ N bo'lgan sterjen uchidan o'ziga va rasm tekisligiga tik qilib o'tkazilgan o'q atrofida aylanadi. Sterjenni gorizontal holatga keltirib turib, qo'yib yuboriladi. Sterjen harakatlana boshlagan va muvozanat vaziyatidan o'tayotgan paytlarda o'qqa ta'sir qiladigan bosim kuchlarini toping (22-rasm).

Berilgan: $P=50$ N, $g=9,81$ m/s.

Topish kerak: $f = ?$

Echilishi: Boshlang'ich paytda o'qqa ko'rsatiladigan bosim kuchini hisoblash uchun og'irlik markazining tezlanishi aniqlaymiz. Og'irlik markazining harakat tenglamasiiga binoan

$$P - f = ma,$$

bunda $f - o'qning sterjengi ta'sir kuchi.$

Nyutonning uchinchi qonuning asosan, bu kuch sterjen tomonidan o'qqa ko'rsatiladigan bosim kuchiga teng. Sterjenning burchak tezlanishi

$$\varepsilon = \frac{M}{I} = \frac{P \cdot \frac{\ell}{2}}{I}.$$

Og'irlik markazining chiziqli tezlanishi

$$a = \varepsilon \frac{\ell}{2} = \frac{P \ell^2}{4I} \quad \text{bunda} \quad I = \frac{m \ell^2}{3} = \frac{P \ell^2}{3g},$$

$$\text{bo'lganligi uchun } a = \frac{3}{4} g.$$

$$\text{Demak, } f = P - ma = P - \frac{3}{4} mg = \frac{1}{4} P.$$


Sterjen muvozanat vaziyatidan o'tayotgan paytdagi o'qqa ko'rsatadigan bosim kuchini topish uchun koordinatalar sistemasini sterjen bilan bog'laymiz. U vaqtida muvozanat holatda o'qning sterjenga ta'sir kuchi sterjenning og'irligi P va markazdan qochma inersiya kuchi $f_{m,q} = m\omega^2 \frac{\ell}{2}$ larni muvozanat lagan bo'ladi, shuning uchun

$$f = P + m\omega^2 \frac{\ell}{2}.$$

Muvozanat vaziyatidagi burchak tezlikni energiyaning saqlanish qonunidan foydalanib topish mumkin:

$$mg \frac{\ell}{2} = \frac{I\omega^2}{2}$$

yoki



22-rasm

$$mg \frac{\ell}{2} = \frac{I\omega^2}{2} = \frac{m\ell^2}{3} \cdot \frac{\omega^2}{2}; \quad \omega^2 = \frac{3g}{\ell}.$$

Demak,

$$f = P + m \frac{\ell}{2} \cdot \frac{3g}{\ell} = P + \frac{3}{2} mg = \frac{5}{2} P.$$

Hisob laymiz: $f = (5/2)R = (5/2) 50 \text{ N} = 125 \text{ N}.$



Javobi: $f = 125 \text{ N}.$

4-masala. Mototsiklchining vertikal cilindrik devorda yurishi ko'rsatiladigan sirk attrakcioni keng tarqagan (23-rasm).

- a) Silindrik devorning diametri $d=18 \text{ m}$, mototsikl va odamdan iborat sistemaning og'irlik markazi bilan devor orasidagi masofa $h=1 \text{ m}$, mototsikl g'ildiraklarini bilan devor orasidagi ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,4$ bo'lganda mototsiklchi vertikal devorda yiqilmay harakatlanishi uchun tezligi kamida qanday bo'lishi kerak?
- b) Agar mototsiklchi $V=20 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa, u gorizontalga qanday burchak hosil qilib og'gan bo'ladi?

Berilgan: $d=18 \text{ m}$, $h=1 \text{ m}$, $\mu=0,4$, $V=20 \text{ m/c}.$

Topish kerak: $V_{\min}=?$, $\alpha=?$



23-rasm

Echilishi: Koordinatalar sistemasi harakatlanayotgan jism bilan bog'langan (inersial emas) bo'lsin. U holda mototsiklchiga quyidagi kuchlar ta'sir qiladi:

a) uning og'irligi $P=mg$, bu kuch og'irlik markaziga qo'yilgan bo'lib, vertikal pastga qarab yo'nalgan;

b) devorning bosim kuchi N, bu kuch g'ildiraklarning devorga tegib turgan nuqtalariga qo'yilgan bo'lib, devorning sirtigatik yo'nalgan;

v) g'ildiraklar bilan devor bir-biriga tegib turgan nuqtalarga qo'yilgan ishq alanish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi F_{ishq} devor Silindrik sirtining yasochisi bo'ylab vertikal yuqoriga yo'nalgan (ishq alanish kuchining qiyamati $F_{ishq} = \mu N$ bo'ladi):

g) markazdan q ochma inersiya kuchi $F_{m.q} = m\omega^2 R$, bu kuch og'irlik markaziga qo'yilgan bo'lib, aylanish markazidan chiqib aylananining radiusi $R = (d/2) - h$ (Silindrik sirtga o'tkazilgan normal) bo'yicha yo'nalgan. Shu kuchlarning hammasining ta'sirida mototsiklchi muvozanat holatda bo'ladi. Demak, shu kuchlarning hammasining teng ta'cir etuvchisi nolga teng, yoki kuchlarning vertikal va g orizontal yo'nalisilargacha proeksiyalarini olsak,

$$F_{ishq} = mg, \quad F_{m.q} = N$$

bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek,

$$F_{ishq} = \mu N \quad \text{va} \quad F_{m.q} = \frac{mv^2}{R}, \quad \omega = \frac{v}{R}$$

ekanligini eslasak,

$$\frac{mv^2}{d-h} = \frac{mg}{\mu}; \quad v_{min} = \sqrt{\frac{(d-h)}{2\mu} \cdot g} \approx 14 \frac{m}{s}$$

Mototsiklchi bilan mototsikldan iborat sistemaning og'irlik markazi orqali o'tgan o'qqa nisbatan aylantiruvchi moment nolga teng bo'lishi kerak.

Bu shartdan $\sum m_i = 0$ yoki $N \cdot y - F_{ishq} \cdot X = 0$ ni topamiz, bunda $u = \ell \cdot \sin \alpha$ va $x = \ell \cdot \cos \alpha$. Bundan $N \cdot \ell \sin \alpha - F_{ishq} \cdot \ell \cos \alpha = 0$

yoki

$$\tan \alpha = \frac{F_{ishq}}{N} = \frac{mg}{\frac{mv^2}{d-h}} = \frac{(0,5d-h)}{v^2} \cdot g.$$

Oxirgi tenglamaga masalaning shartida berilgan son qiyamlar ni qo'ysak:

$$\tan \alpha = \frac{(0,5 \cdot 18 - 1)}{(20)^2} \cdot 9,81 = 0,196; \quad \alpha = 11^\circ$$

ekanligini topamiz.

Javobi: $\tan \alpha = 0,196, \quad \alpha = 11^\circ$.

5-masala. Jismlar erkin tushayotganda nima uchun vertikal dan sharqqa tomon og 'adi? Sharcha ekvatorda chuqurlig i $h=180\text{m}$ bo'lgan shaxtaga erkin tushayotganda sharqqa tomon qancha masofaga og 'adi? Shu asosda Erning inersial yoki noinersial sistema ekanligi haqidada xulosa chiqaring. Havoning qarshiligi hisobga olmang.

Berilgan: $g=10\text{m/s}^2$, $T = 24 \text{ saat} = 86400\text{s}$, $h=180 \text{ m}$.

Topish kerak: $S = ?$

Echilishi: Sharcha (vertikal) erkin tushayotganda Erga bog'langan sanoq sistemasiga nisbatan sharchaga inersiya kuchi ta'sir qiladi. Bu kuch ta'sirida sharcha sharqqa tomon ΔS masofaga og 'adi. Sharchaning og 'ishi Erning noinersial sistema ekanligini ko'satadi.

Og 'ish masofasi $S=\Delta V \cdot t$ bo'ladi. Bu erda ΔV er sirti va shaxta tubidagi nuqtalar harakat tezliklarining farqi, t - sharchaning tushishi vaqtidi.

$$\Delta v = \frac{2\pi R}{T} - \frac{2\pi(R-h)}{T} = \frac{2\pi h}{T}$$

bunda R - Erning ekvatorial radiusi, T - Erning sutkalik aylanish davri va h shaxtaning chuqurlig i $h=gt/2$ bo'lganligi uchun $t=\sqrt{2h/g}$ bo'ladi. U holda sharchaning sharqqa tomon siljishi quyidagi formuladан aniq lanadi:

$$\Delta S = \Delta S \cdot t = \frac{2\pi h \sqrt{2gh}}{gT}.$$

Hisob laymiz:

$$\Delta S = \frac{2 \cdot 3,14 \cdot 180\text{m}}{10 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 86400\text{s}} \sqrt{\frac{2 \cdot 10 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 180\text{m}}{g}} \approx 0,08 = 8\text{sm}.$$

Javobi: $S = 8 \text{ sm}$.

6-Masala. Sun'iy yo'ldosh Erdan $h=600 \text{ km}$ balandlikda ekvator tekisligida joylashgan aylaniviy orbita bo'ylab uchishi uchun Erga nisbatan sharqdan g'arbgatomon V_n tezlikka va g'arbdan sharqqa tomon qanday tezlikka ega bo'lishi kerak?

Berilgan: $g=9,8\text{m/s}^2$; $R=6400 \text{ km}=6,4 \cdot 10^6 \text{ m}$; $h=1600 \text{ km}=1,6 \cdot 10^6 \text{ m}$;

$T=24 \text{ saat} = 86400 \text{ s}$; $\gamma=6,67 \cdot 10^{-11} \text{ Nm}^2/\text{kg}^2$.

Topish kerak: $V_n = ?$ $V_H^1 = ?$

Echilishi: Sun'iy yo'ldosh Erning tortish kuchi

$$F = \gamma \frac{mM}{(R+h)^2} \quad (1)$$

ta'sirida aylana bo'ylab tekis harakat lanadi. Mazkur holda yo'ldos higa tasir qiladigan markazga intilma kuch:

$$F_{mi} = \frac{mv^2}{(R+h)}, \quad (2)$$

bu erda m , v – sun'iy yo'ldos hning massasi va tezligi, h -uning Er sirtidan balandligi. (1) va (2) formulalardan:

$$\gamma \frac{mM}{(R+h)^2} = \frac{mv^2}{R+h}, \quad (3)$$

$$(3) dan sun'iy yo'ldos hning tezligi: \quad v = \sqrt{\gamma \frac{M}{R+h}},$$

bu erda R , M – Erning radiusi va massasi.
Erkin tushish tezlanishining quyidagi formulasi:

$$g = \gamma \frac{M}{R^2} \quad \text{dan} \quad \gamma \cdot M = gR^2 \quad (4)$$

kelib chiqadi, uni (4) ga qoysak sun'iy yo'ldos h tezligi:

$$v = \sqrt{\frac{gR^2}{R+h}}. \quad (5)$$

U holda sun'iy yo'ldos hning Erga nisbatan tezligi:

$$v_H = v \pm v_0, \quad (6)$$

bunda v_0 – ekvator dagi nuqtalar ning chiziqli tezligi bo'lib, u Erning radiusi va uning sutkalik aylanish davri T ni bilgan holda quyidagi ifodadan topilishi mumkin:

$$v_0 = \frac{2\pi R}{T}. \quad (7)$$

(7) ni (6) ga qoysak sun'iy yo'ldos hning nisbiy tezligi quyidagi ifodadan topiladi:

$$v_H = \sqrt{\frac{gR^2}{R+h} \pm \frac{2\pi R}{T}}. \quad (8)$$

Hisob laymiz:

$$v_H = \sqrt{\frac{9,8 \frac{m}{s^2} \cdot (6,4 \cdot 10^6)^2 m^2}{(6,4 + 1,6) \cdot 10^6 m} \pm \frac{2 \cdot 3,14 \cdot 6,4 \cdot 10^6 m}{86400 s}} = 7 \cdot 10^3 m/s \pm 1 \cdot 10^3 m/s.$$

Shunday qilib, $v_n = 8 \cdot 10^3 m/s = 8 km/s$, $V_H^l = 6 \cdot 10^3 m/s = 6 km/s$.


NOINERSIAL SANOQ SISTEMALARIGA DOIR MASALALAR

141. Elektropezd $S=200$ m yo'lni bosib o'tib to'xtagan, vagong a osilgan shoqul esa tormozlanish vaqtida $\alpha = 5^\circ$ ga og'gan bolsa, poezdning tormozlanish boshlangan paytdagi tezligini aniqlang. Harakatni tekis sekinlanuvchan deb hisoblang.


142. Ishqalanish bo'lmaganda qiya tekislik ustida turgan jism unga nisbatan harakatsiz qolishi uchun qiyalik burchagi $\alpha = 30^\circ$ bo'lgan qiya tekislik horizontal yo'nali shda qanday tezlanish bilan harakatlanishi lozim?

143. Aylanayotgan horizontal stolcha ustida aylanish o'qidan $R = 40\text{ sm}$ uzoqlikda P og'irlikdagibor'lak jism yotibdi. Bu jism bilan stolchaning burchak tezligi qanday bo'lganda esa jism sirpana bos hlaydi?

144. Qiyalik burchagi $\alpha = 10^\circ$ bo'lgan qiya tekislik ustida jism turibdi. Qiya tekislik (24-rasm)da ko'r satilganidek horizontal yo'nalgan $\alpha = 1\text{ m/s}^2$ tezlanish bilan harakatlanmoqda. Jism sirpanib ketmasligi uchun u bilan qiya tekislik orasidagi ishqalanish koeffitsienti eng kamida qanday bo'lishi kerak? Qiya tekislikning tezlanishi teskari yo'nali shda bo'lganda-chi?



24-rasm



25-rasm

145. Gorizontal holatdagagi quvur ichida sharcha joylashgan (25-rasm). Agar quvur gorizontal yo'nali shda harakatlanganagi $a = 2,0\text{ m/s}^2$ tezlanish quvur bilan $\alpha = 45^\circ$ burchak hosil qilsa, sharcha $t = 1\text{ s}$ vaqt ichida qancha yo'lni bosib o'tadi? Sharcha bilan quvur orasidagi sirpanish ishqalanish koeffitsienti $\mu = 0,20$ deb oling.

146. Vertikal o'q atrofida aylanayotgan gorizontal disk ustida aylanish o'qidan $R = 8\text{ sm}$

masofada jism turibdi. Agar burchak tezlik $\omega = 5\text{ rad/s}$ ga etganda jism disk sirti bo'ylab sirpana boshlagan bo'lsa, disk bilan jism orasidagi ishqalanish koeffitsientini toping.

147. Velosipedchi gorizontal yo'lda radiusi 10 m bo'lgan yoy bo'ylab harakatlanmoqda. Agar uning tezligi $6,0\text{ m/s}$ bo'lsa, velosipedchi gorizontga nisbatan qanday burchakka og'adi?

148. Mototsiklchi $R = 12\text{ m}$ radiusli Silindr shakldagi binoning ichki vertikal devorida gorizontal aylana bo'ylab harakatlanishi uchun uning tezligi eng kamida qancha bo'lishi kerak? Gildirakning devorga ishqalanish koeffitsienti $\mu = 0,50$, mototsiklchi bilan mototsiklning massalari markazi devordan $\ell = 1\text{ m}$ masofada deb hisoblang.

149. Uzunligi $l_1 = 0,50\text{ m}$ bo'lgan gorizontal holatdagisi sterjen uning o'rtasidan o'tgan vertikal o'q atrofida o'zgarmas $\omega = 2,0\text{ rad/s}$ burchak tezlik bilan aylanmoqda. Sterjeng a uzunligi $l_2 = 10\text{ sm}$ bo'lgan ip bilan o'zaro bog'langan, aylanish o'qiga nisbatan simmetrik joylashgan ikkita kichik mufta kiydirilgan. Agar ip kuydirib yuborilsa, muftalar sterjen uchlariga unga nisbatan qanday tezlik bilan etib kelad? Ishqalanishni hisobga olmang.

150. Vertikal o'q atrofida aylanayotgan idishdagisi suyuqlik sirti paraboloid shaklidabolishtini isbot qiling.

151. Radiusi $R = 2\text{ m}$ bo'lgan gorizontal holatdagisi diskning o'rtasiga nishon, chetiga esa havo to'pponchasi o'rnatilgan. Disk harakatsiz bo'lganda sharcha nishonning markaziga tegadi. Disk uning markazidan o'tgan vertikal o'q atrofida o'zgarmas $\omega = 0,5 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$ burchak tezlik bilan aylananda esa sharcha

nishon markazidan $S=10$ sm masofada joylashtagan nuqtaga borib tegadi. Sharchaning tezligini toping.

152. Massasi 10^5 kg bo'lgan elektrovoz shimoqda yarim sharning 60 grad usli kengligida shimoqda janubga tomon gorizontal yo'nalihsida 30 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Elektrovoz tomonidan relslarga ta'sir qilayotgan kuchning tashkil etuvchisini toping.

153. Massasi m bo'lgan, ekvator bo'y lab V tezlik bilan sharqdan g'arbga tomon harakatlanayotgan avtomobil harakatining yo'nalihi qarama-qarshi o'zgartirilganda Er sirtiga bo'lgan bosim kuchi qanchaga o'zgarishini aniqlang.

154. $\phi=60^\circ$ geografik kenglikda jism erga $h=200$ m balandlikdan erkin tushmoqda. Erning aylanishi natijasida vujudga keladigan Koriolis kuchi ta'sirida jism qanchaga og 'ishini aniqlang.

155. Geografik kengligi $\phi=60^\circ$ bo'lgan nuqtada tik yuqoriga qarab miliqdan o'q uzuldi. Biroz vaqt dan keyin o'q Erga qaytib tushdi. Agar boshlang'ich tezligi $V=200 \text{ m/s}$ bo'lsa, o'q otish nuqtasidan qanchaga siljigan? Havoni qarshiligi hisobga olmang.

156. Leningraddagi Isaakiy soborida uzunligi 98 m bo'lgan Fuko mayat nigi o'rnatilgan. 10 min vaqt ichida mayat nikning tebranish tekisligi qanday burchakka buriladi? Leningradning geografik kengligi 60° . Masalani ikkita: noinersial va geliotsentrik sanoq sistemalarida eching.

157. Inersial sanoq sistemasiga nisbatan $\omega=10 \text{ rad/s}$ burchak tezlik bilan aylanayotgan sanoq sistemada $m=10 \text{ g}$ massali zarranining harakati kuzatilmoxda. Aylanish o'qidan $R_1=1 \text{ m}$ masofadagi nuqtadan $R_2=2 \text{ m}$ masofada turgan nuqtaga ko'chirishda zarra ustida inersiya kuchlari qanday A Ish bajaradi?

158. Uncha katta bo'limgan jism ekvator da $h=10$ m balandlikdan boshlang'ich tezliksiz tushmoqda. τ tushish vaqtida jism vertikalidan qaysi tomonga va qanday x masofaga og 'adi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin. Erning τ vaqt davomida o'z o'qi atrofida aylanishi tufayli bosib o'tgan yo'lining h balandlikdagiga va Er sirtidagi nuqtalar uchun ΔS qiymatlarini topilgan x qiymat bilantaqqoslangu.

159. $\phi=45^\circ$ kenglikda massasi $m=184 \cdot 10^3 \text{ kg}$ bo'lgan elektrovoz meridian bo'y lab $v=20 \text{ m/s}$ (72 km/sotat) tezlik bilan harakatlanmoqda. Elektrovozning relsiga berayotgan F bosim kuchining gorizontal tashkil etuvchisini toping.

160. Gorizontal joylashtirilgan disk ω burchak tezlik bilan aylanmoqda. Disk markazidan radius bo'y lab masofaning vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi $r=a\tau$ (a - doimiy kattalik) qonuniyat bilan zarra harakatlanmoqda. Disk bilan bog'langan sanoq sistemasida zarrachaga ta'sir etuvchi natijaviy kuch momenti M ni toping. Momentni diskning markaziga nisbatan ekanligini hisobga oling.

6. SUYUQLIKLAR MEXANIKASI ELEMENTLARI

Siqilmaydigan suyuqliklar uchun uzluksizlik tenglamasi:

$$\rho_1 g_1 S_1 = \rho_2 g_2 S_2.$$

Agar $\rho_1 = \rho_2$ bo'lsa, uzluksizlik tenglamasi:

$$v_1 S_1 = v_2 S_2 = \text{const}.$$

S_1 va S_2 - oqim nayining kesim yuzalari, v_1 va v_2 - S_1 va S_2 - kesimlardan o'tayotgan suyuqlik tezliklari. Oqim nayining ixtiyoriy kesimi orqali vaqt birligi ichida o'tayotgan suyuqlik hajmi (suyuqlik sarfi):

$$Q = v S.$$

Ideal suyuqlikning keng idishdag'i kichik teshikdan oqib chiqish tezligi:

$$v = \sqrt{2gh},$$

bu erda h - idishdag'i teshikning suyuqlik sathiga nisbatan chuqurligi.

Bernulli tenglamasi:

$$P + \frac{\rho v^2}{2} + \rho gh = \text{const},$$

bu erda ρ - suyuqlik zichligi, P - suyuqlikning statik bosimi, v -suyuqlik oqimining tezligi, h -trubka kesimining biror satxga nisbatan balandligi. Xajmi V bo'lgan suyuqlik P_1 bosimli S_1 kesimidan P_2 bosimli S_2 kesimiga o'tganda tashqi bosim tomonidan bajarilgan ish:

$$A = (P_2 - P_1)V.$$

Laminar oqimda suyuqlikka botirilgan jismga ta'sir etadigan peshona qarshiligi:

$$F = r\eta v,$$

bu erda r - jismning shakli va o'lchamiga bog'liq bo'lgan koeffitsient, η - yopishqoq muhitda harakat qilayotgan sharga ta'sir etadigan qarshilik kuchi (Stoks formulasi):

$$F = 6\pi R \eta v,$$

bu erda R - shar radiusi.

Laminar oqish paytida uzunligi ℓ va radiusi R bo'lgan truba orqali t vaqt ichida oqib o'tayotgan suyuqlik xajmi Puazeyl formulasi yordamida topiladi:

$$V = \frac{1}{\eta} \frac{\pi R^2}{B\ell} \Delta P t,$$

bu erda ΔP - quvur (truba)uchlaridagi bosimlar farqi. Turbulent oqimda unchalik katta bo'limgan tezliklarda peshona qarshilik:

$$F = C_x S \rho v^2,$$

bu erda C_x - jism shakliga va Reynolds soniga bo'lgan peshona qarshilik koeffsienti. S-jismning oqim tezligiga perpendikulyar tekislikka proeksiyasining izi (Midel kesimi deyiladi). ρ - muhitning zichligi.

Reynolds soni:

$$Re = \frac{\rho p - v}{\eta},$$

bu erda ℓ -jismning chiziqli o'lchamlarini xarakterlovchi kattalik.

SUYUQLIKLAR MEXANIKASIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-Masala. Polga balandligi $h=1,5$ m bo'lgan silindrik idish o'rnatilib, u suv bilan to'ldirilgan. Idish devoridagi teshikchadan oqib chiqadigan suv idishning yon sirtidan eng uzoq masofaga borib tushishi uchun bu teshik poldan qanday balandlikda bo'lishi kerak?

Berilgan: $h = 1,5$ m.

Topish kerak: $h_1 = ?$

Echilishi: Teshikdan oqib chiqayotgan suv oqimining tezligini Bernulli tenglamasiiga asosan topamiz?

$$P + \rho gh + \frac{1}{2} \rho v^2 = P_1 + \rho gh_1 + \frac{1}{2} \rho v_1^2.$$

Biz echayotgan masalada $P = P_1$, $v \approx 0$, shuning uchun

$$\rho gh = \rho gh_1 + \frac{1}{2} \rho v_1^2, \quad \text{bundan} \quad v_1 = \sqrt{2g(h-h_1)}.$$

Oqimdagisi suyuqlik zarrasining harakatini murakkab harakatlardan tashkil topgan deb hisoblaymiz.

Suyuqlik zarrasi erga borib tushish uncha ℓ masofani bosib o'tadi, ya'ni

$$\ell = v_1 t = \sqrt{2g(h-h_1)} t, \quad (1)$$

bunda t - zarrani erga tushish vaqtisi.

$$h_1 = \frac{gl^2}{2}. \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamalardan quyidagi ilar ni topamiz:

$$t = \sqrt{\frac{2h_1}{g}}, \quad \ell = 2\sqrt{h_1(h-h_1)}.$$

ℓ dan h_1 bo'yicha olingan hosilani nolga tenglashtirsak, ℓ ning maksimal qiymatini topamiz:

$$\frac{d\ell}{dh_1} = \frac{h - 2h_1}{\sqrt{h_1(h-h_1)}} = 0,$$

b undan $h - 2h_1 = 0$, $h_1 = h/2 = 0,75 \text{ m}$.

Javobi: $h = 0,75 \text{ m}$.

2-Masala. Diametri $0,3 \text{ mm}$ bo'lgan yomg'ir tomchisining eng katta tezligi topilsin. Havoning yopishqoqlik koeffitsienti $1,2 \cdot 10^{-5} \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \text{s}}$.

Berilgan: $\eta = 1,2 \cdot 10^{-5} \text{ kg/m}$, $d = 2r = 0,3 \text{ mm}$.

Topish kerak: $v = ?$

Echiishi: Tomchi harakatiga havoning ko'ssatadigan qarshilik kuchi uchun Stoks formulasi:

$$F = 6\eta rv.$$

Bu kuch tomchi og'irligiga teng bo'lgandan keyingina, tomchi tekis harakat qila boshlaydi (havoning ko'tarish kuchi kichik bo'lgani uchun, uni hisobga olmaymiz).

Modda zichligi $\rho = \frac{m}{V}$ va $P = mg$ larda:

$\rho = 1 \cdot 10^3 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$ - suv zichligi va $V = \frac{4}{3}\pi r^3$ tomchining hajmi. Shunday qilib, tomchining harakat tezligi:

$$v = \frac{mg}{6\pi\eta r} = \frac{\frac{4}{3}\pi r^3 \rho g}{6\pi\eta r} = \frac{4\rho r^2 g}{18\eta} = \frac{\rho gd^2}{18\eta},$$

Hisoblaymiz:

$$v = \frac{1 \cdot 10^3 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \cdot 9,81 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 9 \cdot 10^{-8} \text{m}^2}{18 \cdot 1,2 \cdot 10^{-5} \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \text{s}}} = 0,45 \frac{\text{m}}{\text{s}}.$$

Javobi: $v = 0,45 \text{ m/s}$.

3-Masala. Kesimi trapetsiya shaklida bo'lib, asoslari 300 m , 500 m va balandligi 50 m bo'lgan to'g'ong a suv qanday bosim kuchi bilanta'sir qilad?

Berilgan: $a = 300 \text{ m}$, $v = 500 \text{ m}$, $h = 50 \text{ m}$.

Topish kerak: $F = ?$

Echilishi: Ma'lumki, bosim kuchi $F = P \cdot S$. To'g'on trapetsiya shakliga ega bo'lgani uchun, uning yuzi $S = \frac{a+b}{2} \cdot h$. Bosim P esa atmosfera bosimi P_0 bilan suvning to'g'onga bo'lgan o'rtacha bosimi ya'nini to'g'on tubiga ta'sir etuvchi bosimning yarmining yig'indisiga teng.

$$P = P_0 + \frac{\rho \cdot g \cdot h}{2},$$

bundar $= 101 \text{ kPa}$ – atmosfera bosimi, $\rho = 1 \cdot 10^3 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$ – suv zichligi. To'g'ong a ta'sir etuvchi bosim kuchi:

$$F = \left(P_0 + \frac{\rho g h}{2} \right) \cdot S \quad \text{yoki} \quad F = \left(P_0 + \frac{\rho g h}{2} \right) \frac{a+b}{2} \cdot h.$$

Hisob laymiz:

$$F = \left(1,01 \cdot 10^5 \frac{\text{N}}{\text{m}^2} + \frac{1 \cdot 10^3 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \cdot 9,8 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 50 \text{m}}{2} \right) \frac{500 + 300 \text{m}}{2} \cdot 50 \text{m} = 693 \text{ MN}.$$

Javobi: $F = 693 \text{ MN}$.

4-Masala. Diametri $0,5 \text{ m}$ bo'lgan trubadan sekundiga $0,6 \text{ m}^3$ suv oqmoqda. Agar suv temperaturasi 40°C bo'lsa, Reynolds soni topilsin. Oqim laminar oqimmi yoki turbulentmi?

Berilgan: $t = 40^\circ\text{C}$, $d = 0,5 \text{ m}$, $V = 0,6 \text{ m}^3/\text{s}$.

Topish kerak: $Re = ?$

Echilishi: Avvalo suv oqimining o'rtacha tezligini hisob laymiz:

$$V = S \cdot v, \quad v = \frac{V}{S} = \frac{4V}{\pi \cdot d^2} = \frac{4 \cdot 0,6 \text{ m}^3/\text{s}}{3,14 \cdot 0,25 \text{ m}^2} = 3,06 \frac{\text{m}}{\text{s}}.$$


Fizik kattaliklar berilgan temperatura 40°C uchun suvning yopishq oqlik koefficineti $\eta = 655 \cdot 10^{-6} \frac{\text{kg}}{(\text{m} \cdot \text{s})}$ – ekanligini bilgan holda Reynolds sonini hisob laymiz:

$$Re = \frac{\rho \cdot v \cdot d}{\eta} = \frac{1 \cdot 10^3 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \cdot 3,06 \frac{\text{m}}{\text{s}} \cdot 0,5 \text{m}}{655 \cdot 10^{-6} \frac{\text{kg}}{\text{m} \cdot \text{s}}} = 2,33 \cdot 10^6.$$

Javobi: $Re = 2,33 \cdot 10^6$ oqim turbulent chunki $Re > 2300$.

5-Masala. 26-rasmda sarflanayotgan suyuqlik miqdori Q ni (nayning ko'ndalang kesimidan vaqt birligida oqib o'tgan suyuqlik massasini) aniqlashga imkon beradigan asbobning sxemasi tasvirlangan.

Agar $h=5$ sm, $S_1=10$ sm 2 , $S_2=6$ sm 2 , $\rho=0,8$ g/sm 3 bo'ssa, sarflanayotgan suyuqlik miqdori Q aniqlansin.



26-rasm

Berilgan: $h=5$ sm, $S_1=10$ sm 2 , $S_2=6$ sm 2 , $\rho=0,8$ g/sm 3 , $g=9,81$ sm/s 2 .

Topish kerak: $Q=?$

Echilishi: Sarflanayotgan suyuqlik miqdori $Q=S_1v_1 \cdot \rho$. Tezlik v_1 ni Bernulli tenglamaidan topamiz. Bu tenglama gorizontal nay uchun quyidagiicha yoziladi:

$$p_1 + \frac{1}{2} \rho v_1^2 = p_2 + \frac{1}{2} \rho v_2^2$$

yoki

$$p_1 - p_2 = \frac{1}{2} \rho (v_2^2 - v_1^2). \quad (1)$$

$S_1v_1 = S_2v_2$ ekanligidan quyidagi ilar ni topamiz:

$$v_2 = \frac{S_1 v_1}{S_2} \quad \text{va} \quad v_2^2 = \frac{S_1^2}{S_2^2} \cdot v_1^2. \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamalarni bir-biriga taqqoslasak:

$$p_1 - p_2 = \frac{1}{2} \rho \cdot \left(\frac{S_1^2}{S_2^2} v_1^2 - v_1^2 \right) = \frac{1}{2} \rho v_1^2 \left(\frac{S_1^2}{S_2^2} - 1 \right).$$

Bir oq $r_1 - r_2 = \rho g h$.

Shuning uchun quyidagi ifodani topamiz:

$$\frac{1}{2} \rho v_1^2 \left(\frac{S_1^2}{S_2^2} - 1 \right) = \rho \cdot g \cdot h.$$

Bundan

$$v_1^2 = \frac{2ghS_2^2}{S_1^2 - S_2^2} \quad \text{va} \quad v_1 = S_2 \sqrt{\frac{2gh}{S_1^2 - S_2^2}}. \quad (3)$$

$$Q = S_1 v_1 \rho. \quad (4)$$

(3) ni (4) ga qo'yساқ:

$$Q = S_1 S_2 \rho \sqrt{\frac{2gh}{S_1^2 - S_2^2}}$$

kelib chiqadi.

$$\text{Hisob laymiz: } Q = 10 \cdot 8 \cdot 0,8 \sqrt{\frac{2 \cdot 980 \cdot 5}{100 - 36}} \approx 592 \frac{\text{g}}{\text{s}} = 0,592 \frac{\text{kg}}{\text{s}}.$$

Javobi: $Q=0,592 \text{ kg/s}$.

SUYUQLIKLAR MEXANIKASIGA DOIR MASALALAR

161. Tepkisi bosilganda ot ilmasligi uchun $d=7 \text{ mm}$ kalibrli havo pistoletini suvgaga qanday chuqurlikka bortirish kerak? Pistolet stvolining uzunligi $L=22 \text{ sm}$, o'qning massasi $m = 17 \text{ g}$, havoda otilganda o'qning stvoldan chiqish paytidagi tezligi $V=27 \text{ m/s}$ deb oling.

162. Hajmi $2,4 \text{ m}^3$ bo'lgan temir-beton plitani $0,5 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan suvdan ko'tarib olinayotgandagi tros tarangligini aniqlang. Peshona qarshilikni hisobga olmang. Temir-betonning zichligini $\rho=2,2 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ deb oling.

163. Massasi $m=5 \cdot 10^3 \text{ kg}$ bo'lgan yukni ko'tarishda kichik porshent $t=1,5 \text{ min}$ vaqt ichida $n=100$ yurish qilgan bo'lsa, porshenlarning yuzlari $1:100$ nisbatda bo'lgan g'idravlik pressni harakatga keltiruvchi dvigatelning FIK ni toping. Kichik porshenning yurishi $h=20 \text{ sm}$. Dvigatelning quvvati $N=2 \text{ kVt}$.

164. Biri yaxlit ikkinchisi esa kovak bo'lgan aluminiy va mis sharlar ni elkalari teng bo'lmanan richakka osib, havoda muvozanatga keltiriigan. Agar sharlar ni suvli idishga bortirilganda muvozanat buzilmagan bo'lsa, sharlardan qaysi biri kovak ekanligini aniqlang. Agar mis sharning massasi $m=0,4 \text{ kg}$ bo'lsa, kovakning hajmini toping.

165. Simob bilan suv quyilgan idishga po'lat sharcha tashlangan. Sharcha hajmining qancha qismi suvdab o'ladi?

166. Massasi $m_1=60 \text{ kg}$ bo'lgan odamning boshi va elkalari (hajmining) $n=1/8$ qismini suvgaga bortmaydigan holda tutib tura oladigan po'kak belbog' massasini aniqlang. Odam tanasining zichligini $\rho_1=1007 \text{ kg/m}^3$ deb oling.

167. Suvli idish yuqoriga yo'nalgan $a=1,2 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan vertikal ravishda harakat qilmoida. $h=0,2 \text{ m}$ chuqurlikdagibosimni aniqlang.

168. Suvda suzib yurgan $V=50 \text{ dm}^3$ hajmli po'kak belboqqa bog'langan ipga temir yuk osilgan. Agar belbog' hajmining $1/2$ qismi suvgaga bortgan bo'lsa, yukning massasi va ipning tarangligini toping.

169. Sisternasi benzin bilan to'ldirilgan benzin tashuvchi avtomobil $V=36 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakatlangan va tormozlanish natijasida $t=10 \text{ s}$ vaqt ichida to'xtagan. Sisternani uzunligi $L=3 \text{ m}$ bo'lgan to'g'ri burchakli parallelopiped deb hisoblab tormozlanish vaqtida Sisternaning oldingi devoriga ta'sir etadigan bosim kuchi orqa devoriga ta'sir etayotgan bosim kuchidan necha marta katta ekanligini toping. Cesternaning benzin bilan to'ldirilish balandligi $h=0,5 \text{ m}$.

170. To'g'ri burchakli qilib bukilgan $S=4,0 \text{ sm}^2$ kesimli quvur (truba) dan suv oqib turibdi. Agar suvning har sekunddag'i sarfi $Q=2,0 \text{ kg/s}$ bo'lsa, quvurga suv qanday kuch bilan ta'sir qiladi?

171. Agar avtomobilning old sirti yuzasi $3,0 \text{ m}^2$ bo'lsa, u 144 km/s tezlik bilan harakatlanayotganda urilayotgan havo oqimi qanday qarshilik ko'ssatadi? Peshona qarshilik koeffitsienti $S_x=0,6$ deb oling.
172. Mototsiklchi ro'paradan $v_1=10 \text{ m/s}$ tezlikda shamol esayotganda $v_2=20 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakatlangan bo'lsa, mototsikl d'vigatelinig quvvati qanday bo'lgan? Mototsiklchining mototsikl bilan birligida massasi $m=200 \text{ kg}$, ishqalanish koeffitsienti $\mu=0,20$, old sirtining umumi yuzasi $S=1,2 \text{ m}^2$, deb oling.
173. Agar elektropoezd old sirtining yuzasi 10 m^2 bo'lsa, u 100 km/s tezlik bilan harakatlanayotganda urilayotgan havo oqimining quvvatini toping.
174. Gorizontal joylashtigan o'zgaruvchan kesimli quvur orqali minutiga 2 m^3 hajmli suv o'tmoqda. Diametrleri $0,3$ va $0,1 \text{ m}$ bo'lgan kesimlarda joylashtigan manometrik trubkalardagi suv satilar farqini toping.
175. Yurakning har bir urishida chap qorinchesasi qisqarib $m=70 \text{ g}$ massali qonni $r=26 \text{ kPa}$ bosim ostida aortaga haydab chiqarsa, $t=1 \text{ min}$ vaqt ichida taxminan $n=75$ marta qisqaradigan yurakning quvvatini toping.
176. Radiusi $0,50 \text{ mm}$ bo'lgan shisha sharcha glitserin quyligan katta idish ichida $5,0 \text{ sm/s}$ barqaror tezlik bilan tushib bormoqda. Agar shishaning zichligi $2,7 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$, glitserinning zichligi esa $1,2 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ bo'lsa, glitserinning yopish qoligini toping.
177. Havoda 10 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan $0,5 \text{ m}$ diametrli sharchaga qanday qarshilik kuchi ta'sir qiladi? Shar uchun peshona qarshilikning koeffitsientini $S_x=0,25$ deb oling.
178. Diametri $2,0 \text{ sm}$ bo'lgan quvurdagi suv oqimi laminarligicha qolishi uchun uning tezligi eng ko'pi bilan qancha bo'lishi mumkin? Truba uchun Reynolds sonining kritik qiyomi taxminan 3000 deb oling. Diametri $0,10 \text{ sm}$ bo'lgan quvurdagi mazkur oqim tezligi qanday bo'lishi mumkin?
179. $h=200 \text{ km}$ balandlikda atmosferaning zichligi $\rho=1,6 \cdot 10^{-10} \text{ kg/m}^3$. Shu balandlikda ko'ndalang kesimi $S=0,50 \text{ m}^2$ va massasi $m=10 \text{ kg}$ bo'lgan sun'iy yo'ldoshiga ta'sir qiladigan qarshilik kuchini aniqlang.
180. Idishga bir-biriga aralashmaydigan, zichliklari ρ_1 va ρ_2 bo'lgan ideal suyuqliklar quyligan. Suyuqliklar mos ravishda h_1 va h_2 qatlamlarni hosil qiladi. Suyuqlikning yuqori sirtidan idishga sharcha tushirilib yuboriladi. Agar idish tubiga etib borganda sharchaning tezligi nolga teng bo'lsa, sharcha yasalgan muddanining zichligini toping.

7. NISBIYLIK NAZARIYASI ELEMENTLARI

Maxsus nisbiylik nazariyasida faqat inersial sanoy sistemalar ko'rib chiqiladi.

Biror nisbiy tinchturgan sistemaga unga nisbatan X o'qi bo'ylab V tezlik bilan harakatlanayotgan sistemdan o'tish uchun Lorenzning koordinatalari va vaqt almashtirish formulalarini.

$$\vec{X} = \frac{\vec{X}' + v_0 \vec{t}'}{\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}}, \quad y = y', \quad z = z', \quad t = \frac{t' + \frac{x' v}{c^2}}{\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}},$$

Bu erda v_0 , $-K'$ sanoq sistemasining K inersial sanoq sistemasiga nisbatan OX o'q yo'nalishidagi to'g'ri chiziqli tekis harakat tezligi, c – yorug'likning vakuumda qidirilgisi.

Harakatlanayotgan jism sterjen uzunligining relyativistik (Lorenz) qisqarishi:

$$l = l_0 \sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}} = \sqrt{1 - \beta^2},$$

ℓ_0 -biror sistemada tinch turgan sterjen uzunligi. Agar bu sistema K sistemaga nisbatan V_0 tezlik bilan harakat qilsa, u holda K sistemadagi kuzatuvchi uchun sterjen uzunligi yuqoridaq formuladan topiladi. Bunda $\beta = \frac{v_0}{c}$ gateng.

Nisbiy tinch sistemadagi vaqt o'zgarishi ($\tau = t_2 - t_1$) bilan unga nisbatan V_0 tezlik bilan harakat qilayotgan sistemadagi relyativistik vaqtning sekinlashtuvi (o'zgarishi $\tau^1 = t_2^1 - t_1^1$) orasidagi bog'lanish:

$$\tau = \frac{\tau^1}{\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}} = \frac{\tau^1}{\sqrt{1 - \beta^2}}.$$

Tezliklar ni relyativistik qo'shisidagi:

$$v = \frac{v^1 - v_0}{1 + \frac{v_0 v^1}{c^2}},$$

Bu erda v' – K inersial sanoq sistemasiga nisbatan v_0 tezlik bilan OX o'q yo'nalishida to'g'ri chiziqli tekis harakatlanayotgan K' sanoq sistemasidagi moddiy nuqtaning OX yo'nalishidagi harakat tezligi, v – mazkur moddiy nuqtaning K sanoq sistemasidagi tezligi.

Relyativistik massa:

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}} = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \beta^2}},$$

Bu erda m_0 – jismning tinch holatdagi massasi, $\beta = v_0/c$, m – jismning harakatdagi massasi.

Relyativistik impuls:

$$p = m_0 v = \frac{m_0 v}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} = \frac{m_0 v}{\sqrt{1 - \beta^2}}$$

yoki

$$p = m_0 c = \frac{\beta'}{\sqrt{1 - \beta^2}}.$$

Nyut on ikkinchi qonunining relyativistik ko'rinishi:

$$F = \frac{d}{dt} \left(\frac{m_0 v}{\sqrt{1 - \beta^2}} \right).$$

Tinch holatda jism energiyasi: $E_0 = m_0 c^2$.

Jismning to'liq relyativistik energiyasi:

$$E = mc^2 = m_0 c^2 + E_k,$$

bu erda E_k – jismning kinetik energiyasi.

Nisbiylik nazariyasida jismning kinetik energiyasi:

$$E_k = mc^2 - m_0 c \quad \text{yoki} \quad E_k = m_0 c^2 \left[\frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}} - 1 \right].$$

Sistema massasining Δm miqdorga o'zgarishi sistema energiyasining

$$\Delta E = \Delta m c^2$$

o'zgarishiga mos keladi.

Relyativistik energiya va impuls orasidagi munosabat:

$$E = \sqrt{p^2 c^2 + (m_0 c^2)^2},$$

$$p = \frac{1}{c} \sqrt{E_b (E_b + 2E_0)}.$$

NISBIYLIK NAZARIYASI ELEMENTLARIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1–Masala. Protonning bo'yylama o'lchamlari ikki marta kamayishi uchun u qanday tezlatuvchi potensiallar ayirmasini o'tishi kerak?

Berilgan: $K = \frac{\ell_0}{\ell} = 2$

Topish kerak: $U = ?$

Echilishi: Agar proton nisbiy tinch holatda bo'lsa, u shar shaklidagi bo'lib, eni va bo'yisi bir xil bo'ladi. Agar proton katta tezlik bilan harakatlansa, nisbiylik nazariyasiga asosan, uning geometrik o'lchamlari o'zgarib, u ellips shaklini egallaydi (27-rasm).



27-rasm

Masala shartiga ko'ra $K = \frac{\ell_0}{\ell} = 2$, lekin

$\ell = \ell_0 \sqrt{1 - \beta^2}$ bo'lgani uchun $K = \frac{\ell_0}{\ell} = \frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}}$. Ildiz ostidagi ifodani topish uchun potensiallar ayirmasini o'tganda proton olgan energiyasini kinetik energiyaga teng laymiz: $A = E_k$.

Demak, $du = m_0 c^2 \left(\frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}} - 1 \right) d\beta$ yoki $eu = m_0 c^2 (K - 1)$. Bundan

$u = \frac{m_0 c^2}{e} \cdot (K - 1)$ proton uchun $m_0 = 1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$, $e = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ – uning zaryadi. Shunday qilib, protonlar potensiallar ayirmasi:

$$u = \frac{1,67 \cdot 10^{-27} \text{ C} \cdot 9 \cdot 10^{16} \frac{\text{m}^2}{\text{s}^2}}{1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}} (2 - 1) = 9,4 \cdot 10^8 \text{ V} = 940 \text{ MV}.$$

Javobi: $u = 940 \text{ MV}$.

2-masala. Kinetik energiyasi 8 nj bo'lgan proton tezligi va impulsi topilsin.

Berilgan: $E_k = 8 \text{ nj} = 8 \cdot 10^{-9} \text{ J}$.

Topish kerak: $v_0 = ?$ $P = ?$

Echilishi: Zarra energiyasi katta bo'lganda uning massasi tezlikka bog'liq bo'lgani uchun zarraning kinetik energiyasi

$$4 E_k = m_0 c^2 \left(\frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}} - 1 \right).$$

Bundan $\sqrt{1 - \beta^2} = \frac{m_0 c^2}{E_k + m_0 c^2}; \beta = \frac{v_0}{c}$.

Bu ifodaga $m_0 = 1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$, $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$, $E_k = 8 \cdot 10^{-9} \text{ J}$ larni qo'yib, protonning harakat tezligini hisoblaymiz.

$$\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}} = \frac{1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg} \cdot 9 \cdot 10^{16} \frac{\text{m}^2}{\text{s}^2}}{8 \cdot 10^{-9} \text{ J} + 1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg} \cdot 9 \cdot 10^{16} \frac{\text{m}^2}{\text{s}^2}} = 1,84 \cdot 10^{-2},$$

$$1 - \frac{v_0^2}{c^2} = 3,386 \cdot 10^{-4}, \text{ bundan } v_0 = 0,999c, v_0 = 2,997 \cdot 10^8 \frac{\text{m}}{\text{s}}.$$

Prot onning impulsi:

$$p = m_0 v_0 = \frac{m_0 v_0}{\sqrt{1-\beta^2}} = \frac{1,67 \cdot 10^{-27} \text{kg} \cdot 0,999 \cdot 3 \cdot 10^8 \frac{\text{m}}{\text{s}}}{\sqrt{1-0,999^2}} = 2,72 \cdot 10^{-17} \text{N} \cdot \text{s}.$$

Javobi: $v_0 = 0,999c = 2,997 \cdot 10^8 \text{ m/s}; r = 2,72 \cdot 10^{-17} \text{ N} \cdot \text{s}$.

3-masala. Radioaktiv yadro, zarralar tezlatkichini o'tgach, 0,4c tezlikka erishgan. Yadro tezlatkichdan chiqayotganda o'z yo'nalishi bo'yicha tezlat kichga nisbatan 0,7c tezlik bilan harakatlanayotgan β -zarra chiqaradi. β -Zarraning yadroga nisbatantezligi topilsin.

Berilgan: $v_0 = 0,7c, v' = 0,4c$.

Topish kerak: $v = ?$

Echish kerak: Eynsh teynning nisbiylik nazariyasiga ko'ra tezliklar ni qo'shish qonuni

$$v' = \frac{v + v_0}{1 + \frac{v \cdot v_0}{c^2}}.$$

Bunda v' – nisbiy tinch holatdagi sanoq sistemasiga nisbatan zarraning tezligi, ya'ni masala shartida β – zarraning tezlat kichga nisbatan tezligi, v – o'sha zarraning harakatdagi sanoq sistemasiga nisbatan tezligi, ya'ni β – zarraning yadroga nisbatan tezligi, v_0 – harakatdagi sanoq sistema tezligi – yadroning tezlat kichga nisbatan tezligi. Masala shartiga ko'ra $v' = 0,7c, V = 0,4c$ bo'lub, v ni aniqlash kerak. Shuning uchun yuqorida tenglamanini v ga nisbatan echamiz:

$$v = \frac{v' - v_0}{1 - \frac{v_0 \cdot v'}{c^2}} = \frac{0,7c - 0,4c}{1 - \frac{0,4 \cdot 0,7c^2}{(3 \cdot 10^8 \frac{\text{m}}{\text{s}})^2}} = 0,5c = 1,5 \cdot 10^8 \frac{\text{m}}{\text{s}}.$$

Javobi: $v = 1,5 \cdot 10^8 \text{ m/s}$.

NISBIYLIK NAZARIYASI ELEMENTLARIGA DOIR MASALALAR

- 181.** Sterjen o'zgarmas v tezlik bilan harakatlanmoqda. Uning qo'zg'almas sistemadagi uzunligi $l_1 = 3 \text{ m}$, sterjen, bilan bog'liq bo'lgan sistemada esa $l_2 = 6 \text{ m}$. Sterjenning xususiy uzunligi va qo'zg'almas sanoq sistemasiga nisbatantezligini toping.

182. Erning Quyosh atrofidagi harakat tezligi $v=30 \text{ km/s}$. Er diametrining Quyosh bilan bog'liq bo'lgan sistemadagi qisqarishini toping.
183. Reaktiv samolyot 1000 m/s tezlik bilan uchmoqda. Samolyotdagi soat Erdagi soatdan qancha orqada qoladi?
184. Egizaklardan biri 20 yoshida raketada Arktur yuldizi tomon U = $0,99c$ tezlik bilan kosmik sayohatga chiqdi. Erdagi odamlar uchun Arktur yuldiziga bo'lgan masofa $40 \text{ yorug'lik yiliga teng}$ (ya'ni yorug'lik yuldizdan Erga $40 \text{ yilda etib keladi}$). Kosmik sayohatchi Erda qolgan ukasidan necha yosh kichik bo'ladi?
185. Lorents almashtirishlaridan foydalanib tezliklarni qo'shishning relyativistik qonunini keltirib chiqaring.
186. Nisbiylik nazariyasining tezliklarni qo'shish formulasidan foydalanib tezliklarni qo'shish hech qachon yorug'lik tezligidan katta tezliklarga olib kelmasligini isbotlang.
187. Erga tomon v tezlik bilan harakatlanayotgan yuldiz tomonidan nurlantirilayotgan foton Erga c+v tezlik bilan emas, balki c tezlik bilan yaqinlashishini isbotlang.
188. Erdan una nisbatan $0,8c$ tezlik bilan qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan ikki raketa uzoqlashmoqda. Raketalardan biri ikkinchisi bilan bog'liq bo'lgan sanoq sistemasida qanday tezlik bilan harakat qiladi?
189. Tezlatgich radioaktiv yadroga $v=0,4c$ tezlik beradi. Tezlatgichdan chiqish paytda yadro o'z harakati yo'nalishida tezlatgichga nisbatan $0,75c$ tezlikka ega bo'lgan β -zarracha chiqargan. Zarrachaning yadroga nisbatan tezligini toping.
190. Erdan 30 yoshida $20 \text{ yorug'lik yiliga teng}$ masofaga uchib ketgan kosmonavt Erdagi soatga ko'ra necha yoshga kiradi? Kosmonavtning soati bo'yicha u 35 yoshga kirgan deb hisoblang.
191. $v=0,999c$ tezlik bilan harakatlanayotgan elektronning relyativistik massasi uning tinchlikdagi massasidan necha marta katta bo'ladi?
192. Harakatlanayotgan protonning relyativistik massasi uning tinchlik-dagi massasidan 10^2 marta ortiq. Harakatdagi protonning tezligini toping.
193. $150,0 \text{ Mm/s}$ tezlik bilan harakatlanayotgan elektronning kinetik energiyasining tinchlikdagi energiyasiga nisbatini toping. Elektronning relyativistik impulsi qanday bo'ladi?
194. Energianing $1,0 \text{ j}$ o'zgarishi massasining qanday o'zgarishga mos keladi?
195. Atmosferaning yuqori qatlamlarida hosil bo'lgan P-mezonning energiyasi 6 GeV ga teng bo'lib, unga bog'langan sanoq sistemasida uning o'rtacha yashash davri 26 ns . P-mezzonning massasini $273 \text{ mega teng deb olib}$, uning laboratoriya sanoq sistemasida yashash vaqtini aniqlang.
196. Raketa $v=120 \text{ Mm/s}$ tezlik olish uchun $m_0=1,5 \text{ T}$ massali raketaga qanday kinetik energiya mos kelishini aniqlang.
197. Ionlashtirish atom tezlatgichdan $0,85c$ tezlik bilan uchib chiqib, u o'z harakati yo'nalishida o'zidan foton uchirib chiqaradi. Fotonning tezlatgichga nisbatan tezligi aniqlansin.
198. Tinchlikdagi massasidan harakatdagi massasi 3 marta katta bo'lgan elektronning kinetik energiyasini elektron-volt (eV) larda aniqlang.
199. Kinetik energiyasi $T=1 \text{ GeV}$ ga teng bo'lgan elektronning relyativistik impulsini aniqlang.
200. Zarracha $v=0,8c$ tezlik bilan harakatlanmoqda. Zarrachaning relyativistik massasini tinchlikdagi massasiga nisbatini aniqlang.

II. MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA

1. IDEAL GAZ QONUNLARI

Har qanday muddaning bir mol miqdori dagi molekula yoki atomlar soni bir xil bo'ladi, bu son Avogadro soni deb ataladi:

$$N_A = 6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}.$$

Mudda miqdori v (nyu) ni yoki mollar sonini quyidagi ifodalardan foydalanib topish mumkin:

$$v = \frac{N}{N_A}, \quad v = \frac{m}{M},$$

bunda M – molar massasi, N_A – Avogadro soni, m – mudda massasi, N – shu muddadagi atom yoki molekulalarning soni. M-massali gaz holatini hajm (V), bosim (P), temperatura (T) kabi termodynamik parametrlar bilan xarakterlash mumkin. T – absolyut temperatura Selsiy shkalasi bo'yicha olingan temperatura bilan quyidagicha bog'langan:

$$T = 273,15 \text{ }^{\circ}\text{C} + t \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

Boyl – Mariott qonuni ($m = \text{const}$, $T = \text{const}$):

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{V_2}{V_1} \quad \text{yoki} \quad P_1 V_1 = P_2 V_2, \quad PV = \text{const}.$$

O'zgarmas temperaturada sodir bo'lувчи jarayonga izotermik jarayon deb ataladi.

Gey – Lyussak qonuni ($m = \text{const}$, $r = \text{const}$):

$$\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2} \quad \text{yoki} \quad \frac{V}{T} = \text{const}.$$

Sharl qonuni ($m = \text{const}$, $V = \text{const}$):

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_2}{T_2} \quad \text{yoki} \quad \frac{P}{T} = \text{const}.$$

Klap eyron tenglamasi ($m = \text{const}$):

$$\frac{PV}{T} = \text{const}.$$

Mendeleev – Klap eyron tenglamasi:

$$PV = \frac{m}{M} RT,$$

bunda $v = \frac{m}{M}$ – gaz miqdori, $R = 8,31 \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$ – gaz universal doimisi.

Dalton qonuni: $P = P_1 + P_2 + P_3 + \dots$

Gazlar aralashmasidagi mollar soni:

$$V = \frac{m}{M} = \frac{m_1}{M_1} + \frac{m_2}{M_2} + \frac{m_3}{M_3} + \dots$$

Bunda $m = m_1 + m_2 + m_3 + \dots$ – aralashma massasi, M – gazlar aralashmasining molar massasi, $m_1, m_2, m_3 \dots$ – aralashmani tashkil etuvchi gaz massalari va $M_1, M_2, M_3 \dots$ – ularning molar massalari.

Bitta molekulaning massasini topish uchun molar massani Avogadro soniga bo'lish kerak:

$$m_0 = \frac{M}{N_A}.$$

Berilgan gaz massasidagi molekulalar sonini quyidagi tenglamalardan topish mumkin:

$$N = \frac{m}{M} \cdot N_A; \quad N = \frac{pV}{RT} \cdot N_A$$

Hajm birligida molekulalar soni yoki konsentratsiya:

$$n_0 = \frac{N}{V}, \quad n_0 = \rho \frac{N_A}{M}, \quad n_0 = \frac{N_A}{V_0}.$$

$V_0 = 22,4 \text{ m}^3/\text{kmol}$ – 1 kmol gazning normal sharoitdag'i hajmi.

Gaz zichlig'i:

$$\rho = \frac{m}{V}, \quad \rho = \frac{pM}{RT}.$$

2. MOLEKULYAR KINETIK NAZARIYA ASOSLARI

Massasi m_0 va o'ttacha kvadratik tezligi $\langle v_{kv}^2 \rangle$ bo'lgan bitta molekulaning o'ttacha kinetik energiyasi:

$$\langle E_k \rangle = \frac{m_0 \langle v_{kv}^2 \rangle}{2}.$$

Molekulalar ilgarilanma harakatining o'ttacha kinetik energiyasi faqat absolyut temperaturaga to'g'ri proporsionaldir:

$$\langle E_k \rangle = \frac{3}{2} kT,$$

bunda k – Boltzman doimisi bo'lib, u gaz universal doimisi R ning Avogadro soni ($N_A = 6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$) ga nisbatiga teng:

$$k = \frac{R}{N_A} = \frac{8,31 J / (\text{mol} \cdot \text{K})}{6,025 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}} = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}.$$

Normal sharoitdag'i 1 m^3 gaz hajmidagi molekulalar soni – Loschmidt soni:

$$N_l = \frac{P_0}{kT_0} = 2,69 \cdot 10^{25} \text{ m}^{-3}.$$

Bitta molekulaning o'rtacha t'o'liq kinetik energiyasi:

$$\langle E_k \rangle = \frac{1}{2} k T.$$

Bu ifoda Avogadro soni N_A ga ko'paytirilsa, 1 mol ideal gazning ichki energiyasini hisoblash formulasi kelib chiqadi:

$$U_o = \langle E_k \rangle N_A = \frac{1}{2} k N_A T = \frac{1}{2} RT.$$

Istalgan m massali ideal gazning ichki energiyasi:

$$U = \frac{m}{M} U_o = \frac{m}{M} \cdot \frac{1}{2} RT.$$

Gaz molekulalarining idish devorlariga bergan bosimi:

$$R = \frac{2}{3} n \cdot \frac{m_0 \langle v_{\text{kg}}^2 \rangle}{2} = nkT,$$

bunda R - gazlar molekulyar - kinetik nazar iyasining asosiy tenglamasi dan topiladi.

Gaz molekulasining o'rtacha kvadratik tezligi:

$$\langle v_{\text{kg}} \rangle = \sqrt{\frac{3kT}{m_0}} = \sqrt{\frac{3 \cdot RT}{M}} = 1,7 \sqrt{\frac{RT}{M}}.$$

Molekulaning o'rtacha arifmetik tezligi:

$$\langle v \rangle = \sqrt{\frac{8kT}{\pi m_0}} = \sqrt{\frac{8RT}{\pi M}} = 1,6 \sqrt{\frac{RT}{M}}.$$

Molekulaning ehtimolligi eng katta bo'lgan tezlik:

$$v_{\text{ex}} = \sqrt{\frac{2kT}{m_0}} = \sqrt{\frac{2RT}{M}} = 1,4 \sqrt{\frac{RT}{M}}.$$

Yuqoridaagi formulalardan: n - hajm birligidagi molekulalar soni, k - Boltzman doimisi, m_0 - bitta molekula massasi, T - absolyut temperatura, R - gazning universal doimisi, M - molar massasi.

Molekulalarga Er tortish kuchi ta'sir etganligitufayli balandlik ortgan sariularning soni (zichligi ham) eksponensial qonun bo'yicha kamaya boradi:

$$n = n_0 \cdot e^{-\frac{m_0 gh}{kT}}.$$

Xuddi shunga o'xshash gaz (atmosfera) bosimi ham kamayadi (barometrik formula):

$$p = p_0 \cdot e^{-\frac{m_0 gh}{kT}},$$

Moddaning issiqlik sig'imi:

$$C_M = \frac{\Delta Q}{\Delta T},$$

Bir mol moddaning issiqlik sig'imi:

$$C = \frac{C_M}{v} = \frac{C_M M}{m},$$

b unda $v = m/M$ gazdağı molalar soni.

Moddanıng solishtırma issiqlik sig'imi:

$$c = \frac{Q}{m\Delta T}.$$

Moddanıng solishtırma issiqlik sig'imi bilan molyar issiqlik sig'imi orasıdır ağıb og 'lanışlı:

$$c = \frac{C}{M}.$$

O'zgarmas hajmdagi 1 mol gazning issiqlik sig'imi C_v , gazning solishtırma issiqlik sig'imi C_v , molekulalar ning erkinlik darajalari i va molyar gaz doimisiy়i R bilan quyidagiicha bog'langan.

Molyar issiqlik sig'imi $C_v = \frac{i}{2}R$ va solishtırma issiqlik sig'imi

$$c_v = \frac{C_v}{M} = \frac{i}{2} \cdot \frac{R}{M}.$$

O'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'imi ifodalari quyidagiicha:

$C_p = \frac{i+2}{2} \cdot R$ – molyar issiqlik sig'imi; $C_p = \frac{C_p}{M} = \frac{i+2}{2} \cdot \frac{R}{M}$ – solishtırma issiqlik sig'imi.

Bosim o'zarmagandagi gaz issiqlik sig'imi C_p ni hajm o'zarmagandagi issiqlik sig'imi C_v ga nisbati (Puasson koeffitsienti):

$$\gamma = \frac{C_p}{C_v} = \frac{C_p}{C_v} = \frac{i+2}{i}$$

Bu issiqlik sig'imir ayirmasi Robert – Mayer tenglamasi deyiladi:

$$C_p - C_v = \frac{R}{M}, \quad C_p - C_v = R.$$

MOLEKULYAR – KINETIK NAZARIYAGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Haroratlari $T=800K$ bo'lgan gelyi (Ne: $M_1=4 \text{ kg/kmol}$), kislord ($O_2: M_2=32 \text{ kg/kmol}$) va karbonat angidrid ($SO_2: M_3=44 \text{ kg/kmol}$) molekulalarining o'rtacha kvadratik tezliklari $\langle \vartheta_{x\theta_1} \rangle$, $\langle \vartheta_{x\theta_2} \rangle$ va $\langle \vartheta_{x\theta_3} \rangle$ topilsin. Gazning universal doimisiy়i $R=8,31 \cdot 10^3 \frac{J}{Kmol \cdot K}$.

Berilgan: $T=800K$; $M_1=4 \text{ kg/kmol}$; $M_2=32 \text{ kg/kmol}$;

$$M_3=44 \text{ kg/kmol}; \quad R=8,31 \cdot 10^3 \frac{J}{Kmol \cdot K}$$

Topish kerak: $\langle \vartheta_{kv1} \rangle = ?$ $\langle \vartheta_{kv2} \rangle = ?$ $\langle \vartheta_{kv3} \rangle = ?$

Echilishi: Gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi:

$$\langle \vartheta_{kv} \rangle = \sqrt{\frac{3RT}{M}}$$

Binobarin,

$$\langle \vartheta_{k\theta_1} \rangle = \sqrt{\frac{3RT}{M_1}} = \sqrt{\frac{3 \cdot 8,31 \cdot 10^3 \text{ J/kmol} \cdot \text{K} \cdot 800\text{K}}{4 \text{ kg/kmol}}} = 2,24 \cdot 10^3 \text{ m/s};$$

$$\langle \vartheta_{k\theta_2} \rangle = \sqrt{\frac{3RT}{M_2}} = \sqrt{\frac{3 \cdot 8,31 \cdot 10^3 \text{ J/kmol} \cdot \text{K} \cdot 800\text{K}}{32 \text{ kg/kmol}}} = 0,79 \cdot 10^3 \text{ m/s};$$

$$\langle \vartheta_{k\theta_3} \rangle = \sqrt{\frac{3RT}{M_3}} = \sqrt{\frac{3 \cdot 8,31 \cdot 10^3 \text{ J/kmol} \cdot \text{K} \cdot 800\text{K}}{44 \text{ kg/kmol}}} = 0,67 \cdot 10^3 \text{ m/s}.$$

2-masala. Hozirgi zam on laboratoriyasida diffuzion nasos yordamida $P=1 \text{ pPa}$ bosimli vakuum hosil qilish mumkin. Agar $T=300 \text{ K}$ bo'lsa, shunday vakuumdagi gaz molekulalarining konsentratsiyasi no topilsin. Bolsman döimiysi $k = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$.

Berilgan: $P=1 \text{ pPa}=10^{-12} \text{ Pa}$; $T=300 \text{ K}$; $k = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$.

Topish kerak: $n_0=?$

Echilishi: Gazlar molekulyar-kinetik nazar iyasining asosiy tenglamasi $r=n_0KT$ dan

$$n_0 = \frac{P}{kT} = \frac{10^{-12} \text{ Pa}}{1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K} \cdot 300 \text{ K}} = \frac{10^{-12} \text{ N/m}^2}{4,14 \cdot 10^{-21} \text{ N.m}} = 2,41 \cdot 10^8 \left(\frac{1}{\text{m}^3} \right).$$

3-masala. Neon va vodorod gazlarining ideal gaz deb hisob lab, ular uchun o'zgarmas hajm va o'zgarmas bosim sharoitidagi solishtirma issiqlik sig'imirni C_p va C_v aniqlansin.

Echish. Ideal gazlarning C_r va C_v solishtirma issiqlik sig'imirni

$$C_v = \frac{i}{2} \frac{R}{M}, \quad (1)$$

$$C_p = \frac{i+2}{2} \frac{R}{M}. \quad (2)$$

formulalar bilan aniqlanar edi. Bu erda i - gaz molekulasining erkinlik darajasi. M - molyar massa. Neon bir atomli gaz bo'lgani uchun $i=3$ bo'lib, $M=20 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}$.

Hisoblashti bajaramiz:

$$C_v = \frac{3}{2} \frac{8,31}{20 \cdot 10^{-3}} \text{ J/(kg K)} = 6,24 \cdot 10^2 \text{ J/(kg K)};$$

$$C_p = \frac{3+2}{2} \cdot \frac{8,31}{2 \cdot 10^{-3}} \text{ J/(kg K)} = 1,04 \cdot 10^3 \text{ J/(kg K)}.$$

Vod orod ikki atomli gaz bo'lgani uchun $i=5$ bo'lib $M=2 \cdot 10^{-3} \text{ g/mol}$.
Vod orod uchun

$$C_v = \frac{5}{2} \cdot \frac{8,31}{2 \cdot 10^{-3}} \text{ J/(kg K)} = 1,04 \cdot 10^4 \text{ J/(kg K)};$$

$$C_p = \frac{5+2}{2} \cdot \frac{8,31}{2 \cdot 10^{-3}} \text{ J/(kg K)} = 1,46 \cdot 10^4 \text{ J/(kg K)}$$

ekanligini topamiz.

4-masala. Gaz aralashmasi $w_1=80\%$ neondan va $w_2=20\%$ vod oroddan tashkil topgan bo'lsa, neon va vod orod aralashmasi uchun C_v va C_p topilsin. (C_v va C_p larning qiyatlari 3-masaladan olinsin).

Echish. Aralashmani o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig'imi ni quyidagicha topamiz. Aralashmaning haroratini ΔT ga oshirish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori uchun

$$Q = C_v(m_1 + m_2) \Delta T, \quad (1)$$

$$Q = (C_{v1}m_1 + C_{v2}m_2) \Delta T \quad (2)$$

tengliklarni yozish mumkin. Bu erda C_{v1} - neonning solishtirma issiqlik sig'imi, s_{v2} - vod orodning solishtirma issiqlik sig'imi.

(1) va (2) tengliklarni o'ng tomonlarini tenglab ΔT ga bo'lib s_v ni topamiz, ya'ni

$$C_v(m_1 + m_2) = C_{v1}m_1 + C_{v2}m_2.$$

Bundan

$$C_v = C_{v1} \frac{m_1}{m_1 + m_2} + C_{v2} \frac{m_2}{m_1 + m_2}$$

yoki

$$C_v = C_{v1}W_1 + C_{v2}W_2,$$

$$\text{bu erda } W_1 = \frac{m_1}{m_1 + m_2} \text{ va } W_2 = \frac{m_2}{m_1 + m_2}.$$

Xuddi shunday fikr yuritib, aralashmaning o'zgarmas bosimidagi solishtirma issiqlik sig'imi uchun

$$C_p = C_{p1}W_1 + C_{p2}W_2$$

ifodani hosil qilamiz.

Endi C_v va C_p ni hisoblaymiz:

$$C_v = (6,24 \cdot 10^2 \cdot 0,8 + 1,04 \cdot 10^4 \cdot 0,2) \text{ J/(kg k)} = 2,58 \cdot 10^3 \text{ J/(kg k)} = 2,58 \text{ kJ/(kg k)},$$

$$C_p = (1,04 \cdot 10^3 \cdot 0,8 + 1,46 \cdot 10^4 \cdot 0,2) J/(kg \cdot K) = 3,75 \cdot 10^3 J/(kg \cdot K) = 3,75 \text{ kJ}/(\text{kg} \cdot \text{K})$$

MOLEKULYAR – KINETIK NAZARIYAGA DOIR MASALALAR

221. Hajmi 2 l va bosimi 0,15 Pa bo'lgan ikki atomli gaz molekulalarining o'rtacha kinetik energiyasi topilsin.
222. Normal sharoitdagi ikki atomli gazning zichligi $1,43 \text{ kg/m}^3$ ga teng. Shu gazning o'zgarmas hajm va o'zgarmas bosimdagи solishtirma issiqlik sig 'imlari topilsin.
223. 8 g geliy va 16 g kislordan iborat bo'lgan gaz aralashmasi uchun issiqlik sig 'imlari nisbati (C_p/C_v) topilsin.
224. Gaz zichligi $6 \cdot 10^{-2} \text{ kg/m}^3$ va molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi 500 m/s bo'lsa, gaz bosimi topilsin.
225. Temperatura qanday bo'lganda gaz molekulasi ilgarilanma harakating o'rtacha kinetik energiyasi $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J/gateng}$ bo'ladi?
226. $3 \cdot 10^5 \text{ Pa atm}$ bosim ostidagi 10ℓ vodorodning ichki energiyasi nimaga teng?
227. Qandaydir gaz bir molining massasi $M = 3 \cdot 10^{-2} \text{ kg/mol}$ va issiqlik sig 'imlar nisbati $C_p/C_v = 1,4$ bo'lsa, bu gaz uchun hajm va bosim o'zgarmas bo'lgandagi solishtirma issiqlik sig 'imlari aniqlansin.
228. 3 kmol argon va 2 kmol azotdan iborat bo'lgan gaz aralashmasining o'zgarmas bosimdagи solishtirma issiqlik sig 'imi topilsin.
229. Agar gaz molekulalarining ilgarilanma harakat o'rtacha kinetik energiyasi $2,76 \cdot 10^{-10} \text{ J bo'lsa}$ gazning haroratini aniqlang.
230. Gaz molekulalarining 527°C haroratidagi ilgarilanma harakat o'rtacha kinetik energiyasi qanday bo'ladi?
231. Agar harorati 87°C ga teng bo'lgan gazning har bir kub santimetrida 10^{18} ta molekula bo'lsa uning bosimi qanday?
232. Normal sharoitda gazning 9 m^3 hajmida qancha molekula bo'lishini aniqlang.
233. $\langle v_{ke} \rangle = \sqrt{\frac{3kT}{m}}$ formulaning o'ng tomoni tezlik birliklarida o'lchanishini isb otlang?
234. Kislord molekulalarining 293 K haroratidagi o'rtacha kvadratik tezligini aniqlang. Qanday haroratda bu tezlik 500 m/c ga teng bo'ladi?
235. Geliy molekulalarining $0,40 \text{ K}$ haroratidagi o'rtacha kvadratik tezligi qanday? Quyosh atmosferasida geliy atomlarining 6000 K haroratidagi o'rtacha kvadratik tezligi nimaga teng?
236. Karbonat ang idrid gazining 273 K haroratidagi o'rtacha kvadratik tezligi 360 m/c ga teng. Uning 400 K haroratidagi tezligi qanday?

237. Qanday haroratli geliy molekulalari vodorod molekulalari 288 K haroratda erishadigan tezlikka ega bo'ladi?

238. Vodorod molekulasining 288 K da o'rtacha kvadratik tezligi 1900 m/c. Kislorod molekulasining 0°C dagi o'rtacha kvadratik tezligi qanday?

239. Suv bug'ining 12°C haroratidagi o'rtacha kvadratik tezligi qanday?

240. Kislorod molekulasining o'rtacha kvadratik tezligi 450 m/c bo'lgan jarayondagi haroratni aniqlang.

3. GAZLARDA KO'CHISH HODISALARI

Vaqt birligida gaz molekulalarining o'rtacha to'q nashishlar soni

$$\langle z \rangle = 4\sqrt{2}\pi r^2 n \langle \vartheta \rangle = \sqrt{2}\pi \sigma^2 n \langle \vartheta \rangle,$$

Bunda r – molekulaning effektiv radiusi, σ – uning effektiv diametri, n – hajm birligidagi molekulalar soni, $\langle \vartheta \rangle$ – molekulaning o'rtacha arifmetik tezligi.

Molekulalar erkin yugurish yo'llining o'rtacha uzunligi:

$$\langle \lambda \rangle = \frac{\langle v \rangle}{\langle z \rangle} = \frac{1}{4\sqrt{2}\pi r^2 n} = \frac{1}{\sqrt{2}\pi \sigma^2 n}$$

yoki $n = r/kT$ bo'lgani uchun:

Bunda k – Boltzman doimisi, T – absolyut temperatura.

Fik qonuniga asosan diffuziya paytidagi ko'chirilgan gaz massasi:

$$\Delta m = -D \left(\frac{\Delta \rho}{\Delta x} \right) \Delta S / \Delta \tau,$$

Bunda $\Delta \rho / \Delta x$ – gaz zichligining gradienti, ΔS – gazning diffuziyalanuvchi yuzi, $\Delta \tau$ – diffuziya vaqt, D – diffuziya koeffitsienti bo'lib, u o'rtacha arifmetik tezligi $\langle \vartheta \rangle$ va erkin yugurish yo'llining o'rtacha uzunligi $\langle \lambda \rangle$ bilan quyidagiicha bog'langan:

$$D = \frac{1}{3} \langle \vartheta \rangle \langle \lambda \rangle.$$

Gazlarning ichki qatlamlari orasidagi ishqalanish kuchi:

$$F = -\eta \left(\frac{\Delta u}{\Delta x} \right) \Delta S,$$

Bunda $\Delta U / \Delta x$ – tezlik gradienti, ΔS – ishqalanuvchi qatlamlarning yuzi, η – ishqalanish koeffitsienti bo'lib, u gaz zichligi ρ molekulaning o'rtacha arifmetik tezligi $\langle \vartheta \rangle$ va erkin yugurish yo'llining o'rtacha uzunligi $\langle \lambda \rangle$ bilan quyidagiicha bog'langan:

$$\eta = \frac{1}{3} \rho \langle \vartheta \rangle \langle \lambda \rangle.$$

Bir or ΔS yuzadan $\Delta \tau$ vaqt oralig'i ida o'tgan issiqlik miqdori:

$$\Delta Q = -\chi \left(\frac{\Delta T}{\Delta x} \right) \Delta S \cdot \Delta \tau.$$

Bunda $\Delta T / \Delta x$ – temperatura gradienti, χ – issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti bo'lib, u gaz zichligi, o'rtacha arifmetik tezlik, erkin yugurish

yo'lining o'rtacha uzunligi va gazning hajm o'zgarmas bo'lqandagi solishtirma issiqlik sig'imi bilan quyidagiicha bog'langan:

$$\chi = \frac{1}{3} \rho <\vartheta> <\lambda> c_v.$$

$\rho c_v = \frac{1}{2} k n$ ekanini isbot etish oson. Shuning uchun bu formulani quyidagiicha ham yozish mumkin:

$$\chi = \frac{1}{6} k n <\vartheta> <\lambda> .$$

Bunda k - Bolsman doimisi, n - hajm birligidagi molekulalar soni.

Issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsienti bilan ishqalanish koefitsienti orasidagi bog'lanish:

$$\chi = \eta c_v .$$

Bu koefitsientlar orasidagi aniqrq bog'lanish:

$$\chi = \frac{9\gamma - 5}{4} \eta c_v$$

$$\text{bund a } \gamma = \frac{C_p}{C_v} .$$

GAZLARDA KO'CHISH HODISALARIGA DOIR MASALALAR ECHISH NAMUNALARI

1-masala. Agar gazning temperaturasi 17°C bolsa, $P=666,6 \text{ Pa}$ bosimda 1 sm^3 dagi kislordan molekulalarining 1 s dagi o'zaro to'q nashishlari sonini toping. Kislordan molekulasingining effektiv diametri $\sigma = 2,9 \text{ \AA}$ ($1 \text{ \AA} = 10^{-8} \text{ sm}$).

Berilgan:

$V = 1 \text{ sm}^3 = 1 \cdot 10^{-6} \text{ m}^3$; $M = 32 \text{ g/mol} = 0,032 \text{ kg/mol}$; $\tau = 1 \text{ s}$; $P = 666,6 \text{ Pa}$; $t = 17^\circ\text{C}$, $T = 290 \text{ K}$; $\sigma = 2,9 \text{ \AA} = 2,9 \cdot 10^{-8} \text{ sm} = 2,9 \cdot 10^{-10} \text{ m}$.

Topish kerak: $z_0 = ?$

Echish: Aytaylik $<z>$ - gazning bitta molekulasingining 1 sekunddagil to'q nashishlar soni bo'lsin:

$$<z> = \frac{<\vartheta>}{<\lambda>} ,$$

bu erda $<\vartheta>$ - o'rtacha tezlik, $<\lambda>$ - erkin yugurish yo'lining o'rtacha uzunligi (molekulaning ikkitaket urilish orasida o'tgan yo'li). 1 sm^3 hajmda 1 s davomida bo'ladi gan barcha to'q nashishlar soni

$$z_0 = \frac{<z> \cdot n_0}{2} ,$$

$$z_0 = \frac{<\vartheta>n_o}{2<\lambda>}.$$

Maxrajdag i 2 son har bir to'q nashishda ikkit a molekula qat nashidan kelib chiqadi. $<\vartheta>$, $<\lambda>$, n_o – larning qiyatlarini quyidagi formulalardan topamiz:

$$<\vartheta> = \sqrt{\frac{8RT}{\pi M}}; \quad <\lambda> = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma^2 n_o}}; \quad n_o = \frac{p}{kT}.$$

Bu vaqtida:

$$Z_0 = \frac{<\vartheta>n_o}{2<\lambda>} = \frac{\sqrt{\frac{8RT}{\pi M} \cdot \frac{p}{kT}}}{\frac{2kT}{\sqrt{2\pi\sigma^2 p}}} = 2\sqrt{\frac{\pi RT}{M} \left(\frac{\sigma P}{KT}\right)^2}.$$

Berilgan qiyatlar ni yuqoridagi formulaga qo'yamiz:

$$z_0 = 2\sqrt{\frac{\pi \cdot 8,31 \cdot 290}{32 \cdot 10^{-3}} \left(\frac{2,9 \cdot 10^{-10} \cdot 666,6 \cdot 10^5}{1,38 \cdot 10^{-23} \cdot 290} \right)^2} \approx 2,27 \cdot 10^{38}.$$

2-masala. Agar normal sharoitda ichki ishqalanish koefitsienti $\eta = 8,6 \cdot 10^{-5}$ puaz bo'lisa, shu sharoitda vodorod molekulalarining o'rtacha erkin yugurish yo'lini aniqlang. Keltirilgan qiyatlarga asoslanib vodorod molekulasining effektiv diametrini hisoblang.

Berilgan:

$$\eta = 8,6 \cdot 10^{-5} \text{ puaz}, \quad M = 2 \text{ g/mol} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}, \quad T = 273 \text{ K}.$$

Topish kerak: $<\lambda> - ?$ $\sigma - ?$

Echish: Gazlarning ichki ishqalanish koefitsienti:

$$\eta = \frac{1}{3} \rho <\vartheta><\lambda>,$$

bu erda ρ – zinchlik, $<\vartheta>$ – o'rtacha tezlik, $<\lambda>$ – o'rtacha erkin yugurish yo'li.

$$\text{Bundan} \quad <\lambda> = \frac{3\eta}{\rho <\vartheta>}.$$

Normal sharoitda zinchlik ρ ni aniqlash uchun bir mol gaz massasi $M = 2 \cdot 10^{-3}$ kg/mol ni normal sharoitda bir mol gaz egallagan hajm $V_{OM} = 0,0224 \text{ m}^3$ ga bo'lamiz, ya'ni

$$\rho = \frac{M}{V_{OM}} = \frac{2 \cdot 10^{-3}}{0,0224} = 8,93 \cdot 10^{-2} \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}.$$

Molekulalarning o'rtacha tezligi quyidagi formuladan topamiz:

$$\langle \vartheta \rangle = \sqrt{\frac{8RT}{\pi M}} = \sqrt{\frac{8 \cdot 8,31 \cdot 273}{\pi \cdot 2 \cdot 10^{-3}}} \approx 1,7 \cdot 10^3 \text{ m/s}.$$

Bu vaqtida:

$$\langle \lambda \rangle = \frac{3 \cdot \eta}{\rho \cdot \langle \vartheta \rangle} = \frac{3 \cdot 8,6 \cdot 10^{-5}}{8,93 \cdot 10^{-2} \cdot 1,7 \cdot 10^3} = 1,7 \cdot 10^{-6} \text{ m}.$$

O'rtacha yug'urish yo'llini b'ilgach, molekulalarning effektiv diametrini hisoblash mumkin. Haqiqatdan ham:

$$\langle \lambda \rangle = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma^2 n_o}},$$

bundan

$$\sigma = \frac{1}{\sqrt{\sqrt{2\pi} \langle \lambda \rangle n_o}}.$$

Normal sharoitda $n_o = 2,69 \cdot 10^{25} \text{ (1/m}^3)$, shuning uchun

$$\sigma = \frac{1}{\sqrt{2\pi \cdot 1,7 \cdot 10^{-6} \cdot 2,69 \cdot 10^{25}}} \approx 2,2 \cdot 10^{-10} \text{ m}.$$

3-masala. Har birining yuzi $S=100 \text{ sm}^2$ bo'lgan ikkita plastinka azot atmosferasida bir-biridan $\Delta x = 2 \text{ mm}$ uzoqlikda joylashtirilgan. Birinchi plastinkaning temperaturasi $T_1=0^\circ\text{C}$, ikkinchisini ki $T_2=14^\circ\text{C}$ bo'lib, bu temperaturlar doimiy saqlanadi. Gazning issiqlik o'tkazishi natijasida plastinkalar orasidan $\tau=1$ soatda $\Delta Q=3268 \text{ J}$ issiqlik miqdori o'tadi. Azot molekulasingining o'lchamlarini aniqlang.

Berilgan. $T_1 = 273 \text{ K}$; $T_2 = 287 \text{ K}$; $\Delta Q = 3268 \text{ J}$; $\tau = 1 \text{ soat} = 3600 \text{ s}$; $S = 100 \text{ sm}^2 = 1 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$; $\Delta x = 2 \text{ mm} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ m}$; $M = 28 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}$; $i = 5$.

Topish kerak: $\sigma = ?$

Echish: Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini yozamiz:

$$\Delta Q = -\chi \left(\frac{\Delta l}{\Delta x} \right) \Delta S \Delta \tau,$$

bundan

$$\chi = \frac{\Delta Q \Delta x}{(T_2 - T_1) S \tau} = \frac{3268 \cdot 2 \cdot 10^{-3}}{14 \cdot 10^{-4} \cdot 3600} = 1,3 \frac{\text{J}}{\text{K} \cdot \text{m} \cdot \text{s}}.$$

Ikkinci tomondan, molekulyar-kinetik nazariyaga asosan gazlarning issiqlik o't kazuvchanlik koeffitsienti

$$\chi = \frac{1}{3} \cdot \rho \cdot \langle \vartheta \rangle \cdot \langle \lambda \rangle \cdot c_v$$

formuladan aniq lanadi.

$$\langle \lambda \rangle = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma^2 n_0}}$$

bo'lgani uchun

$$\chi = \frac{\rho \langle \vartheta \rangle \cdot c_v}{3\sqrt{2\pi\sigma^2 n_0}}$$

hosil qilingan ifodani o'zgartiramiz: $i=5; R=8,31 \frac{J}{mol \cdot K}$ bo'lgani uchun o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig'imi:

$$C_v = \frac{C_v}{M} = \frac{i}{2} \frac{R}{M} = \frac{5}{M} \frac{8,31}{2} = \frac{20,77}{M} \frac{J}{kg \cdot K} \approx \frac{21}{M} \frac{J}{kg \cdot K}$$

boladi.

Ko'rinib turibdiki, $\frac{\rho}{n_0}$ bitta molekulaning massasi, ikkinchi tomondan, molekula massasi $\frac{M}{N_A}$ gateng (bu erda N_A - Avogadro soni). Shuning uchun $\frac{\rho}{n_0} = \frac{M}{N_A}$; M va N_A gaz holatiga bog'liq bo'limgan doimiy kattaliklar bo'lgani uchun bunday o'rinalmashtirish qulay. Bu vaqtida issiqlik o't kazuvchanlik koeffitsienti uchun

$$\chi = \frac{21 \langle \vartheta \rangle}{3\sqrt{2\pi\sigma^2 N_A}}$$

formula hosil boladi. bundan

$$\sigma^2 = \frac{21 \langle \vartheta \rangle}{3\sqrt{2\pi N_A \chi}}$$

Oxirgi formulada faqat o'rtacha tezlik $\langle \vartheta \rangle$ nomalum:

$$\langle \vartheta \rangle = \sqrt{\frac{8RT}{\pi\mu}}; \text{ gazning temperaturasit uchun } t_1 \text{ va } t_2 \text{ lar orasidagi o'rtacha}$$

arifmetik qiyamat, ya'ni $t = \frac{t_1 + t_2}{2} = 7^\circ C$ yoki $T=280 K$ ni qabul qillamiz. Bu vaqtida o'rtacha tezlik uchun $\langle \vartheta \rangle = \sqrt{\frac{8 \cdot 8,31 \cdot 280}{\pi \cdot 28 \cdot 10^{-3}}} \approx 4,6 \cdot 10^2 m/s$ qiyamatni topamiz. Demak, molekula effektiv diametrining kvadrati:

$$\sigma^2 = \frac{21 < \vartheta >}{3\sqrt{2\pi} N \chi} = \frac{21 \cdot 4,6 \cdot 10^2}{3\sqrt{2\pi} \cdot 6,02 \cdot 10^{23} \cdot 1,3} = 0,094 \cdot 10^{-20} \text{m}^2.$$

ekan.

Hisoblasak: $\sigma = 0,31 \cdot 10^{-10} \text{ m}^2$.

GAZLARDA KO'CHISH HODISALARIGA DOIR MASALALAR

241. Hajmi 100 sm^3 bo'lgan kolbada $0,5 \text{ g}$ azot gazi bor. Agar azot molekulasining effektiv diametri $3 \cdot 10^{-8} \text{ m}$ bo'sa, molekula erkin yugurish yo'lining o'rtacha uzunligi topilsin.
242. Kislorodning diffuziya va ichki ishqalanish koeffitsientlari mos ravishda $D=1,22 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2/\text{s}$ va $\eta=1,95 \cdot 10^{-5} \text{ kg}/(\text{m s})$ ga teng. Shunday sharoitda kislorod gazining zichligi, molekulalarning erkin yugurish yo'li o'rtacha uzunligi va o'rtacha arifmetik tezligi topilsin. Kislorod molekulasining effektiv diametri $\sigma=3 \cdot 10^{-10} \text{ m}$.
243. Temperaturasi 0°C bo'lgan kislorod gazining ichki ishqalanish koeffitsienti $10,6 \cdot 10^{-6} \text{ N s/m}^2$ ga teng bo'sa, kislorod molekulasining effektiv diametri aniq lansin.
244. Kislorodning ichki ishqalanish koeffitsienti azot gazinikidan necha marta katta? Gazlar ning temperaturalari bir xil deb olinsin.
245. Bosimi $0,001 \text{ mm sim. ust.}$ va temperaturasi -173°C bo'lgan vodorod gazi molekulasi erkin yugurish yo'lining o'rtacha uzunligi topilsin. Vodorod molekulasining effektiv diametri $2,3 \cdot 10^{-10} \text{ m}$.
